

2025, 3-son

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

AXBOROTNOMASI

2025



+998993115155



www.nsuni.uz

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

A X B O R O T N O M A S I

2025, № 3

Navoiy-2025

TAHRIRIYAT HAY'ATI:

Bosh muharrir:

I.f.d-ri, prof.M.B.Kalonov

Bosh muharrir o'rinbosari
Mas'ul kotib

DSc.R.H.Davlatova
PhD.D.F.Jabborova

Tahririyat hay'ati a'zolari:

Akademik Sh.Ayupov
Akademik I.D.Lelsitskiy
Akademik N.J.Kalonov
Akademik K.Sh.Tojibayev
Akademik S.Negmatov
Akademik B.Zaripov
Akademik R.Jo'rayev
Akademik X.Ibragimov
Director at House of
Leading&Learning Oy Hanne Koli
(Finland)
P.f.d., prof. Azizuddin Khan
(Kanpur IIT, Hindiston)
PhD. Tabassum Qazi (Kanpur IIT,
Hindiston)
F.f.d, prof. Z.N.Xudoyberganova
(Bartın Universiteti, Turkiya)
к.п.н. доцент Пежемская Юлия
Сергеевна (Санкт-Петербург,
Россия)
F.f.d., prof. D.Lutfullayeva
P.f.d., prof. O.Musurmonova
Iqt.f.d., prof. N.Murodova
P.f.d., prof. D.Narzikulova
P.f.d., prof. A.Ahmedov
F.f.d., prof. M.Ernazarova
F.f.d., prof. N.Safarova
I.f.f.d. I.S.Zaynutdinov
I.f.f.d. M.Kalonova
T.f.d. A.Aminova

B.f.d. S.Shodiyev
P.f.d. U.Mirsanov
T.f.n., prof. I.Kamolov
T.f.n. X.Qurbonov
P.f.n. T.O'tapov
P.f.n. G'.R.Yodgorov
F.-m.f.n. R.Ro'ziyev
F.f.n. T.Xo'jaev
F.-m.f.n. B.Izbosarov
B.f.n. A.Kushakov

Texnik muharrirlar

A.Bahromov
I.Mahmudov
S.Saydullayev

Manzil: Navoiy sh., Ibn Sino ko'chasi, 45-
uy.

Navoiy davlat universiteti, Bosh bino.
Tel.: (8436) 522-19-30, Faks: 225-19-30;
web-sayt: *nspi.uz*
e-mail: *@nspi.uz* yoki *isfan2006@mail.ru*

MUNDARIJA// CONTENTS

Pedagogika			
1.	Нуриханова Наилъа Камиловна Мирсаяпова Зульфида Фаридовна Шабасева Авелина Артуровна	Психолого-педагогические условия эффективной работы в малых группах в доу: интеграция теории и производственной практики	6-9
2	Jo'rayev Voxid Tojimamatovich	Elektron pedagogika fanini o'qitishda taqdimot yaratuvchi dasturlar asosida amaliy mashg'ulot samaradorligini oshirish usullari	8-13
3	Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna Ruziyeva Shoxida Fatilloyevna	Ta'limda akademik mobillikning istiqbollari: muammo va yechimlar	13-21
4.	Xamrayeva Diyora Burxon qizi	Maktabgacha va boshlang'ich ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarning akmeologik xususiyatlari	21-25
5.	Pardayev Sobit Abdivali o'g'li	Yangi O'zbekiston hayotida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni targ'ibot va qarshi targ'ibot qilishning texnologik diversifikatsiyasi	25-32
6.	Xaydarova Shaxlo Narzullayevna	Maktabgacha yoshdagi bolalarni turizmga jalb qilishning ijobiy jihatlari	32-36
7.	Qurbonova O'lmas Usmonovna	Interfaol metodlar asosida o'quvchilarda erkin fikrlashni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	37-42
8.	Qambarov Mirzobobur Bahodir o'g'li	Ta'lim jarayonida 4 k modelini qo'llash asosida iqtisodiy tarbiyani shakllantirish	42-46
9.	To'qboyeva Dilshoda Zayniyevna	Maktab ta'limida yuqori sinf o'quvchilari shaxsiy faoliyati samaradorligini oshirish omillari	47-51
10.	Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna	Tasviriyy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanishi vositasi sifatida	52-54
11.	Saidova Yulduz Zamon qizi	Talabalar ma'naviy tarbiyasini rivojlantirishning zamonaviy shakllari	54-60
12.	Subxonova Sanobar Abduhalim qizi	Boshlang'ich sinflarda to'g'ri yozish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv	60-64

		topshiriqlarining tavsifi	
13.	Jabborova Dilafruz Furkatovna	Pedagogik riskologiya: ilmiy yondashuvlar va nazariy talqin	65-68
Tilshunoslik			
14.	Jo'rayeva Bibish Muxsinovna Barnoyeva Samarabonu Uchqun qizi	Lingvomadaniyatshunoslik antroposentrik paradigma yo'nalishi sifatida	68-75
15.	Teshaboyev Dilmurod Raxmadjonovich	O'zbek tilidagi ergash gapli qo'shma gaplarning nazariy asoslari	76-82
16.	Hamdamova Shamshoda Saidaxmad qizi	Tohir Malik ijodida tibbiy eksperimentlarning ilmiy-fantastik talqini	83-88
17.	Nizomov Farxod Muso o'g'li	Davr va qahramon munosabati: ifoda va tasvir	88-95
18.	Гафурова Азиза Зиятовна	Роль модернизма в мировой литературе и искусстве	95-99
Musiqa			
19.	Shohida Omanqulova Nematillo qizi	Musiqa to'garaklarida dutor cholg'usi asosida o'quvchilarning ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishga qo'yiladigan pedagogik talablar	100-107
20.	Murodov Mirshoxid Burxanovich	Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida vokal ijrochiligi malakalarini rivojlantirishning pedagogik mazmuni	107-110
21.	Samatova Dilnoza Salaidinovna	Talabalarni cholg'u ijrochiligi asosida estetik tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslari	110-120
22.	Omanqulova Shohida Nematillo qizi Hamrayeva Umida Shonazarovna	Musiqa darslarida o'quvchilarga xalq qo'shiqlarini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	120-127

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ЭФФЕКТИВНОЙ РАБОТЫ В МАЛЫХ ГРУППАХ В ДОУ: ИНТЕГРАЦИЯ ТЕОРИИ И ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ПРАКТИКИ

Нуриханова Наиля Камиловна

к.п.н., доцент ФГБОУ БГПУ им.М.Акмиллы

г. Уфа, Россия, nurikhanai@rambler.ru

Мирсаянова Зулфида Фаридовна, педагог-психолог МБДОУ Детский сад 162 ГО г.

Уфа, Россия, zulfia-mirs@yandex.ru

Шабаетова Авелина Артуровна

студентка факультета психологии 2 курса

ФГБОУ БГПУ им.М.Акмиллы, г. Уфа, Россия 89649549205ava@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются психолого-педагогические условия, обеспечивающие эффективное применение технологии работы в малых группах в дошкольных образовательных учреждениях (ДОУ). Особое внимание уделяется интеграции теоретических основ и практического опыта, накопленного в ходе производственной практики. Анализируются ключевые факторы, способствующие развитию коммуникативных навыков, сотрудничества и познавательной активности у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: малые группы, дошкольное образование, психолого-педагогические условия, групповая работа, производственная практика, коммуникативные навыки.

Annotation. The article discusses the pedagogical conditions that ensure the effective use of the technology of «Working in small groups» in preschool educational institutions. Special attention is paid to the integration of theoretical foundations and practical experience gained during production practice. The key factors contributing to the development of communication skills, cooperation and cognitive activity in preschool children are analyzed.

Keywords: small groups, preschool education, pedagogical conditions, group work, industrial practice, communication skills.

Современные требования ФГОС ДО акцентируют внимание на развитии у дошкольников навыков сотрудничества, коммуникации и совместной деятельности. Одной из эффективных технологий, отвечающих этим задачам, является «Работа в малых группах». Однако ее успешное применение требует соблюдения определенных педагогических условий, учитывающих возрастные особенности детей и специфику образовательной среды.

Технология работы в малых группах базируется на принципах социального конструктивизма [1], согласно которым обучение наиболее эффективно происходит в процессе взаимодействия между участниками группы. В дошкольном возрасте данная технология способствует: развитию коммуникативных навыков; формированию умения договариваться и распределять роли; активизации познавательной деятельности через совместное решение задач.

Оптимальный размер малой группы в ДОУ – 3–5 детей, что позволяет обеспечить вовлеченность каждого ребенка и избежать конфликтов [4].

На основе анализа теоретических источников и обобщения опыта производственной практики можно выделить следующие условия: создание благоприятной психологической атмосферы для формирования доверительных отношений между детьми; использование игровых методов с целью снижения напряжения (ритуалы «прощания»). Также с целью структурирования деятельности необходимо распределять роли и давать задачи в соответствии с возрастными и индивидуальными особенностями.

На производственной практике мы использовали разнообразные формы групповой работы (например, совместная работа в песочнице) и создавали разнообразные игровые ситуации («Постройка дома для муравья», где нужно договориться о плане действий). Педагог-психолог выступает в роли модератора, направляя детей, но не подавляя их инициативу: важно вовремя разрешать конфликты и поощрять позитивное взаимодействие. Необходимо завершать работу рефлексией и обсуждением результатов, а также поощрять детей за сотрудничество, тем самым, формируя позитивное подкрепление [2].

Психолого-педагогические условия эффективного применения технологии заключаются в учете индивидуальных особенностей темперамента детей (например, распределение ролей с учетом лидерских качеств или склонности к исполнительской деятельности); использовании элементов арт-терапии и игротерапии для снятия эмоционального напряжения; формировании психологической готовности к сотрудничеству через проведение предварительных тренинговых упражнений на доверие и сплочение и постепенном усложнении групповых заданий с учетом зоны ближайшего развития. Также для развития социального интеллекта, необходимо обучать детей базовым навыкам коммуникации (умение слушать, выражать свое мнение) и формировать у воспитанников способности к эмпатии через ролевые игры и обсуждение эмоций. С помощью организации обсуждения результатов работы с акцентом на эмоциональные переживания реализуется рефлексивно-оценочный компонент

Производственная практика в МБДОУ Детский сад № 162 г. Уфа под руководством заведующего, магистра образования Танюкевич А.В. позволяет апробировать теоретические наработки и адаптировать их к реальным условиям [3]. Например, студенты-практиканты могут проводить занятия с использованием малых групп, фиксируя динамику взаимодействия детей. Окончание производственной практики показывает, что систематическое применение данной технологии способствует: повышению уровня социализации дошкольников; развитию навыков командной работы и росту познавательной мотивации. Также в ходе производственной практики в ДОУ студентам-практикантам предоставляется возможность: апробировать диагностический инструментарий для выявления уровня развития коммуникативных навыков, социального статуса ребенка в группе, эмоциональных барьеров в совместной деятельности; разрабатывать и тестировать коррекционно-развивающие программы групповой работы с учетом: возрастных кризисов дошкольного возраста, гендерных особенностей взаимодействия, специфики детско-родительских отношений

Эффективность технологии работы в малых группах в ДОУ зависит от соблюдения ряда психолого-педагогических условий, включающих психологическую поддержку, четкую организацию деятельности и грамотное сопровождение воспитанников. Интеграция теоретических знаний и практического опыта позволяет оптимизировать процесс внедрения данной методики, обеспечивая гармоничное развитие дошкольников в соответствии с требованиями современного образования.

Литература

1. Выготский, Л.С. Лекции по психологии. Мышление и речь/ Л. С. Выготский.— Москва: Издательство Юрайт, 2024.— 432с.— (Антология мысли).— ISBN 978-5-534-07471-0. — Текст : электронный // Образовательная платформа Юрайт [сайт]. — URL: <https://urait.ru/bcode/538626> (дата обращения: 24.04.2025).

2. Скиннер, Б. Ф. «Оперантное поведение» / Б. Ф. Скиннер // «История психологии. XX век» : [хрестоматия] / ред. П. Я. Гальперин, А. Н. Ждан. — 5-е издание. — Москва : Академический проект ; Екатеринбург : Деловая книга, 2003. — С. 531–568. — (Серия «Gaudeamus. Хрестоматия для высшей школы»).

3. Шабеева, Г.Ф. Инновационный проект организации диагностико-консультационного центра «Успех» как сетевая форма работы вуза с ДОО / Г.Ф.

Шаббаева, А.В. Танюкевич [Текст] // Социализация ребенка в условиях современной дошкольной образовательной организации: сб. науч. ст. III Всерос. с междунар. участием науч.-практ. конф., посвящ. 15-летию ин-та педагогики и 50-летию ФГБОУ ВО «БГПУ им. М. Акмуллы». – Уфа, 2017. – С. 403–408.

ELEKTRON PEDAGOGIKA FANINI O‘QITISHDA TAQDIMOT YARATUVCHI DASTURLAR ASOSIDA AMALIY MASHG‘ULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Jo`rayev Voxid Tojimamatovich,

Farg`ona davlat universiteti amaliy matematika va informatika kafedrası professori

vjurayev1986@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada pedagogika ta’lim yo’nalishi talabalariga “Elektron pedagogika” fanini o’qitish jarayonida taqdimot yaratuvchi zamonaviy dasturlardan foydalanish asosida mashg’ulot samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida elektron pedagogika fanining nazariy-metodik asoslari ochib berilib, taqdimot texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. PowerPoint, Canva, Gamma, Prezi va Tome dasturlarining funksional xususiyatlari qiyosiy jihatdan o’rganilib, ularning mashg’ulot jarayonidagi ta’limiy samaradorlikka ta’siri aniqlangan. Amaliy tajriba natijalari taqdimot texnologiyalaridan tizimli va maqsadli foydalanish talabalarning o’quv faolligi, mustaqil fikrlashi va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko’rsatdi.

Kalit so‘zlar: elektron pedagogika, taqdimot texnologiyalari, raqamli ta’lim, mashg’ulot samaradorligi, pedagogik kompetensiya.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности учебных занятий по дисциплине «Электронная педагогика» для студентов педагогического направления на основе использования современных программ создания презентаций. Раскрываются теоретико-методические основы электронной педагогики, анализируются дидактические возможности презентационных технологий. Проведен сравнительный анализ функциональных характеристик программ PowerPoint, Canva, Gamma, Prezi и Tome, а также определено их влияние на результативность учебных занятий. Результаты исследования свидетельствуют о том, что целенаправленное использование презентационных технологий способствует развитию учебной активности, самостоятельного мышления и цифровых компетенций студентов.

Ключевые слова: электронная педагогика, презентационные технологии, цифровое образование, эффективность обучения, педагогическая компетентность.

Abstract. The article examines ways to improve the effectiveness of teaching the course “Electronic Pedagogy” for students of pedagogical education through the use of modern presentation software. The theoretical and methodological foundations of electronic pedagogy are revealed, and the didactic potential of presentation technologies is analyzed. A comparative analysis of PowerPoint, Canva, Gamma, Prezi, and Tome is conducted, and their impact on learning effectiveness is determined. The results show that systematic and purposeful use of presentation technologies enhances students’ learning activity, independent thinking, and digital competencies.

Keywords: electronic pedagogy, presentation technologies, digital education, learning effectiveness, pedagogical competence.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi oliy ta'lim tizimida o'qitish mazmuni va metodlarining yangilanishini taqozo etmoqda. Xususan, pedagogika ta'lim yo'nalishida bo'lajak mutaxassislarning raqamli kompetensiyalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. "Elektron pedagogika" fani mazkur jarayonda yetakchi o'rin egallab, talabalarda elektron ta'lim muhitida ishlash, raqamli resurslardan foydalanish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur fan doirasida taqdimot yaratuvchi dasturlardan foydalanish o'quv materialining vizuallashtirishini ta'minlab, talabalarning bilish faoliyatini faollashtiradi. Shu bois elektron pedagogika fanini o'qitishda taqdimot texnologiyalarining samarali qo'llanishi dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida qaraladi.

Elektron pedagogika fanining nazariy-metodik asoslari.

Elektron pedagogika ta'lim jarayonini raqamli muhitda tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganadi. Ushbu fan pedagogik jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning didaktik tamoyillari, metodlari va vositalarini qamrab oladi. Elektron pedagogikaning asosiy vazifasi – ta'lim jarayonini individuallashtirish, interfaollikni oshirish va talabalarning mustaqil o'qish faoliyatini qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Vizual ta'lim vositalari, jumladan, taqdimot texnologiyalari talabalarning axborotni qabul qilish va qayta ishlash jarayonini yengillashtiradi. Shu sababli elektron pedagogika fanida taqdimot yaratuvchi dasturlar didaktik jihatdan muhim vosita sifatida e'tirof etiladi.

Taqdimot yaratuvchi dasturlarning qiyosiy tahlili.

Elektron pedagogika fanini o'qitishda qo'llaniladigan taqdimot dasturlari o'zining funksional imkoniyatlari va pedagogik moslashuvchanligi bilan farqlanadi. PowerPoint dasturi an'anaviy taqdimotlar yaratish uchun qulay bo'lsa, Canva platformasi dizayn elementlarining boyligi va onlayn hamkorlik imkoniyati bilan ajralib turadi. Gamma va Tome dasturlari sun'iy intellekt asosida kontent yaratish jarayonini soddalashtirib, o'qituvchining vaqt tejamkorligini ta'minlaydi. Prezi esa dinamik va noan'anaviy taqdimot strukturasi taklif etib, talabalarning e'tiborini uzoq vaqt davomida saqlab turishga xizmat qiladi.

Elektron pedagogika fanini o'qitish jarayonida taqdimot yaratuvchi dasturlar o'quv materialini vizual, tizimli va interfaol shaklda yetkazish imkonini beradi. Mazkur maqola doirasida **Microsoft PowerPoint, Canva, Gamma, Prezi va Tome** dasturlarining funksional va didaktik imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida dasturlar **foydalanish qulayligi, interfaollik darajasi, dizayn imkoniyatlari, sun'iy intellekt (AI) funksiyalari** hamda **ta'lim jarayoniga mosligi** mezonlari asosida 5 ballik tizimda baholandi.


Dasturlar	Foydalanish qulayligi	Interfaollik	Dizayn imkoniyatlari	AI imkoniyatlari	Ta'limga moslik
PowerPoint	4	3	3	2	4
Canva	5	4	5	3	4
Gamma	4	4	4	5	4
Prezi	3	5	4	3	4
Tome	4	4	4	5	4

Natijalar asosida tuzilgan qiyosiy jadval shuni ko'rsatadiki, PowerPoint dasturi an'anaviy taqdimotlar uchun qulay bo'lib, uning asosiy ustunligi soddalik va keng tarqalganligidadir. Biroq interfaollik va sun'iy intellekt imkoniyatlari nisbatan cheklangan.

Canva platformasi dizayn imkoniyatlarining kengligi va tayyor shablonlar bazasi bilan ajralib turadi. U elektron pedagogika fanida vizual ta'sirchanlikni oshirish, jamoaviy ishlash va ijodiy topshiriqlarni tashkil etishda samarali vosita hisoblanadi. Gamma va Tome dasturlari sun'iy intellektga asoslanganligi bilan alohida ahamiyatga ega bo'lib, mazkur platformalar matn asosida avtomatik taqdimot yaratish, mazmunni mantiqiy tuzish va o'qituvchining vaqtini tejash imkonini beradi. Bu holat elektron pedagogika fanida tezkor va samarali kontent yaratish uchun muhim didaktik omil hisoblanadi.

Prezi dasturi esa noan'anaviy, dinamik taqdimot tuzilmasi bilan ajralib turadi. Diagramma natijalariga ko'ra, interfaollik darajasi eng yuqori ko'rsatkich aynan Prezi dasturida kuzatildi. Ushbu dastur yordamida mashg'ulotlarda muammoli vaziyatlar, mantiqiy bog'lanishlar va mavzulararo aloqalarni vizual tarzda ifodalash mumkin bo'lib, bu talabalarning diqqatini uzoq vaqt davomida saqlab turishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt imkoniyatlari bo'yicha tuzilgan gistogramma natijalari Gamma va Tome dasturlarining ustunligini ko'rsatdi.



Mazkur dasturlar elektron pedagogika fanida mustaqil ta'lim, loyiha asosida o'qitish va reflektiv faoliyatni tashkil etishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Umuman olganda, qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, elektron pedagogika fanini o'qitishda taqdimot yaratuvchi dasturlarni yagona vosita sifatida emas, balki kompleks va uyg'unlashgan holda qo'llash maqsadga muvofiqdir. An'anaviy tushuntirish bosqichida PowerPoint, vizual va ijodiy topshiriqlarda Canva, interfaol mashg'ulotlarda Prezi, tezkor va sun'iy intellektga asoslangan kontent yaratishda esa Gamma va Tome dasturlaridan foydalanish mashg'ulot samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuv pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlash hamda kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda taqdimot texnologiyalaridan foydalanish usullari.

Elektron pedagogika fanini o'qitish jarayonida taqdimot texnologiyalaridan samarali foydalanish mashg'ulotlarning ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotlarda mazkur texnologiyalarni qo'llash quyidagi metodik usullar asosida tashkil etilganda yuqori pedagogik natijalarga erishiladi.

Birinchidan, **muammoli vaziyatlar asosida vizual materiallar ishlab chiqish** usuli talabalarda muammoli tafakkurni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bunda taqdimotlar muayyan pedagogik vaziyat, qarama-qarshilik yoki ochiq savol asosida tuziladi. Vizual materiallar orqali muammo bosqichma-bosqich ochib berilib, talabalarining tahliliy fikrlashi, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash hamda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlanadi. Ushbu yondashuv elektron pedagogika fanida nazariy tushunchalarni real pedagogik jarayonlar bilan bog'lash imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, **interfaol taqdimotlar yordamida talabalarining faolligini oshirish** usuli mashg'ulot jarayonida talaba ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunda taqdimotlar savol-javoblar, tezkor testlar, vizual topshiriqlar va muhokama elementlari bilan boyitiladi. Interfaol taqdimotlardan foydalanish talabalarining passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllanishiga olib keladi. Natijada mashg'ulot davomida o'zaro muloqot kuchayib, bilimlarning mustahkam o'zlashtirilishi ta'minlanadi.

Uchinchidan, **mustaqil taqdimot loyihalarini yaratish orqali ijodiy fikrlashni rivojlantirish** usuli talabalarni o'quv jarayonining subyekti sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan. Mazkur usulda talabalar muayyan mavzu bo'yicha mustaqil axborot izlaydi, uni tahlil qiladi va taqdimot shaklida ifodalaydi. Bu jarayon talabalarining ijodiy fikrlashi, axborot bilan ishlash madaniyati hamda raqamli kompetensiyalarini rivojlantiradi. Elektron pedagogika

fanida bunday loyihalar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, **jamoaviy ishlarda onlayn taqdimot platformalaridan foydalanish** usuli hamkorlikda o'qitish tamoyillariga asoslanadi. Onlayn taqdimot platformalari yordamida talabalar guruh bo'lib ishlash, vazifalarni taqsimlash, o'zaro fikr almashish va umumiy natijani taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ushbu yondashuv talabalarda jamoada ishlash ko'nikmalarini, mas'uliyat hissini va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantiradi. Shuningdek, u zamonaviy raqamli ta'lim muhitida hamkorlik faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan amaliy tajribani taqdim etadi.

Umuman olganda, amaliy mashg'ulotlarda taqdimot texnologiyalaridan mazkur usullar asosida foydalanish elektron pedagogika fanining nazariy va amaliy jihatlarini uyg'unlashtirishga, talabalarning faolligi va mustaqil fikrlashini oshirishga hamda ta'lim jarayonining umumiy samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari elektron pedagogika fanini o'qitishda taqdimot yaratuvchi dasturlardan maqsadli foydalanish mashg'ulot samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ko'rsatdi. PowerPoint, Canva, Gamma, Prezi va Tome dasturlaridan foydalanish talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirib, ularning kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu tajribani pedagogika ta'lim yo'nalishida keng joriy etish amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Sh.A. Elektron pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan, 2020. – 168 b.
2. Sayidahmedov N.S. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 240 b.
3. Muslimov N.A. Kasbiy pedagogika. – Toshkent: Innovatsiya, 2021. – 198 b.
4. Klarin M.V. Innovatsionnye modeli obucheniya. – M.: Pedagogika, 2018. – 256 s.
5. Polat E.S. Novye pedagogicheskie i informatsionnye tekhnologii v sisteme obrazovaniya. – M.: Akademiya, 2020. – 272 s.
6. Robert I.V. Teoriya i metodika informatizatsii obrazovaniya. – M.: Binom, 2019. – 312 s.
7. Mayer R.E. Multimedia Learning. – New York: Cambridge University Press, 2020. – 490 p.
8. Bates T. Teaching in a Digital Age. – Vancouver: BCcampus, 2019. – 512 p.
9. Salomon G. Interaction of Media, Cognition, and Learning. – New York: Routledge, 2018. – 284 p.
10. Siemens G. Digital Learning and Networked Pedagogy. – London: Springer, 2021. – 301 p.
11. Ally M. Foundations of Educational Theory for Online Learning. – Athabasca: AU Press, 2020. – 345 p.

12. Kozma R. Technology, Innovation, and Educational Change. – Washington: ISTE, 2019. – 260 p.
13. UNESCO. ICT in Education: Policy, Infrastructure and OER. – Paris, 2020. – 112 p.
14. Xodjayev B.X. Pedagogik mahorat va innovatsion faoliyat. – Toshkent: TDPU, 2022. – 156 b.

TA'LIMDA AKADEMIK MOBILLIKNING ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc)

Ruziyeva Shoxida Fatillovna

Buxoro davlat universiteti "Pedagogika" kafedrası
I-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashda xalqaro tajribalarni e'tirof etish, zamonaviy ta'limning sifat jihatlarini yanada oshirish, bu boradagi samarali tadqiqotlarni yangi bosqichga ko'tarish masalalari tahlil qilingan bo'lib, ta'limda akademik mobillikning muhim yo'nalishlari, muammolar va istiqbollar yoritilgan.

Kalit so'zlar: akademik mobillik, zamonaviy kadr, kreativlik, xalqaro faoliyat, malakali mutaxassis, ta'lim dasturlari, mobillik dasturi, ta'limning globallashuvi.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы признания международного опыта подготовки кадров в системе высшего образования нашей страны, дальнейшего совершенствования качественных аспектов современного образования, поднятия эффективных исследований в этом направлении на новый уровень, а также значимость Освещены направления, проблемы и перспективы академической мобильности в образовании.

Ключевые слова: академическая мобильность, современные кадры, креативность, международная деятельность, квалифицированный специалист, образовательные программы, программа мобильности, глобализация образования.

Abstract: This article analyzes the issues of recognition of international experience in training personnel in the system of higher education of our country, further improvement of qualitative aspects of modern education, raising effective research in this area to a new level, as well as the importance of the areas, problems and prospects of academic mobility in education.

Keywords: academic mobility, modern personnel, creativity, international activity, qualified specialist, educational programs, mobility program, globalization of education.

Kirish. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim va ustuvor vazifaga aylandi, rivojlanayotgan jamiyatimizning o'z oldiga qo'ygan olijanob maqsadi – kelajagi buyuk davlatni barpo etish vazifasi shuni taqozo etadi. Darhaqiqat, davlatimizning bosh maqsadi ham kelajak avlodning istiqbolini ta'minlashga, zarur shart-sharoit yaratishga, ularni yetuk insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy yangilanishining muhim subyektlaridan bo'lib, turmushida ro'y berayotgan jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi va taraqqiyotni harakatga keltirishda muhim rol o'ynaydi, ularning ushbu mas'uliyatli vazifani bajarishlari va erkin rivojlanishlari, ijodiy bunyodkorlik faoliyatini amalga oshirishlari uchun Yangi O'zbekistonda qulay imkoniyatlar yaratilgan va bu borada katta amaliy ishlar qilinmoqda.

Mamlakatimizning ertangi kuni qanday bo'lishi yoshlarning har tomonlama salohiyati va yetukligiga bog'liq.

Jahon miqyosidagi tadqiqotlardan ma'lumki, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida shaxsni har tomonlama rivojlantirish va voyaga yetkazish, unda ijodkorlik, komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirish, ijtimoiylashtirish va mustaqil, tanqidiy, kreativ fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasi hamda 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" tamoyili asosida oliy ta'limda yoshlarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish, an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik qobiliyatlarini rivojlantirish talab etiladi.

Mamlakatimizda ijtimoiy institut bo'lgan oliy ta'lim jamiyatning rivoji va farovonligi uchun zarur maskan hisoblanib, nafaqat barqaror va ustun bo'lishi, balki tez o'zgarayotgan va kutilmagan globallashtirilgan jamiyatda muammolarni hal etish uchun doimiy rivojlanishi lozim. Shu sababli professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar va bo'lajak mutaxassislardan ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida, shuningdek ushbu jarayonning barcha sohalarida kreativ g'oyalar va innovatsiyalar kutilmoqda.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning erishilgan darajasini xalqaro maydonda e'tirof etish, zamonaviy ta'limning sifat jihatlarini yanada oshirish, bu boradagi samarali tadqiqotlarni yangi bosqichga ko'tarish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limning zamonaviylashuvi o'qitishda kreativ yondashuv bilan belgilanib, u bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va takomillashtirish xususiyatini o'zgartiradi, o'zlashtirilayotgan fanlar mazmunini rivojlantirish, zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash jarayonini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida Yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlash, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda munosib hissa qo'shuvchi, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, yangi metodika asosida o'qitishni tashkil etish, ilg'or ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil qilish orqali ta'lim sohasini yanada takomillashtirish borasida tizimli tadbirlar belgilab berilgan.

Zamonaviy ta'limni yuqori bosqichlarga ko'tarish, jahon andozalari va talablariga mos ravishda isloh etish masalalarini yechishda akademik mobillik dasturlari alohida o'rin egallaydi. Aynan shu asnoda akademik mobillik bo'yicha ta'lim loyixalarini amalga oshirish lozim.

Akademik mobillik bo'yicha o'qitiladigan ayrim fanlardan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishga xorij professor-o'qituvchilarni jalb etish lozim. Ta'lim sifatini yuqori darajalarni ushlab uchun mukammal, masofaviy elektron ta'lim tizimini yaratish ham muhim. Unga barcha fanlar majmualari, adabiyotlari, videodarsliklar va umuman ta'lim olish uchun barcha materiallar kiritilishi yaxshi natija beradi.

Akademik mobillik - qabul qiluvchi muassasada o'quvchi-talabaning vaqtincha ta'lim olish davrida sinov birliklarini o'zlashtirishi va ularni jo'natuvchi muassasa tomonidan tan olinishi.


Akademik mobillik - Boloniya deklaratsiyasining asosiy tamoyillaridan biri va xalqaro faoliyatning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ta'lim sifatini va ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish, tashqi va ichki integratsiya aloqalarini o'rnatishga yordam beradi. Akademik mobillik - xorij ta'lim hududini shakllantirish vositasi va maqsadi hisoblanadi.

Boloniya deklaratsiyasi ko'p bosqichli oliy ta'lim tizimi va kredit-modulli ta'lim tizimini joriy etish, ta'lim sifatini ta'minlash, davlat tizimini modernizatsiya qilish va ichki ta'lim tizimini rivojlantirish asosida Yevropada yagona ta'lim makonini yaratishni tartibga soladi.

Akademik mobillikning xorijiy amaliyotlardan o'ziga xos farqlari mavjud: talabalar xorij ta'lim muassasalarida ham cheklangan, ham uzoq muddatga – bir semestrdan o'quv yilgacha o'qish imkoniyatiga ega; bunday xizmat safarlarida ular to'liq o'qitilgan, chet tilini, o'quv rejasiga muvofiq ma'lum fanlarni o'rgangan bo'lsa, talaba tegishli hujjatlarni taqdim etgan taqdirda tayanch ta'lim muassasasiga qaytib kelganida hisobga olinadi.

Afsuski, bizning mamlakatimiz uchun talabalarning mobilligi hali Markaziy Yevropa talabalari ko'tara oladigan darajada keng tarqalgan emas. Buning uchun bir qator ob'ektiv omillar mavjud: Markaziy Yevropada davlat chegaralari yo'q, shuning uchun mamlakatlar o'rtasida harakatlanish qiyin emas, ular orasidagi masofa boshqa masofalar bilan taqqoslanmaydi. Erta yoshdan boshlab, Yevropaliklar turli tillarda so'zlashuvchilar bilan muloqot qilishadi, bu esa o'smirlik davrida ikki yoki uch tilda gapirishga imkon beradi. Bu omillar yevropalik talabalarga bir ta'lim muassasasidan boshqasiga erkin o'tish, turli ta'lim dasturlarini o'zlashtirish imkonini beradi.

Ta'lim makonida talabalarning akademik mobilligini rivojlantirish bir qator cheklovlarga ega. Bular:



Ulardan

ba'zilar faqat federal darajada, ba'zilar esa ta'lim muassasasi darajasida olib tashlanishi mumkin. Shuningdek, akademik mobillikning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi sub'ektiv omilni ajratib ko'rsatish kerak. Talabalarning o'zlari mobillik subyektiga aylanish istagi, boshqacha aytganda, ularning hamkor ta'lim muassasalarining turli ta'lim dasturlari sharoitida ta'lim olishidir [1].


Talabalarning akademik mobilligi ostida, talabaning ma'lum bir muddatga (bir yilgacha) ta'lim bilan bog'liq bo'lgan boshqa ta'lim muassasasiga (o'z mamlakatida yoki chet elda) o'qish uchun harakatlanishini tushunamiz. So'ngra talaba o'zining asosiy ta'lim muassasasiga qaytadi. Akademik mobillik zamonaviy ta'limning ajralmas xususiyati hisoblanadi. Ushbu tendensiya umuman ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha olingan fikrlarni yanada qo'llash uchun ushbu jarayonning barcha jihatlarini o'rganish zarurligini ta'minlaydi. Shu jihatdan talabalarning akademik mobilligini amalga oshirish eng muhim masaladir. Shunday qilib, akademik mobillikni ta'limning globallasuvi omili sifatida, ta'limni integrasiyalashuv mexanizmi sifatida ko'rish mumkin.

Ta'lim subyektlarning sifati shaxsning shakllanishiga ta'sir qiladi. Akademik mobillik Boloniya jarayoni doirasida Yevropa ta'lim hududini shakllantirishning zaruriy sharti sifatida ko'rib chiqiladi. Boloniya jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri talabalar, o'qituvchilar, tadqiqotchilar ta'lim almashinuvining akademik mobillik darajasini oshirishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So'nggi yillarda akademik mobillik, V.A.Galichinning fikriga ko'ra, inson sifatini oshirishning samarali vositalaridan biri sifatida tan olingan. Globallashtirishning rivojlanishi bilan mamlakatlar o'rtasida fan va ta'lim sohasidagi almashinuv tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Bu mazkur yo'nalishda millatlararo hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlashga, milliy ta'lim tizimlarining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda [8, 2-b.].

Boloniya hujjatlarida mobillikning ahamiyati haqidagi qarash har doim mavjud.


Mazkur maqolada akademik mobillik tushunchasini ochib berish uchun quyidagi hujjatlardan foydalandik.



V.I.Bogoslovskiy ta'kidlashicha, talabalar, o'qituvchilar akademik mobilligini rivojlantirish davlatlarning Boloniya jarayoniga qo'shilishining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ko'p bosqichli ta'lim tizimini va kredit tizimini joriy etish bilan bir qatorda, o'z ichiga modulli ta'lim tizimi, ta'lim sifatini ta'minlashning davlat tizimlarini modernizatsiya qilish va ta'lim muassasasi ichidagi ta'lim sifatini boshqarish tizimlarini va ta'lim hujjatlarining yangi formatlarini ishlab chiqishni oladi [4,3-b.].

V.I.Bogoslovskiyning yozishicha, bir yillik stajirovkada ta'lim muassasalariga birinchi semestrda chet ellik talabalarni ingliz tilida, ikkinchi semestrda esa qabul qiluvchi davlat tilida o'qitish tavsiya etiladi, ammo bu faqat o'qish uchun maqbul bo'lishi mumkin. Aniq fanlar va muhandislik ta'limi, hatto shunga o'xshash tillar bo'lishi ham mumkin. O'z navbatida, bu nafaqat til yoki gumanitar fanlar emas, balki barcha ta'lim muassasalarida ingliz tilini chuqur o'rganishni tashkil etish masalasini ko'taradi [3]. Demak, akademik mobillik shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun juda muhim jarayondir, chunki uning har bir ishtirokchisi hayotiy vaziyatlarni hal qilish va bir vaqtning o'zida ularni o'z va boshqa madaniyat nuqtai nazaridan tahlil qilish zarurati bilan duch keladi.

Turli mualliflar akademik mobillikni turli ko'rsatkichlar bo'yicha tasniflaydilar, ammo bizning tadqiqotimiz kontekstida talabalarining akademik mobilligining uch turini ajratib ko'rsatish kerak:



Akademik mobillik, tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, talabalarga bir qator maqsadlarga erishish va ehtiyojlarni qondirish imkonini beradi. Maqsadlar va ehtiyojlar juda xilma-xil bo'lishi mumkin va ular ham oqilona (yangi vakolatlarni o'zlashtirish), ham hissiy (otonalardan uzoqlashish) bo'lishi mumkin.

V.I.Bogoslovskiyning fikricha, bugungi kunda mobillikning asosiy vazifalari talabaga tanlangan ta'lim yo'nalishi bo'yicha ko'p qirrali xorij ta'limini olish imkoniyatini berish, yetakchi ilmiy maktablar an'anaviy tarzda shakllangan tan olingan ta'lim va fan markazlariga kirish imkoniyatini ta'minlash, talabaning xorij madaniyatining barcha sohalari bo'yicha bilimni kengaytirishga yordam beradi [3].

V.A.Galichinning fikricha, mobillik boshqa muammolarni hal qilish uchun ham muhimdir. Bu shaxsni rivojlantirish, bilim darajasini oshirish va odamlarni ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratish uchun zarur. Bu yangi bilimlarni to'plash, turli o'qituvchilardan o'rganish va yangi vaziyatlarda o'zingizni, takliflaringizni va malakalaringizni sinab ko'rish imkoniyatini beradi. Mobillik til o'rganishga yordam beradi [2].

T.A.Fugelov fikricha, ta'lim muassasasida shakllangan har bir muhit ham kasbiy mobillik talabani shakllantirish uchun sharoit yaratmaydi. Demak, ta'lim muassasasida yoshlarni ijtimoiy munosabatlarga kirishish, hayot va kasbga tayyorlash uchun shartsharoitlarni yaratish zarurligi to'g'risida savol tug'iladi [4].

Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti rektori V.A.Sadovnichiyning yozishicha, akademik mobillikni amalga oshiruvchi talabalar hamkor ta'lim muassasalariga quyidagilar uchun yuboriladi:

- qo'shma diplom (darajali) dasturlari doirasida o'qish;
- ta'lim muassasalariaro hamkorlik doirasida (ikkinchi diplom bermasdan), shu jumladan, akademik almashinuv dasturlari doirasidagi ta'limni o'zichiga oladi;
- stajirovkadan o'tish (shu jumladan til);
- o'quv (tadqiqot, ishlab chiqarish) amaliyotidan o'tish;
- yozgi maktablarda (semestrlarda) qatnashish [5].

O'z navbatida, E.V.Kuzevanov talabaning tadqiqot holatini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uni shakllantirish jarayonining samaradorligi pedagogik shart-sharoitlar tizimi bo'lgan tadqiqot muhitini yaratish zarurati bilan bog'liq [6, -B. 47].

V.A.Sadovnichiyning fikricha, o'quvchi-talabalarning akademik mobilligidan foydalanish kerak, ularni doimo bir xil devorlarda o'rganish shart emas. Boshqa markazlarda dasturlarni taklif kilishingiz mumkin. Davlatda akademik mobillik tizimini yaratish kerak. Ta'lim sifatini oshirish jiddiy masala bo'lib, bu butun ta'lim tizimining tizimli ishlashini taqozo etadi hamda bu muammoni hal qilmasdan, biz tez orada ta'limimiz obro'sini va an'alarini yo'qotamiz. Bunday ulkan maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'quv dasturlarini

moslashtirish, imtixon natijalarini xalqaro miqyosda o'zaro tan olish, o'quvchilarning akademik mobillikka tayyorligini qo'llab-quvvatlash lozim. Bunda o'quvchilar o'rtasida akademik mobillikni rivojlantiruvchi usullarni rag'batlantiruvchi ta'lim muhitini, axborotning to'liqligi va adekvatligini, o'quvchilar o'rtasidagi dinamik o'zaro aloqani belgilovchi loyixa texnologiyalari bilan birgalikda qo'llash maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Mobillik dasturi - ta'lim to'g'risidagi kelishuv asosida akademik mobillik davrida ukuvchi-talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan ta'lim dasturidir. Zamonaviy ta'limni yuqori bosqichlarga ko'tarish, jaxon andozalari va talablariga mos ravishda isloh etish masalalarini yechishda akademik mobillik dasturlari aloxida o'rin egallaydi.

Natijalar. Ko'pgina tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Boloniya kelishuvi dasturida qatnashgan talabalar akademik mobillikdagi asosiy to'siqlar – til va "kreditlar" tizimining nomuvofiqligi. Faqatgina bunday dasturlarda qatnashishni rejalashtirayotgan talabalar akademik mobillikni amalga oshirishdagi asosiy to'siq sifatida moddiy tomonni qayd etadilar.

V.I.Bogoslovskiy va uning hamkasblarining fikriga ko'ra, talabalarning akademik almashinuvini to'xtatuvchi asosiy omil bu masalaning moliyaviy tomonidir [3]. Ammo akademik almashinuv dasturlaridan birida qatnashish uchun to'lovga qodir bo'lgan talabalar chet elda o'qishda ham muammolarga duch kelishadi.

Boshqacha qilib aytganda, akademik mobillikdagi yuqoridagi cheklovlar tufayli talabalar, men chet el ta'lim muassasasida o'qish uchun vaqtimni behuda o'tkazdimmi, deb o'ylashmoqda. Bu savol mutlaqo adolatli, chunki ta'lim muassasasiga qaytgan talabalar o'tkazib yuborilgan semestr dasturini olishga majbur bo'lishadi.

Psixologik nuqtai nazardan, va'da qilingan va aslida nima o'rtasida ichki qaramaqarshilik mavjud. Shu munosabat bilan, ko'plab mutaxassislarning fikriga ko'ra, akademik mobillikni yanada rivojlantirish bo'yicha o'quv dasturlarini sinxronlashtirish, ta'lim va ilmiy darajalar to'g'risidagi hujjatlarini chet elda tan olish kabi xalqaro miqyosdagi muammolarni hal qilmasdan mumkin emas.

1. Xorijiy universitetlardagi ta'lim dasturlari va kurslari tuzilmalarida farq bor.

Ushbu muammo 2002 yilda Stokgolm seminarida taklif qilingan ta'lim dasturlari mezonlariga rioya qilmaslikdan kelib chiqadi. Bu mezonlarning asosiylari quyidagilardir:

- umumiy darajani aks ettiruvchi yagona hujjat berish;
- akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etuvchi ikkita ta'lim muassasasi tomonidan o'quv rejalari va ta'lim dasturlarini tasdiqlash;
- bitiruvchilarning yakuniy bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablarni qabul qilish, kredit birliklarining yagona tizimini tanlash;
- hamkor ta'lim muassasalarida o'qish jarayonida talabalarning o'quv natijalarini to'liq tan olish imkoniyati;
- akademik almashinuv dasturlari talabalar va o'qituvchilarning mobilligini ta'minlashi kerak.

Mezonlarning aniqligiga qaramay, amalda ularni amalga oshirish qiyin. Hamkor ta'lim muassasalarida bir vaqtning o'zida amalga oshirilayotgan dasturlarni ta'limning davlat ta'lim standartining talablari bilan birlashtirish qiyin. Bu muammoni ikkita diplom olish orqali hal qilish mumkin. Biroq, bu yondashuv yuqorida taklif qilingan birinchi mezonga ziddir.

2. Kredit va baholarni o'tkazish muammolari. Kredit va baholash tushunchalarini sharhlash asosida xulosa qilishimiz mumkinki, ular bir-birini to'ldiruvchi bo'lsa-da, kredit

miqdoriy ko'rsatkich, baholash esa talabaning o'rganish natijasida olgan bilimining sifat ko'rsatkichidir. Olingan bilimlar sifatini saqlab qolgan holda va ta'lim sifati ustidan samarali nazoratni ta'minlagan holda kreditlarni fanlar bo'yicha taqsimlash borasida ko'plab savollar tug'iladi.

Bugungi kunda, bu masalalar to'liq hal qilinmaganligi sababli, talabalar va o'qituvchilar akademik almashinuv sohasida pedagogik qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda [7].

3. Keyingi to'siq, o'quv rejalarining nomuvofiqligi. Ko'pchilik davlatlarda o'qitish shartlari qat'iy belgilangan va ta'lim davlat ta'lim standarti bilan tartibga solinadi. Bu holat ta'lim muassasalarni har bir semestr uchun kurslarni belgilashga majbur qiladi. O'quv rejasini bajarmaslik o'qishdan chetlashtirish uchun asos bo'ladi [8].

Muhokama. Ta'lim muassasalarining o'quv rejaları bir-biriga mos kelmaganligi sababli (ta'lim muassasasi har bir semestrda milliy-mintaqaviy komponentni hisobga olgan holda fanlarni mustaqil ravishda belgilash imkoniyatiga ega), akademik mobillikni amalga oshirish amalda imkonsiz bo'lib qoladi. To'g'ridan-to'g'ri davlat darajasida hal qilinishi kerak bo'lgan yana bir muammoni alohida ta'kidlash kerak – bu viza va pasport berishdir. Ushbu hujjatlarni qayta ishlash tizimi uzun navbatlar va byurokratiya bilan murakkablashadi, bu esa akademik almashinuv uchun qo'shimcha psixologik to'siq yaratadi.

Davlatlarda tahsil olayotgan chet ellik talaba uchun qiyinchilik shundan iboratki, o'qish davomida u mehnat faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega emas. Shu bilan birga, ushbu muammoni hal qilish chet el fuqarolarini boshqa davlatda ta'lim olishga jalb qilish imkonini beradi [9]. Talabalar uchun akademik mobillik turli ta'lim muassasalarida o'qish, o'qituvchilar va boshqaruv xodimlari uchun esa tajriba almashish, yangi kompetensiyalarni egallash maqsadida boshqalariga tashrif buyurish imkoniyati sifatida qaraladi. Boloniya deklarasiyasini yaratuvchilarga ko'ra, har bir talaba kamida bir semestrni "boshqa joyda, afzalroq chet elda" o'tkazishi maqsadga muvofiqdir.

Bo'lajak mutaxassis zamonaviy professional adabiyotlar, yangi asbob-uskunalar va jihozlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lganligi sababli, bunday almashinuvlarning qiymatini ortiqcha baholab bo'lmaydi.

O'quvchilar va o'qituvchiga masofaviy o'qishda qulaylik yaratish maqsadida "vebinar tizimi" joriy qilinib ushbu tizim orqali o'quv mashg'ulotlarini video va audio konferentsiya shaklida olib borish mumkin. Bu tizimni joriy kilib, professor-o'qituvchilar salohiyatidan foydalanib, ularga yangi pedagogik va interfaol usullar orqali bilim olish jarayonini optimallashtirish mumkin.

O'zbekistonning xalqaro reytinglarga kirishining o'ziga xos shartlaridan biri nufuzli ta'lim muassasalari bilan akademik mobillik tizimini yo'lga qo'yishdir. Ushbu tamoyilni amalga oshirishning yana bir sharti bu, ta'lim mazmunini shaxsiy va kasbiy vakolatlarni shakllantirishga hamda o'zgarishga tayyorlikka moyillik bilan rivojlantirishdir. Xorij mamlakatlarining akademik mobillikni rivojlantirish, masofaviy ta'limni qo'llab-quvvatlash, yagona malakaviy tizimni yaratish, sifat nazorati va umuman, yagona ta'lim makoni g'oyasini amalga oshirish kabi yo'nalishlardagi sa'y-harakatlari o'quv jarayonining individualligini oshirishga va moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan.

Xulosa. Shunday qilib, Boloniya deklaratsiyasi mobillikni oshirish sohasidagi vazifalarni shakllantiradi: xarakat erkinligini samarali amalga oshirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish orqali mobillikni rag'batlantirish, ayniqsa quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- talabalar uchun ta'lim muassasalari va tegishli xizmatlardan foydalanish imkoniyati;
- o'qituvchilar, ilmiy xodimlar uchun Yevropa davlatlarida ilmiy tadqiqot, o'qitish va qayta tayyorlash maqsadida o'tkazgan davrlarini ularning maqomi va qonuniy huquqlarini buzmaganda tan olish va tasdiqlashdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Manayeva N. N. Universitet talabasining axborot harakatchanligi zamonaviy dunyoda talabalarning ta'lim sifatining tarkibiy qismi sifatida // Rossiya pedagogik ta'lim. 2015. No 10. S. 54-59.
2. Galichin, V.A. Ta'limning xalqarolashuvi sharoitida akademik harakatchanlik [Matn] / V.A. Galichin.-M.: Univer. kitob, 2009. -460 b.
3. Bogoslovskiy, V.I. Ko'p bosqichli universitet ta'limida akademik harakatchanlikni rivojlantirish: o'qituvchilar uchun tavsiyalar usuli [Matn] / V. I. Bogoslovskiy, S. A. Pisareva, A. P. Tryapitsyna. - Sankt-Peterburg: Rossiya davlat pedagogika universiteti nashriyoti, 2007. - 95 p.
4. Fugelova, T.A. Mobil talaba - universitetning ta'lim va rivojlanayotgan muhiti mavzusi [Matn] / T. A. Fugelova // Sibir pedagogika jurnali. - 2010. - No 5. - S. 106-116.
5. Sadovnichiy, V.A. Shaxsiy akademik harakatchanlik bo'yicha taxminiy qoida. URL: <http://inpro.msu.ru/files/an/individual.doc>.
6. Kuzevanova E.V. Pedagogika universiteti talabalarining tadqiqot pozitsiyasini shakllantirish [Matn] / E. V. Kuzevanova // Sibir pedagogika jurnali. - 2010.- No 3. - S. 47-52.
7. Orlova O. Boloniya jarayonida rus vagants: Rossiya oliy ta'lim tez orada umumevropa bo'lmaydi // Ilmiy kengash. 2008. No 10. -S. 29-33
8. Ryagin S.N. O'rta umumiy ta'lim sharoitida akademik harakatchanlikni shakllantirishning pedagogik muammolari // Shaxs fani: gumanitar tadqiqotlar. 2013 yil. 3-son (13). -BILAN. 96-100.
9. Shelkunova T. V. Sibir Federal universitetining talabalarning akademik harakatchanligini rivojlantirishdagi muvaffaqiyati // Tabiiy fanlar sohasidagi etakchi ilmiy va o'quv markazlari asosida ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarning Rossiya ichidagi harakatchanligini rivojlantirish: Vseros materiallari. ilmiy-amaliy. konf. fan elementlari bilan. maktablar. (Novosibirsk, 2010 yil 11 oktyabr) Novosibirsk, 2010. -S. 65-67.
10. Агишев Р.Р. Программы академической мобильности: особенности и возможности // Распространение Болонского процесса: от деклараций к внедрению на практике: В 3 ч. Ч.
11. Тенденции развития Болонского процесса, его инструменты и опыт внедрения. -Казань: КГТУ им. А.Н.Туполева, 2008. -С. 103-110.

12. Богословский, И.В., и др. Академическая мобильность: реализация в Болонском процессе: Метод. пособие для студентов. -СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И.Герцена, 2007.- 55 с.
13. Галичин, В.А. Академическая мобильность в условиях интернационализации образования [Текст] / В. А. Галичин. - М.: Университетская книга, 2009. -460 с.
14. Мусаев У. Интеграция, таълим жараёнини оптималлаштиришнинг муҳим принципи. // Халқ таълими журн., - 2002, - № 6. - Б. 4-7.
15. Бринёв, Н.С. Академическая мобильность студентов как фактор развития процесса интернационализации образования. URL: <http://www.prof.msu.ru/publ/omsk2/o60/html>.
16. Сёмин Н. В., Артамонова Ю. Д., Демчук А. Л., Лукшин А. В., Муравьева А. А., Олейникова О. Н. Академическая мобильность в России: нормативнометодическое обеспечение. М.: Изд-во МГУ 2007. 208 с.
17. Самиева Ш. Х., Маджидова М. Х. Эстетическое мировоззрение как один из компонентов образования и воспитания. – 2020.
18. Самиева Ш. Х., Нарзуллаева Ф. Ф. Современные подходы к реализации принципа дуального обучения в профессиональном образовании //Социально-гуманитарные проблемы образования и профессиональной самореализации (Социальный инженер-2021). – 2021. – С. 69-72.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMGA OID NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNING AKMEOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xamrayeva Diyora Burxon qizi

Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi

Maktabgacha ta'limni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i

xamrayevadiyora373@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" qonuni, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi" qonuni va unda tilga olingan asosiy tushuncha, vazifa va prinsiplar, O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonun 2019-yil 22-oktyabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan. 2019-yil 14-dekabrda Senat tomonidan ma'qullanganligi va boshlang'ich ta'limga oid huquqiy-normativ hujjatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: davlat ta'lim muassasasi, davlat ta'lim standartlari, ta'lim tizimi, boshlang'ich ta'lim, maktabgacha ta'lim, akmeologiya

Аннотация: Закон Республики Узбекистан «Об образовании», Закон «О дошкольном образовании и воспитании» и упомянутые в нем основные понятия, задачи и принципы, Закон Республики Узбекистан «О дошкольном образовании» Об образовании был принят Законодательной палатой 22 октября 2019 года. 14 декабря 2019 года будет обсуждаться вопрос утверждения Сенатом и нормативно-правовых документов, касающихся начального образования.

Ключевые слова: государственное образовательное учреждение, государственные образовательные стандарты, система образования, начальное образование, дошкольное образование, акмеология.

Key words: state educational institution, state educational standards, educational system, primary education, preschool education, acmeology

Annotation: The Law of the Republic of Uzbekistan "On Education", the Law "On Preschool Education and Training" and the main concepts, tasks and principles mentioned in it, The Law of the Republic of Uzbekistan "On Preschool Education and Training" was adopted by the Legislative Chamber on October 22, 2019. On December 14, 2019, it will be discussed about the approval of the Senate and the legal and regulatory documents related to primary education.

Kirish. Har sohada rivojlanayotgan tarmoqlar qatori Respublikamizda ta'limda ham bir qancha yuqori cho'qqilarga erishilmoqda. Bu rivojlanish ortida ta'lim sohasidagi qonun va qoidalar dasturul amal bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan va Senat tomonidan 2020yil 7-avgustda ma'qullangan ushbu qonun 11 bob, 75 moddadan iborat bo'lib, ta'limning barcha sohaları bo'yicha asosiy qonun va qoidalar aniq yoritib berilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bu mavzuda Chirchiq Davlat pedagogika Universiteti o'qituvchilari Jabborova Onaxon Mannopovna, Ochilov Faxriddun Izzatulloevich, Buxoro Davlat Universiteti o'qituvchisi Mirzayeva Dilduza Shavkatovnalarning darsliklari va ilmiy maqolalari mavjud.

Muhokama. Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

davlat akkreditatsiyasi — davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta'lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta'lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon; davlat ta'lim standartlari — davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui; davlat ta'lim talablari — ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar; malaka — shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi; nodavlat ta'lim tashkiloti — davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

ta'lim kampusi — yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti; ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari — ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi — ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonun 11 bob, 58 moddadan iborat. Ushbu qonun 2019-yil 22-oktyabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan. 2019-yil 14-dekabrda Senat tomonidan ma'qullangan. Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

alohida ta'lim olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar — nogironligi bo'lganidan yoki bo'lmasligidan qat'i nazar, oila, pedagoglar, mutaxassislar, jamiyat va davlatning alohida e'tiboriga muhtoj bo'lgan individual ehtiyojlarga ega bolalar; davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti — davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartiga muvofiq maktabgacha ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilot; inklyuziv ta'lim va tarbiya — bolalarning alohida ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan jarayon; maktabgacha bo'lgan yosh — bolalarning tug'ilgan paytidan yetti yoshgacha, to ularga umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ta'lim berish boshlangan paytga qadar bo'lgan yoshi; maktabgacha ta'lim va tarbiya — bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi; maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat standarti — ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy talablar majmui; maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi — bola tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan asosiy bilimlarning, mahorat va ko'nikmalarning hajmini hamda mazmunini belgilovchi, shuningdek ta'lim va tarbiya mazmunining o'ziga xosligini, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi

hujjat;maktabgacha ta'lim tashkiloti — maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti;nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti — nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ta'lim va tarbiya xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs

Davlat standartining maqsadi — maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat.

Me'yoriy hujjat bu muayyan huquqiy va qonuniy jihatdan tartibga solingan hamda tegishli davlat boshqaruvi organi tomonidan tasdiqlangan hujjatlar majmui hisoblanadi. Shu jihatdan bugungi kunda boshlang'ich ta'limning asosiy me'yoriy hujjatlari mamlakatimizda quyidagilar hisoblanadi:

- 1) ta'limga oid qonunlar; 2) Milliy malaka ramkasi;
- 3) davlat ta'lim standartlari va malaka talablari; 4) o'quv reja va dasturlar.

Qonunda boshlang'ich ta'limga oid quyidagi yo'nalishlarda normalar belgilangan:

- a) asosiy tushunchalar izohi;
- b) boshlang'ich ta'limni tashkil etish huquqlari va majburiyatlari;
- v) boshlang'ich ta'lim jarayonini boshqarish asoslari;

g) boshlang'ich ta'lim samaradorligini baholashning huquqiy omillari. Ushbu normalarga asosan umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim tashkil etiladi va boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasi yo'lga qo'yiladi

Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalarini o'rganish. Ushbu qonunning 9-moddasiga binoan mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim o'n bir yillik bo'lib, unda boshlang'ich ta'lim 1-4-sinflarni qamrab oladi. Bunda

boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi sifatida quyidagilar belgilangan: "Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantiradi". Bu o'rinda quyidagilarga e'tibor berish lozim: Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarni bilim olamiga olib kiradi va o'quvchilarni ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlaydi. Boshlang'ich ta'limning bilim berish vazifasi shundan iboratki,

o'quvchilar dastlabki bosqichda aniq, tabiiy va gumanitar fanlar bo'yicha dastlabki tushunchalarga ega bo'lishadi. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini tarkib toptirish, ularda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi. Ayni paytda, mazkur vazifasining ijrosi jarayonida o'quvchilarning layoqati fanlar kesimi asosida aniqlanadi va ularni rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Xulosa. Ta'lim to'g'risidagi qonunga muayyan o'zgarishlar yoki qo'shimchalar bo'lganida uning yangi nashrida bevosita bu holatlar aks ettiriladi. Shu sababli qonunni o'rganishda imkon qadar uning eng so'nggi nashriga tayanish tavsiya etiladi. Buning uchun rasmiy portallarda e'lon qilingan nashrga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, qonunning boshlang'ich ta'limga oid normalari huquqshunos, siyosatshunos va tajribali pedagoglar tomonidan maxsus sharhlanadi. Bunday sharhlar mamlakatimizda "O'zbekiston Respublikasi Qonunlari" majmuasida e'lon qilinadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Jabborova Onaxon Mannapovna, Ochilov Fariddun Izzatulloevich. Bolalar pedagogikasi. Darslik. Toshkent-2022 Jabborova Onaxon Mannapovna, Ochilov Fariddun Izzatulloevich. Children's pedagogy. Textbook. Tashkent-2022
2. Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna. Maktabgacha pedagogika.O'quv qo'llanma. Toshkent-2022 Mirzayeva Dilfuza Shavkatovna. Preschool pedagogy. Study guide. Tashkent-2022
3. Lex.uz sayti. Lex.uz site

YANGI O'ZBEKISTON HAYOTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TARG'IBOT VA QARSHI TARG'IBOT QILISHNING TEXNOLOGIK DIVERSIFIKASIYASI.

p.f.f.d.Pardayev Sobit Abdivali o'g'li

O'zFin, "Musiqqa ta'limi" kafedrası dotsenti v.v.b

sobitpardayev@70gmail.com

Annotatsiya: Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yoshlar orasida targ'ibot va qarshi targ'ibot ishlarini amalga oshirishda texnologik yondashilgan va qay darajada yoshlar ongida ijobiy ta'sirini asoslab yoritib beradi va O'zbekistonda kechayotgan yangilanish jarayonlari mohiyatini yoritib; milliy urf-odatlarimiz va an'analimizga sadoqatni shakllantirish; yuksak ma'naviyat va ma'rifatga doir ijtimoiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish; ijodkorlik, erkin va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish; keksalarga hurmat, kichiklarga izzat, mahallalarda jamoatchilik nazorati madaniyatini targ'ib qilish masalalari yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: Maʼnaviyat-maʼrifat, targʻibot, texnologiya, mafkura, Gʻoyaviy tarbiya, ommaviy madaniyat, urf-odatlar, anʼanalar, pedagogika, taʼlim-tarbiya.

Annotation: Explains the technological approach to the implementation of propaganda and counter-propaganda work among young people and the positive impact on the minds of young people and highlights the essence of the ongoing renewal process in Uzbekistan; formation of devotion to our national customs and traditions; formation of social skills and competencies for high spirituality and enlightenment; teaching creativity, free and independent thinking; issues of respect for the elderly, respect for the young, promotion of a culture of public control in the community.

Keywords: Spirituality-enlightenment, propaganda, technology, ideology, Ideological education, popular culture, customs, traditions, pedagogy, education.

Kirish. Bugungi kunda Joylarda maʼnaviyat va maʼrifat boʻlim va boʻlinmalari oldida turgan tarbiyaviy vazifalar turkumiga aholi orasida kitobxonlik, maʼnaviy oʻlkashunoslik maʼrifatini amalga oshirish, mustaqil fikrlash, milliy sanʼatimiz, osori atiqalarimizga muhabbat tuygʻularini shakllantirish; “ommaviy madaniyat”ning asl mohiyati, shakl va koʻrinishlarini tushuntirish; yoshlar ongi va qalbi uchun kurash; ularni yot, buzgʻunchi gʻoyalaridan himoya qilish; milliy gʻoyamiz talablari asosida yashash va ishlashga oʻrgatish; Oʻzbekistonda kechayotgan yangilanish jarayonlari mohiyatini uqtirish; milliy urf-odatlarimiz va anʼanalarimizga sadoqatni shakllantirish; yuksak maʼnaviyat va maʼrifatga doir ijtimoiy koʻnikma va malakalarni shakllantirish; ijodkorlik, erkin va mustaqil fikr yuritishga oʻrgatish; keksalarga hurmat, kichiklarga izzat, mahallalarda jamoatchilik nazorati madaniyatini targʻib qilish shular jumlasidandir.

Bunda mahalla, maktabgacha taʼlim, umumiy oʻrta, oliy taʼlim, madaniyat va sanʼat muassasalarining maʼnaviy donorlar sifatida hamkorlikka erishishlari ijtimoiy faol insonlarni tarbiyalashning muhim shartidir. Bu hamkorlik subyektlari faoliyatining maqsad uygʻunligi, tarbiyaviy taʼsir obyektining umumiylik, ularning vazifalari orasidagi umumiylik va xususiylikning mavjudligidadir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar hududiy oʻziga xosliklarga ega. Shu sababli har bir hududda olib boriladigan maʼnaviy-maʼrifiy ishlarda umumiylik bilan birgalikda faqat oʻsha hududga xos boʻlgan xususiylik ham mavjud boʻladi. Bu har bir hududning viloyat, tuman, shahar Maʼnaviyat va maʼrifat kengashlarining ish rejalari mazmuni, maqsadi, shakllari, vositalari, yoʻnalishlarida aks etadi.

Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar texnologiyasi — oldiga qoʻyilgan ijtimoiy tarbiyaviy maqsadlarga erishishni kafolatlovchi, nazariy asoslangan ijtimoiy tarbiya jarayonini amalga oshirishning shakllari, uslub va vositalarining tizimli algoritmidir. Bunda u tegishli ilmiy modellashtirishga (loyihalashtirishga) tayanadi, bu jarayonda ushbu maqsadlar bir xil maʼnoda

beriladi hamda aholi, guruh, shaxslarning xususiyatlari va sifatlarini rivojlantirishning muayyan bosqichida o'lchash va baholash imkoniyati mavjud.

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronovning ta'kidlashicha, tarbiya maqsadi – pedagogikaning, mamlakatning strategik vazifalaridan kelib chiquvchi pedagogik natijani ifodalaydi. Zamonaviy pedagogik, kompyuter texnologiyalari yordamida ushbu maqsadning turli yosh guruhlariga kiruvchi, o'quvchi-yoshlarda qay darajada shakllanganligini aks ettiruvchi parametrlar orqali modellashtirish mumkin. Ya'ni, “G'oyaviy tarbiyada mafkuraviy vaziyatlarni kompyuter vositasida modellashtirish birinchidan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar subyektlarining tarbiya nazariyasi bo'yicha bilimlarini “shartli voqyelik”da sinab ko'rishga o'rgatadi; ikkinchidan, ma'naviy tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda turli pedagogik vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur ko'nikma va malakalarini charxlaydi; uchinchidan, kompyuter texnologiyasi vositasida yangi pedagogik vaziyatlarni yaratish va yechishga o'rgatadi [1.101-b]”.

Bugungi axborotlashgan jamiyat talablari va mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni modernizasiyalashtirish, samaradorligini oshirishga qaratilgan talablar bu borada innovasion yondashuvlarni talab qilmoqda. Buning uchun moddiy ishlab chiqarish sohalarida o'z samaradorligini ko'rsatgan intensiv metodlarni aholining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarga joriy qilish taqozo etilmoqda. Ana shunday innovasion yondashuvlardan biri – diversifikasiyadir.

“Diversifikasiya” tushunchasining yana bir talqinida mahsulot ishlab chiqarish assortimentini kengaytirish hisobidan ko'paytirish va tor, bir yo'nalishda qotib qolishdan voz kechish [1.168-b]”, sifatida ochib beriladi.

Hozirgi kunda dunyoda barcha sohalar kabi ma'naviyat va ma'rifat sohasiga turdosh bo'lgan ta'lim-tarbiya, madaniyat, muzey sohalariga diversifikasiya prinsipi keng joriy qilinmoqda.

Natijalar. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonini texnologiya sifatida talqin qilinganida bu faoliyatning vosita, shakllari bilan bir qatorda metodlari alohida xususiyat kasb etadi. Bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda kitobxonlik, ommaviy-axborot vositalarini o'qish, notiq, targ'ibotchi, siyosiy sharhlovchi, machit imomining fikrlarini o'zaro muhokama qilish; slaydlar, o'quv plakatlari, videofilmlar, kinofilmlar ko'rsatish; tadbirlarni o'tkazishda milliy madaniyat, san'at asarlari, qadriyatlardan foydalanish, teatrlashtirilgan tomoshalar, she'rlar, Qur'oni karim va hadislardan iqtiboslar keltirish; suhbatlar; ma'ruzalar; trening, musobaqa, ustoz-shogirdlik, rag'batlantirish, tanqid qilish. Bugungi kunda O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlar

texnologiyasining tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi 30dan ortiq metodlar qo'llanilayotgani aniqlandi.

Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy ishlar shakllaridan ilmiy, amaliy anjumanlar, kitobxonlik, ma'ruza o'qish, savol-javob kechalari, yakka va jamoaviy suhbatlar; jamiyatda obro' qozongan, boy hayotiy tajribaga ega nuroniyalar va faxriylar, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida, turli musobaqa va tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan shaxslar bilan uchrashuvlar; davra suhbatlari; davlat va jamoat tashkilotlari, mahallalar, ta'lim muassasalarida aholi bilan uchrashuvlar; ilmiy, ilmiy-ommabop, ma'naviy-ma'rifiy mavzularda monografiya, kitob, risola, maqolalar, infografikalar, slaydlar, elektron nashrlar chop qilish va boshqa 20dan ortiq turlaridan faol foydalanilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ma'naviy-ma'rifiy texnologiyalar ham tarbiyaviy texnologiyalar kabi: mo'ljal olish (ma'rifiy maqsadni aniqlash); amalga oshirish (targ'ibot uslublari va vositalarini aniq ketma-ketlikda amalga oshirish); nazorat qilish va tuzatish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Har bir ma'naviy-ma'rifiy texnologiyada qo'yilgan maqsadga erishish uchun uning faoliyat yuritishini kuzatish, nazorat qilish va tuzatish qoidalari tizimidan iborat bo'lgan boshqarish algoritmidan foydalaniladi. Targ'ibot maqsadiga erishish uchun targ'ibotchilar faoliyatini boshqarish algoritmidan foydalaniladi. Bu nafaqat targ'ibot jarayonining muvaffaqiyatlilikini baholash, balki belgilangan samaradorlikka ega bo'lgan jarayonlarni oldindan diversifikasion loyihalashtirish imkonini beradi.

Muhokama. Mahalla, qishloq, mehnat jamoasining ma'rifiy xususiyatlarini yoritish va aniqlash (tashxis) masalasi targ'ibot texnologiyasining yanada mas'uliyatli diversifikasion vazifasi hisoblanadi. Biroq, ma'naviy-ma'rifiy holatning o'zini bir qator shart-sharoitlarga muvofiq kelishi nuqtai nazaridan aniqlash (tashxis), izohlab berish (interpretatsiya qilish) zarur. Ulardan eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi:

- muayyan targ'ibot yo'nalishining boshqalaridan farqlanishini ta'minlaydigan bir ma'noli aniqlik;

- tashxis jarayonida baholanadigan bilimlar darajasi va sifatini aniqlash uchun tegishli metod va vositalarning validligi;

- mezonlarning aholida ma'naviy-ma'rifiy bilimlarining ishonchli hakllanganligini aniqlashga yo'naltirilganligi shular jumlasidandir.

Ma'naviy ma'rifiy ishlarni texnologiyalashtirish g'oyasi ularni boshqariladigan qilish: "biror narsaga nimadir qilib" erishish emas, balki kafolatlangan natijaga erishishdan iborat. Natijada har bir tashkilotchi uning maqsaddan boshlab to natijalarni baholashgacha bo'lgan hatti-

harakatlarini belgilaydigan targ'ibot algoritmlarini texnologik qayta ishlash asosida mo'ljaldagi natijalarga erishadi. Zero ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy xususiyatlari — bu uning yaxlitligi, tizimlilik, davriyligi va texnologiyaviyligidir. Yaxlitlik esa targ'ibot va o'qitish jarayonlari, shuningdek shaxsni ma'naviy rivojlantirish va shakllantirish jarayonlarining ajralmas birligini anglatadi.

Ma'naviy-ma'rifiy texnologiya deganda aholining muayyan tarkibi va guruhini, targ'ibot chora-tadbirlarning g'oyaviy mazmuni, ularni o'tkazish joyi va davomiyligini ochib beradigan pedagogik faoliyatning tashkiliy tomoni tushuniladi. Aslida bu – yuqorida qayd qilinganidek, ijtimoiy tarbiyaviy jarayonning tashqi ko'rinishi bo'lib, targ'ibotning ommaviy, guruhli, yakka, virtual, bosma nashrlar orqali amalga oshiriladigan shakllari sifatida tasniflanishi mumkin.

Shunday qilib, targ'ibot diversifikasiyasining mohiyatini aholi, yoshlar ma'naviyatini milliy g'oyamizning bosh maqsadiga erishishga yo'naltiruvchi yaxlit ijtimoiy pedagogik diversifikasiya sifatida tushunish mumkin. Uning ayrim masalalari hozircha mukammal ishlab chiqilmagan bo'lishiga qaramasdan, uning asosiy tarkibiy qismlari empirik darajada pedagogik amaliyotda qo'llanilmoqda. Bu barcha toifadagi targ'ibotchilar faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirish, targ'ibot jarayonlarini modernizasiyalashtirish, diversifikasiyalash va barkamol jamiyat a'zolariga xos shaxsiy fazilatlarni samarali shakllantirishga yordam beradi.

Biz mafkuraviy kurashlar sharoitida yashamoqdamiz. O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyotini ko'ra olmaydigan ayrim siyosiy kuchlar mafkuraviy xurujni davomli va keng ko'lamli, ochiq va maxfiy, bevosita va bilvosita targ'ibot kampaniyalari shaklida olib bormoqda. Ma'lumki, bunda buzg'unchi targ'ibot xizmatlari va tashkilotlarining qo'poruvchilik faoliyati o'zaro muvofiqlashtirilgan. Natijada O'zbekistonda targ'ibot tizimining haqiqiy mafkuraviy poligonlarda, psixologik urush sharoitida ishlashiga to'g'ri kelmoqda. Radio va televizion kanallar, internet mustaqil davlatlarning ichki ishlariga aralashish, mafkuraviy dezinformasiya va dezoriyentasiya quroliga aylantirilmoqda. Buzg'unchi targ'ibot kampaniyalari o'zlarining siyosiy maqsadlariga mos ravishda soxta ma'lumotlarni keng ko'lamda, jadallik bilan tarqatish [3. 165-b.] xos bo'lib kelmoqda.

Shu nuqtai nazardan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkiliy qismi o'laroq, yot g'oyalarga qarshi targ'ibot o'zining mazmuni, tamoyillari, uslublari va shakllariga ko'ra murakkab hodisa sifatida o'rganildi. O'rganish natijalari ayrim mafkuraviy guruh, shaxslar tomonidan:

- Mustaqil O'zbekistonning hayotiy yutuqlarini dalil-isbotsiz ataylab qoralash uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini, hukumatimizning tashqi va ichki siyosatini soxtalashtirib, buzib ko'rsatish;
- O'zga mamlakatlar turmush tarzi, siyosiy tizimini bir yoqlama ko'kka ko'tarish;

- Mamlakatda olib borilayotgan islohotlarni, erishgan yutuqlarimizni obro'sizlantirish;
- noxolis axborot, ma'lumotlarni tarqatish, takrorlayverish;
- ko'p millatli O'zbekistonda aholi o'rtasida nizolar keltirib chiqarishga urinish;
- Yoshlar orasida "ommaviy madaniyat"ni izchil targ'ib qilish;

• odamlarning diniy tuyg'ularini junbushga keltirish, diniy ksenofobiyaning paydo qilishga urinishlar qayd qilindi. Misol tariqasida 2020 yilning avgust oyida trollerlarning Gazeta.Uz, Qalampir.Uz, Kun.Uz va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilingan milliy madaniyatimizni obro'sizlantirishga qaratilgan chiqishlarini; O'zbekiston maktablarida bolalarning kiyinishi(maktab formasi) masalasining ataylab buzib talqin qilinishi va buning oqibatida buzg'unchi, fitnachi ayrim blogerlarning tartibga chaqirilganligini keltirish mumkin. Bunday provokasion chiqishlar respublika ziyolilarining "Jaholatga qarshi ma'rifat" shiori ostida bildirgan faol munosabatlari hamda Xalq ta'limi vazirligi va Din ishlari bo'yicha qo'mitaning hamkorlikda bildirgan bayonotlarida o'z adolatli yechimlarini topdi. Bularning barchasi ma'naviy-ma'rifiy ishlar diversifikasiyasining naqadar muhimligini ko'rsatib turadi.

Bundan tashqari O'zbekiston xalqi, yoshlari milliy madaniyatimizga qarshi qaratilgan "ommaviy madaniyat"ning doimiy xurujiga duch kelayotganiga alohida to'xtalish joiz.

Yuqoridagi tahdidlarga qarshi targ'ibot – ma'naviy-ma'rifiy ishlarning alohida, muhim qismi. Qarshi targ'ibot yot targ'ibotni ustalik bilan fosh qilish, diniy aqidaparstlikning O'zbekiston halqi manfaatlariga qarshi qaratilgan mohiyati, siyosatini, mafkurasini ishonarli tarzda ochib berishni taqozo qiladi. Shu sababli ham barcha tarbiyachilar, maktab jamoa tashkilotlari oldiga qarshi targ'ibotni faoliyatning muhim yo'nalish deb qarash vazifasi qo'yiladi.

Qarshi targ'ibot yo'nalishidagi tadbirlar oldiga uch asosiy vazifa qo'yiladi:

1) **tadqiqot-targ'ibot** (mamlakatimiz, uning ichki va tashqi siyosiy yutuqlarini, dunyo miqyosida tobora osha borayotgan obro'-e'tibori, demokratik jarayonlarni, ma'naviy qadriyatlar va h.k.larning afzalliklarini ilmiy asosda tadqiq qilish, ko'rsatish, targ'ibot qilish);

2) **fosh qiluvchi targ'ibot** (tashqi, yot mafkuralar tahdidi, zararini, ijtimoiy va boshqa illatlarini, mafkuraviy qo'poruvchiligini va h.k.ni fosh qilishi);

3) **tarbiyaviy targ'ibot** (aholi, o'smirlarda ogohlik, hushyorlik, mustaqil fikr, siyosiy baxs ko'nikmalarini, o'z e'tiqodini himoya qilishni, bo'layotgan voqyealarni milliy manfaatlar nuqtai nazaridan to'g'ri baholash, mafkuraviy immunitetni malakalarini shakllantirishga maqsadli yo'naltirilgan [4.478-b] targ'ibot yo'nalishlari o'ta muhimdir.

Misol tariqasida umumiy o'rta ta'lim tizimini ko'rsatish mumkin. Ko'pincha, maktablarda tarbiyaviy ish pand-nasihatga berilib, qarshi targ'ibot uslub, shakl va vositalariga kam ahamiyat beriladi. Bu ham umumta'lim maktablarida milliy g'oyani asosiy tushuncha va tamoyillarini

shakllantirishda qarshi targ'ibot ishining mazmuni, uslublari va shakllarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatib turadi. Qarshi targ'ibot samaradorligining zaruriy shartlaridan biri - uning tezkorligida. Shuningdek, unda muayyan mintaqaviy sharoitlarni, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, maktabdagi mafkuraviy tarbiya resurslar, imkoniyatlarni hisobga olish ko'zda tutiladi.

Mafkuraviy immunitet nafaqat yutuqlar, balki jamiyat oldidagi muammolarni tushuntirishlar yordamida ham shakllantiriladi. Ya'ni aholi, yoshlarda O'zbekistonning nafaqat [5.156-b]. amaldagi haqiqiy yutuqlariga balki qiyinchiliklariga ham baho bera olish qobiliyatlarini bir vaqtning o'zida shakllantirish zarurdir. Tajribali ma'naviyat tashkilotchilari, pedagog va yetakchilar o'smirlarga Buyuk kelajak qurilishi - uzoq jarayon va unda muammo, qiyinchiliklar uchrashi tabiiy. Chunki muammolar - rivojlanish manbaidirlar. Shundan kelib chiqib, targ'ibotda ijtimoiy rivojlanishning olg'a qarab borish xususiyatini, "Axborot" informasion dasturidan berilgan tanqidiy materiallar, hal qilinmagan muammolarni ko'rsatib berish bilan birga ochib berdilar. Bu bilan o'smirlarning millat, Buyuk kelajak [6.136-b] oldidagi shaxsiy mas'uliyatini paydo qildilar va unga murojaat qildilar.

Qarshi targ'ibot texnologiyalarining asosiy vazifasi – aholi, yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashdir. Har bir hudud, korxona, tuman, shahar, muassasa xodimlarida shakllantiriluvchi mafkuraviy immunitet turli darajalarda namoyon bo'ladi.

Masalan:

- mafkuraviy bilim - olingan ma'naviy tushunchalarni fuqaro, o'quvchi yaxshi, puxta biladi, aytib bera oladi. Lekin uning xulqida bu bilim namoyon bo'lmaydi. Ba'zi hollarda bilimning aksi namoyon bo'ladi.

- mafkuraviy ko'nikma - ba'zi hollarda o'smirda taqlid, ma'naviy maqsad va vazifalarni hosil qilishi mumkin. Lekin u real hayot bilan bog'lanmagan bo'ladi.

- mafkuraviy malaka - g'oyaviy ideal anglanadi, bilimi, ehtiyoj, ko'nikma mavjud va u xatti-harakatlarda tez-tez uchraydi.

Xulosa. Shunday qilib, targ'ibot diversifikasiyasining mohiyatini aholi, yoshlar ma'naviyatini milliy g'oyamizning bosh maqsadiga erishishga yo'naltiruvchi yaxlit ijtimoiy pedagogik diversifikasiya sifatida tushunish mumkin. Uning ayrim masalalari hozircha mukammal ishlab chiqilmagan bo'lishiga qaramasdan, uning asosiy tarkibiy qismlari empirik darajada pedagogik amaliyotda qo'llanilmoqda. Bu barcha toifadagi targ'ibotchilarfaoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshirish, targ'ibot jarayonlarini modernizasiyalashtirish, diversifikasiyalash va barkamol jamiyat a'zolariga xos shaxsiy fazilatlarini samarali shakllantirishga yordam beradi.

Biz mafkuraviy kurashlar sharoitida yashamoqdamiz. O'zbekistonning mustaqil milliy taraqqiyotini ko'ra olmaydigan ayrim siyosiy kuchlar mafkuraviy xurujni davomli va keng ko'lamli, ochiq va maxfiy, [7.140-b] bevosita va bilvosita targ'ibot kompaniyalari shaklida olib bormoqda. Ma'lumki, bunda buzg'unchi targ'ibot xizmatlari va tashkilotlarining qo'poruvchilik faoliyati o'zaro muvofiqlashtirilgan. Natijada O'zbekistonda targ'ibot tizimining haqiqiy mafkuraviy poligonlarda, psixologik urush sharoitida ishlashiga to'g'ri kelmoqda. Radio va televizion kanallar, internet mustaqil davlatlarning ichki ishlariga aralashish, mafkuraviy dezinformasiya va dezoriyentasiya quroliga aylantirilmoqda. Buzg'unchi targ'ibot kompaniyalari o'zlarining siyosiy maqsadlariga mos ravishda soxta ma'lumotlarni keng ko'lamda, jadallik bilan tarqatish xos bo'lib kelmoqda.

Ushbu kompaniyalarni o'tkazish mobaynida barcha ma'lumotlarga auditoriya xususiyatlarini: jinsi, yoshi, ma'lumoti, ijtimoiy holati, moddiy ahvoli, faoliyat turi, qiziqish, did va boshqalarni hisobga olgan holda ishlov beriladi. Bunda mafkuraviy qo'poruvchilik harakatlarining maqsad va vazifalari ularni olib borayotganlarning barchasi uchun yagonadir. Keng ko'lamli targ'ibot-tashviqot tashkilotlari o'z kompaniyalarini tayyorlash va amalga oshirishda informasiya va dezinformasiya bo'yicha axborot mazmunini o'zaro muvofiqlashtiradilar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Quronov M. Ogohlik: tarix va zamon ko'zgasida. "Ma'naviyat", 2015, 101-b.
2. Большой толковый словарь русского языка. Современная редакция / под ред. Д.Н. Ушакова. Москва: Дом славянской книги, 2011. - 960 с. С.168.
3. Otamuratov S. Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik.—T.: O'zbekiston, 2013.—165 b.
4. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati. — Toshkent, "O'zbekiston" NMK, 2018. — 478 b.
5. Ochildiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. — T., 2009. -156 b.
6. Mahkamov U. Ahloq-odob saboqlari. — T.: Fan, 1994.- 136 b.
7. «Milliy g'oya - bizning g'oya». To'plam.— T.: DITAF. - 140 b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TURIZMGA JALB QILISHNING IJOBIY JIHATLARI

NavDU, Maktabgacha ta'lim kafedrası
dotsenti, PhD Xaydarova Shaxlo Narzullayevna
E-mail: shaxloxaydarova1972@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar turizmi – bu yosh avlodda kam vaqt sarflash orqali salomatlik zahiralari ko‘paytirish, kuch va ishchanlikni qayta tiklash, bola organizmining funksional imkoniyatlarini kengaytirish, jismoniy madaniyat, turizm, o‘lkashunoslik sohasidagi bilimlar hajmini boyitishga yordam beradigan faoliyat ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Konsepsiya, turizm, modernizatsiya, milliy qadriyat, ekskursiya, faol dam olish, sog‘lom ovqatlanish, gigiyenik-madaniy ko‘nikmalar, jismoniy madaniyat, o‘lkashunoslik, tadqiqot metodologiyasi, loyiha moduli, monologik va dialogik nutq.

Аннотация: В данной статье освещается, что детский туризм – это деятельность, которая способствует увеличению резервов здоровья, восстановлению сил и работоспособности, расширению функциональных возможностей детского организма, обогащению объема знаний в области физической культуры, туризма, краеведения за счет меньшего количества времени, затрачиваемого подрастающим поколением.

Ключевые слова: Концепция, туризм, модернизация, национальные ценности, экскурсия, активный отдых, здоровое питание, гигиеническо-культурные навыки, физическая культура, краеведение, методика исследования, проектный модуль, монологическая и диалогическая речь.

Annotation: This article highlights the fact that children's tourism is an activity that helps to increase health reserves by spending less time in the younger generation, restore strength and performance, expand the functional capabilities of the child's body, enrich the volume of knowledge in the field of Physical Culture, Tourism, local lore.

Key words: Concept, tourism, modernization, national value, excursion, active recreation, healthy eating, hygienic-cultural skills, physical culture, local lore, research methodology, project module, monological and dialogical speech.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida milliy qadriyatlarimizni singdirish, boy milliy tariximiz haqida tasavvur va tushunchalarni rivojlantirish, ajdodlarga munosib bo‘lgan avlodlarni shakllantirish maqsadida bugungi kunda Respublikamizda bolalar turizmi keng targ‘ib qilinmoqda. Bu soha bo‘yicha Hukumatimiz va Prezidentimiz tomonidan ko‘pgina Qonun, qaror, farmon-farmoyishlar qabul qilinmoqda. Shu jumladan, 2019 yil 18 iyulda O‘zbekiston Respublikasining Turizm to‘g‘risidagi Qonuni, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2019 yil 5 yanvardagi PQ-4095-son “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2020 yil 13-avgustdagi PF-5781-son “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi ishlab chiqildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. So‘nggi yillarda maktabgacha ta’limda bolalar turizmi bo‘yicha olib borilgan tizimli ishlar natijasi bolalarning umumiy salomatligida ijobiy tendentsiya bo‘ldi.

Davlatimiz tomonidan turizm sohasi bo‘yicha qaratilayotgan e’tibor, berilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar turizm sohasini rivojlanishiga, buning natijasida maktabgacha yoshdagi bolalar o‘rtasida kasallanish darajasi kamayishiga olib keldi hamda jismoniy sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan bolalar soni ko‘paydi. Hayot faoliyati xavfsizligi va sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha bolalarda nazariy - amaliy bilimlar ortdi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning yuqori foizida foydali odatlar (faol dam olish, sog‘lom ovqatlanish, gigiyenik-madaniy ko‘nikmalar) shakllangan.

Tadqiqot doirasida xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlardagi bolalar turizmi, uning xususiyatlari va elementlari bilan bog‘liq ilmiy qarash va yondashuvlar tahlil qilindi. O‘zbekistonda bolalar turizmi sohasini samarali rivojlantirish bo‘yicha M.Mirzayev, M.Aliyeva, V.G.Frolov, J.Haydarov, S.Nishonovlar, Xorijiy mamlakatlarda A.Savelev, E.Zeer, A.Novikov, D.Novikov, V.Malkova V.Slastyonin kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida kuzatish, tizimli va qiyosiy tahlil, ilmiy-nazariy mushohada va vaziyatli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasida turistik mashg‘ulotlarda qo‘yidagi loyiha modullari taklif etiladi:

- MTTlarda faoliyat yuritayotgan pedagog-tarbiyachilar va ota-onalar uchun “Maktabgacha yoshdagi bolalar turizmini tashkil qilish” nomli uslubiy qo‘llanma ishlab chiqish;
- MTT faoliyat guruhlarida “Vatanparvarlik” burchaklari bilan uyg‘unlikda “Turizm va sayyohlik” burchaklarini tashkil etish;
- kunning ikkinchi yarmida “Buyuk sayyoh”, “Sayyohlik agentligi”, “Tarjimon” kabi bir qancha syujetli-rolli o‘yinlarni taklif etish;
- kunning ikkinchi yarmida “Ziyorat odobi”, “Yo‘l qoidalari”, “Kattaga hurmat-kichikka izzat” mavzularida suhbatlar uyishtirish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar tayyorlash va amaliyotga tadbqiq etish.

Natijalar. Turizm – bu bolalar uchun jismoniy tarbiya shakllaridan biri bo‘lib, u bolalar sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash uchun zaruriy komponent sanaladi.

Turizm deganda tabiatga chiqish tushuniladi, demak, u atrofimizdagi olamni, undagi mavsumiy o‘zgarishlarni kuzatish, tevarak-atrof bilan munosabat o‘rnatishni o‘z ichiga oladi. O‘zi payqamagan holda bola tadqiqiy faoliyat bilan shug‘ullanadi, unda bilish va fikr yuritish

jarayonlari faollashadi, tizimlashtirish, umumlashtirish va xulosa chiqarish malakalari shakllanadi. O'z taassurotlari bilan do'stlari va kattalar bilan bo'lishish istagi paydo bo'ladi. Nutqning har tomonlama, rivojlanishi, monologik va dialogik nutqdan foydalanish ko'nikmasining shakllanishi, emotsional muhiti yaxshilanishi kuzatiladi. Ekologik bilimlarning asoslari hosil qilinadi, sayr davomida xavfsiz harakatlanish qoidalariga rioya qilish mustahkamlanadi. Tabiatni asrab-avaylash istagi shakllanadi. Turizm jismoniy charchoq, ruhiy stressni yengillashtiradigan vosita sifatida ham muhimdir.

Bolalar turizmi – bu kreativ jismoniy madaniyat emas, u kam vaqt sarflash orqali salomatlik zahiralari ko'paytirishga, kuch va ishchanlikni qayta tiklashga, bola organizmining funksional imkoniyatlarini kengaytirishga, jismoniy madaniyat, turizm, o'lkashunoslik sohasidagi bilimlar hajmini boyitishga yordam qiladigan faoliyatdir. Shuningdek, bolalar turizmi yosh avlodda jamiyatda o'zini tuta bilishi, o'zini o'zi tarbiyalash, zamonaviy hayot sharoitlariga moslashishiga zamin yaratadi.

Fikrimizcha, bugungi kunda maktabgacha ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglariga ta'lim tizimini boyitish va chuqurlashtirish hamda ijodiy yondashgan holda kun tartibiga o'zgartirishlar, ya'ni dastur mazmunidan tashqari boshqa turdagi faoliyatlarni ham kiritishga ruxsat berilgan. Ana shunday bolaning jismoniy, intellektual, huquqiy rivojlanishiga qaratilgan yangicha faoliyat turlardan biri – bolalar turizmi bo'ladi.

Turizm faoliyati maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar bilan ishlashning shakllaridan biri sifatida kamdan kam hollarda qo'llaniladi. Lekin bolalar turizmi maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogik amaliyotida yordamchi vosita sifatida qo'llash mumkin va shu bilan birga zarurligiga aminmiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni sog'lomlashtirishda turizmning elementar shakllaridan foydalanish yuzasidan tavsiya qilinayotgan tizim, bir tomondan, maktabgacha ta'lim tashkilotining sog'lomlashtirish ishlari doirasida bolalarning faol faoliyatiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga imkon beradi, ikkinchi tomondan, maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va jamoatchilik o'rtasida o'zaro samarali aloqa o'rnatishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni turizmga jalb qilishning ijobiy jihatlaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, tarbiyalanuvchilarda turizm haqidagi dastlabki tushunchalarni shakllantirish nafaqat ta'lim sifati balki ta'lim samaradorligini oshirishda ham yaxshi natija beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni sog'lomlashtirishning nazariy va amaliy vazifalaridan biri ular sog'ligini saqlash va mustahkamlashning innovatsion yondashuvlarni joriy etish hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa tariqasida ta'kidlash joizki, ta'limning uzluksizligi, barkamol avlod tarbiyasi, kerakli bilimlarni egallashda maktagacha yoshdagi bolalarning jismoniy va ma'naviy salohiyatlarini tarbiyalashda turizm muhim ahamiyatga egadir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi turizm – bu bolalar uchun hayot va jasorat maktabidir, chunki har bir sayohat, pedagog va boladan yangi bilim, malaka va ko'nikmani talab etadi. Bundan ko'zlangan maqsad - bilimlarni, eng oddiy turistik ko'nikma va qobiliyatlarni, bolalarning harakat qobiliyatlarini va sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojni aniqlashdan iborat. Ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlarni tahlil qilib, ular bilan bog'liq bo'lgan shakl va usul asosida rejali va izchil ishlarni olib borish maqsadga muvofiqdir. Ana shunda maktabgacha ta'lim xodimlari, ota-onalar va mahalla-kuy hamkorligi ishlari o'z samarasini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 - yanvardagi PF-5611-sonli "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.
2. 2020-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlar turizmini rivojlantirish Konsepsiyasi.
3. Nazarova G.G. va boshqalar. Turizm huquqi-Toshkent. Talqin-2003
4. Sharipova D., Toirova M., Muxamedova S. "Agar bolam sog'lom bo'lsin desangiz". Toshkent "Ilm Ziyo" -2006 yil
5. Usmonxo'jaev T.S., Toirova M.T. "Bolalar bog'chasida sayrlarni o'tkazish". T.: Cho'lpon. 2008 yil
6. Bolalikning quvnoq yozi. Turistik sanoat 2009. - № 65-67.
7. Xaydarova Shaxlo Narzullaevna, (2021). Pedagogical Approach To The Preparation The Children Of The Orphanage For Family Life. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(02), 23-27.
8. Хайдарова Ш.Н. Педагогический подход к подготовке воспитанников детского дома к семейной жизни. Colloquium-journal №8 (95), 2021. Czesc 2. (Warszawa, Polska)
9. Ibraimov Xolboy Ibragimovich, Khaydarova Shakhlo Narzullaevna, Organizational pedagogical principles of education of pre-school children in the inclusive education system. Science and innovation international scientific journal volume 2 ISSUE 11 November 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10143278>

INTERFAOL METODLAR ASOSIDA O'QUVCHILARDA ERKIN FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI.

Qurbonova O'lmas Usmonovna

Buxoro davlat Pedagogika instituti dotsenti, p.f.f.d.(PhD)

uqurbonova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada so'nggi yillarda ta'lim jarayonida o'quvchilarda interfaol usullar asosida erkin fikrlashni shakllantirish, o'qitishning interfaol metodlari, o'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qilishi, bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashda alohida o'rin tutuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilishi haqida ma'lumot berib o'tilgan. Maqolada interfaol metodlar ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil, erkin fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar sifatida, interfaol usullar o'quvchini o'quv-tarbiya jarayonining chinakam subyektiga aylantirib, uni mustaqil fikrlashga o'rgatishi masalasi, interfaol ta'lim va uning didaktik imkoniyatlarining mazmun va mohiyati, interfaol metodlar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishi haqida ma'lumot berish.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, ta'lim, metod, mustaqil fikrlash, interfaol ta'lim, bahsmunozara, "Xulosalash", "Kvest", "Sarguzasht o'yini", "Zanjir".

Abstract. In this article, in recent years, the formation of free thinking in students based on interactive methods, interactive methods of teaching, the use of modern methods of teaching serve to achieve high efficiency in the teaching process, today in a number of developed countries Information was given about methods that have a special place in the use of modern pedagogical technologies that guarantee the effectiveness of the educational process and are called interactive methods. In the article, interactive methods as methods that activate learners and encourage them to think independently, freely, with the learner at the center of the educational process, interactive methods turn the student into a real subject of the educational process and enable him to think independently. to provide information about the issue of teaching, the content and essence of interactive education and its didactic possibilities, interactive methods and their use in the educational process.

Key words: interactive methods, education, method, independent thinking, interactive education, debate, "Summary", "Quest", "Adventure game", "Chain".

Kirish. O'zbekistonning to'la mustaqil bo'lishida fuqarolarning ruhiy va fikriy mustaqilligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham jamiyat a'zolarini, ayniqsa, yoshlarni mustaqil fikrlay olishga o'rgatish bugungi kunda o'ta dolzarb masala bo'lib turibdi. Yoshlarni tashabbuskor kishilar sifatida tarbiyalash, ularni nostandart fikrlashga odatlantirishda ta'lim tizimi alohida o'rin tutadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning: "Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z

tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", - degan fikrlari ham mustaqil O'zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgan e'tibordan darak beradi [1, 14].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Innovatsion ta'lim, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida talabalarda o'z-o'zini ijodiy faolashtirish, kreativ ishlanmalar (mahsulotlar) ni yaratishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan erkin ta'lim muhitini tashkil etish masalalari A.Abduqodirov, J.Yo'ldoshev, N.Azixodjaeva, Yu.Kruglova, U.Begimqulov, I.Ridanova, V.Slastenin, N.Sayidahmedov, O'.Tolipov, D.Ro'ziyeva, B.Xodjaevlarning ilmiy tadqiqotlarida tahlil qilingan. Bugunning dolzarb muammolaridan biri ta'lim tizimi sifatini yaxshilash va o'quvchilarga sifatli ta'lim berish. Buning uchun pedagoglardan interfaol metodlardan unumli foydalanish, to'g'ri tanlov va o'quvchilarda qiziqish uyg'otish talab etiladi. Shu bilan birga pedagog ko'proq o'z ustida ishlashi, yangi interfaol metodlarni izlab topishi asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Erkin fikrlashga o'rgatish zarurati qolaversa, mustaqillikni mustahkamlash ehtiyojini ko'zlab, ruhimizga singib qolgan mute'lik, jur'atsizlik kabi illatlarni tugatish, shuningdek ser'andishalik, kattalarga ko'r-ko'rona itoat qilish, sabr-toqatlilik kabi fazilatlarni ongidan chiqarish lozim bo'ladi. Mustaqillik sharofati ila erkinlik, Vatan, millat, davlat oldida mas'ullik, ma'naviyatga intilish, shaxsiy fikrga ega bo'lish singari bobokalonlarimizdan o'tib kelayotgan fazilatlar qayta jumbushga kela boshladi. Bu holatni ta'lim-tarbiyaga bevosita aloqador shaxslar hisobga olib, tarbiyalanuvchiga bo'lgan munosabatni o'zgartira boshladilar va ta'lim jarayonining pirovard maqsadi – erkin fikrlash va ma'naviyat ekanini tushunib yetdilar.

Natijalar. An'anaviy ta'lim berishdan farqli o'laroq, interfaol o'qitish "ta'lim jarayoning asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, qizg'in bahs-munozara, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, "o'qituvchi- o'quvchi-o'quvchilar guruhi "ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi".

O'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol talim yordamida samarali suhbat olib borish, o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini nazorat, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash, va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z

nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqq olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li – bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Xo'sh, interfaol metodlarning o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'rinli, maqsadga muvofiq qo'llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Interfaol metod nima yoki nimani anglatadi? Interfaol metodlar – shunday metodlarki, u o'quvchi-yoshlarning o'zaro muloqot va o'zaro ta'siridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usul [2, 12].

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol ta'lim yordamida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqq olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol metodlarni qo'llash orqali o'qituvchi o'quvchilarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi. Interfaollik o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi va o'qituvchi muloqotida sodir bo'ladi.

Interfaol usulning bosh maqsadi: o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishiga sharoit yaratishidir. U o'zini intellektual salohiyatini namoyon etadi va o'quv sifati va samaradorligini oshirishni ta'minlaydi.

Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqori bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;

- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi: Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Raqamli hikoya", "Piramida", "Kvest", "Muammoli ta'lim" va b.

Interfaol ta'lim strategiyalari. "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "Yumaloqlangan qor" va k.

Interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

Interfaol grafik organayzerlar: "Idrok xaritasi", "Baliq skeleti", "BBB", "Kontseptual jadval", "Venn diagrammasi", "T-jadval", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b.

Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Interfaol ta'lim metodlarini ko'pincha turli shakllardagi o'quv mashg'ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo'llanmoqda. Bu metodlarni qo'llash mashg'ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi

Interfaollik asosida darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar [3].

O'quvchilar hamkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish, o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo'ladi. Bunday holatlar o'zaro samimiylilikni taminlaydi, yangi bilimlar olish, o'zlashtirishga havas ortadi, shu jarayonda bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, o'zaro do'stona munosabatlar vujudga keladi. Buning tarbiyaviy ahamiyati katta. Demak, interfaol darslarni tashkil qilishda o'quv jarayonida yakka tartibda va juft bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolly o'yinlar, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashdan foydalanish mumkin.

Masalan, “Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodidan foydalanish mumkin. Metodning maqsadi murakkab, ko’ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakterdagi mavzularni o’rganishga qaratilgan. Metodning mazmun mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo’yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama qilinadi. Masalan, muammoning ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo’yicha o’rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga hamda o’quvchilarning mustaqil g’oyalari, fikrlarini e’zma va og’zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg’ulotlarida individual va juftlik shaklida, amaliy va seminar mashg’ulotlarida kichik guruh shaklida ishni tashkil etish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi: o’qituvchi talabalarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi; metod maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilar tanishtiriladi, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo’lgan qismlari tushuntirilgan tarqatma materiallar beriladi;

Har bir guruh o’ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o’z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo’yicha tarqatmaga yozadi;

Har bir guruh o’z taqdimotini o’tkazadi, o’qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborot bilan to’ldiriladi.

“Raqamli hikoya” interfaol usuli. Shuningdek, “Raqamli hikoya” interfaol usuli "ommaviy axborot vositalaridan foydalanish nuqtai nazaridan boy hikoyalarni aytib berish, raqamli hikoya qilish - bu ssenariy yoki asl hikoyani turli multimedia komponentlari, masalan, tasvirlar, videolar, musiqa va hikoyalar, ko’pincha muallifning ovozi bilan birlashtirgan qisqa metrajli film yaratish jarayoni bo’lib, bu hikoyalar talabalar va o’qituvchilarga san’at, madaniyat, musiqa, video, hikoya va boshqalar kabi oddiy multimedia vositalaridan foydalanish imkonini beradi.

“DjigSo’ – “Mozaika” usuli. Bu topshiriqda turli guruhlarda bir matnning turli qismlari beriladi. Ular tegishli ma’lumot qismlari bilan bir-birlari bilan o’rtoqlashib, matnning umumiy mazmunini birgalikda chiqaradilar.

"Kvest" yoki "Sarguzasht o’yini" (transliteratsiya. Inglizcha Quest - qidiruv, Adventure - sarguzasht) - bu syujet bo’ylab oldinga siljish uchun ishtirokchidan ruhiy muammolarni hal qilishni talab qiladigan o’yinlarning asosiy janrlaridan biridir. Syujet oldindan belgilanishi yoki ko’plab natijalarni berishi mumkin, ularning tanlovi o’yinchining harakatlariga bog’liq. Kvest texnologiyasidan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi.

“Zanjir” usuli o‘quvchilarda fikriy bog‘liqlik, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Bu usul o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o‘rganilayotgan mavzu haqida tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkoniyatini yaratadi. Bu texnologiyadan o‘quv materialining turli bosqichlarini o‘rganishda foydalanish mumkin. “Zanjir” usuli o‘quvchilarda bir-birining fikriga hurmat, jamoa bilan ishlash mahorati, faollik, xushmuomalalik, ishga ijodiy yondashish, o‘z imkoniyati va qobiliyatini tekshirishga yordam beradi, o‘z faoliyati natijasiga mas’uliyat va qiziqish uyg‘otadi.

Xulosa. Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan namunali darslarni ommaviy axborot vositalari orqali namoyish etish hozirgi davrda ta’lim sohasidagi eng muhim vazifalardan biri bo‘lib, eskirgan tamoyillar va bir qolipdagi o‘qitish metodlaridan voz kechib, zamon talabiga javob beradigan yangi yo‘nalishlarni izlashni taqozo etmoqda. O‘qitishning eng samarali yo‘li - mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning haqiqatni bilishga, fikrlashga, erkin muloqotga, hamkorlikka intilishidir. Darslarda bu ruh bo‘lmasa, bunday mashg‘ulotlar jonsiz, zerikarli va samarasiz bo‘ladi. Zero, yosh avlodni ruhan sog‘lom, ma’nan yuksak, ma’rifatli inson qilib tarbiyalashda ularni erkin ishlashga o‘rgatish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O‘zbekiston, 2016, 14-bet
2. Yo‘ldoshev J., Yo‘ldosheva F., Yo‘ldosheva G. Interfaol ta’lim – sifat kafolati. -T.: 2008, 12 - bet
3. Ro‘ziyeva D., Usmonboeva M., Xoliqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. –T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013, 136 - bet.

TA’LIM JARAYONIDA 4 K MODELINI QO‘LLASH ASOSIDA IQTISODIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

Qambarov Mirzobobur Bahodir o‘g‘li

BuxDU mustaqil izlanuvchisi

nozimaaslanova3gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola ta'lim jarayonida 4K modelini qo'llash asosida iqtisodiy tarbiyani shakllantirish masalalarini yoritishga bag'ishlangan. 4K modeli - kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kooperatsiya kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan

bo'lib, uning yordamida talabalar iqtisodiy ong va moliyaviy savodxonlikka ega bo'lishi nazarda tutiladi.

Kalit so'zlar: Kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya, kooperatsiya, iqtisod, moliya, model, ta'lim, tarbiya, ong.

Аннотация. Данная статья посвящена освещению вопросов формирования экономического образования на основе применения модели 4К в образовательном процессе. Модель 4К ориентирована на развитие таких навыков, как креативность, критическое мышление, общение и сотрудничество, с помощью которых учащиеся приобретут экономическую осведомленность и финансовую грамотность.

Ключевые слова: Креативность, критическое мышление, коммуникация, сотрудничество, экономика, финансы, модель, образование, обучение, сознание.

Annotation. This article is dedicated to elucidating the issues of formation of economic education based on the application of the 4K model in the educational process. The 4K model is focused on the development of skills such as creativity, critical thinking, communication and cooperation, with the help of which students will acquire economic awareness and financial literacy.

Key words: Creativity, Critical thinking, Communication, Cooperation, economy, finance, model, education, training, consciousness.

Kirish. Hozirgi zamon ta'lim tizimida iqtisodiy tarbiya yosh avlodni iqtisodiy savodxonlik va moliyaviy madaniyatga ega bo'lishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda 4K modeli (Kreativlik, Kritik fikrlash, Kommunikatsiya, Kooperatsiya) ta'lim jarayonida qo'llanilishi talabalar ongida iqtisodiy ong va mas'uliyat hissini shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy tarbiya insonlarni iqtisodiy savodxonlik, moliyaviy mas'uliyat va iqtisodiy xatti-harakatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya jarayonidir. Bu jarayon insonlarga iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni o'rgatadi, ularni iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy rejalar tuzish, jamg'arish, sarmoya kiritish va iqtisodiy qarorlar qabul qilish kabi masalalarda mustaqil bo'lishga tayyorlaydi. Iqtisodiy tarbiya shuningdek, jamiyatdagi iqtisodiy jarayonlarni tushunish va ularda faol ishtirok etishga, mas'uliyatli fuqarolik va tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga ham qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Iqtisodiy tarbiyada kommunikatsiya, kreativlik, kollaboratsiya va tanqidiy fikrlash masalalari haqida quyidagi olimlar o'z asarlarida turlicha fikrlarini bayon etganlar. Jumladan, Abu ali Ibn Sino o'zining "Tadbir al-Manozil" asarida iqtisodiy tarbiya, oilaviy moliyaviy boshqaruv va kundalik hayotdagi iqtisodiy muammolar haqida batafsil ma'lumot beradi. Chet el iqtisodchi olimlari Adam Smitning "Xalqlar boyligi" kitobi iqtisodiy fikrlashning asoslarini o'rganish uchun klassik asar hisoblanadi. Pol Krugmanning "Makroiqtisodiyot asoslari" asari makroiqtisodiy nazariya va uning amaliyotdagi

rolini tushunish uchun muhim fikrlarni o'zida jamlagan. Karl Marksning "Kapital" asari esa iqtisodiy tarbiyada jamiyatdagi iqtisodiy tizimlar haqida chuqur tushunchalarni o'zida mujassamlaydi. Iqtisodiy tarbiyalashda turli ijobiy fikrlash, kommunikativ, kollaborativ, kreativ hamda kritik fikrlashning muhimligi haqida yuqorida keltirilgan asarlar muhim ahamiyatga ega.

Natijalar. 4K modeli asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning iqtisodiy bilimlarini oshirishga yordam beradi. Kreativlik va kritik fikrlash ko'nikmalari ta'lim oluvchilarning iqtisodiy masalalarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Kommunikatsiya va kooperatsiya esa ularning jamoaviy ishlash va iqtisodiy muammolarni birgalikda hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Iqtisodiy tarbiyada kommunikatsiya muhim rol o'ynaydi, chunki u iqtisodiy bilimlarni samarali yetkazish va ularni amaliyotga tatbiq etishda asosiy vosita hisoblanadi. Uning asosiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

Iqtisodiy bilimlarning tarqalishi: Kommunikatsiya iqtisodiy tushunchalar va ma'lumotlarni samarali o'rtoqlashishga yordam beradi. Bu o'qituvchilarning iqtisodiy bilimlarni talabalarga oson va tushunarli shaklda yetkazishida, shuningdek, murakkab iqtisodiy tushunchalarni yoritishda muhimdir.

Muammolarni kollaborativ hal qilish: Talabalar o'rtasidagi kommunikatsiya ularning iqtisodiy masalalar bo'yicha fikr almashishlari va birgalikda qarorlar qabul qilishlarini rag'batlantiradi. Bu esa ularni jamoaviy ishlash va iqtisodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tajriba almashinuvi: Kommunikatsiya iqtisodiy tarbiyadagi tajriba va bilimlarni nafaqat bir o'quv muassasasi ichida, balki global miqyosda ham almashish imkonini beradi. Bu talabalarni turli iqtisodiy tizimlar va madaniyatlar bilan tanishtiradi.

Tadbirkorlik va yetakchilik: Iqtisodiy tarbiya jarayonida kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish tadbirkorlik va yetakchilik uchun zarurdir. Samarali kommunikatsiya orqali talabalar o'z g'oyalarini taqdim etish, hamkorlar topish va bozor bilan aloqalarni yo'lga qo'yish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Ijtimoiy va iqtisodiy mas'uliyatni shakllantirish: Kommunikatsiya ijtimoiy iqtisodiy mas'uliyatni shakllantirishda yordam beradi. Bu orqali talabalar jamiyatdagi iqtisodiy muammolarni muhokama qilish va ularni hal etishga faol hissa qo'shish imkoniga ega bo'ladilar.

Kommunikatsiya iqtisodiy tarbiyaning ajralmas qismi bo'lib, iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, jamoaviy ishlash qobiliyatini rivojlantirish va o'quvchi talabalarni iqtisodiy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Muhokama. 4K modelining ta'lim jarayonida qo'llanilishi iqtisodiy tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Talabalarning iqtisodiy madaniyatini shakllantirishda kreativ yondashuvlar, tanqidiy fikrlash, samarali kommunikatsiya va kooperatsiya ko'nikmalari katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Bu esa ularning kelajakdagi iqtisodiy hatti-harakatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Kollaboratsiya iqtisodiy tarbiyada muhim o'rin tutadi, chunki u ta'lim oluvchilar va pedagoglarga birgalikda ishlash, iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun samarali iqtisodiy hatti-harakatlarni shakllantirish uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Uning asosiy ahamiyatlari quyidagilardan iborat:

Jamoaviy ishlash ko'nikmalari: Kollaboratsiya ta'lim oluvchilarni jamoaviy ishlashga, birgalikda maqsad sari intilishga o'rgatadi. Iqtisodiy tarbiya jarayonida talabalar birgalikda muammolarni tahlil qilish, yechimlarni ishlab chiqish va qarorlar qabul qilish orqali iqtisodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Muloqot va hamkorlik: Kollaborativlik ta'lim oluvchilarni samarali muloqot qilishga o'rgatadi. Iqtisodiy tarbiya jarayonida bu ko'nikmalar iqtisodiy masalalarni yechishda hamkorlikda ishlash, fikr almashish va o'zaro muhokamalar orqali rivojlanadi, bu esa optimal iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda juda muhimdir.

Mas'uliyat va liderlik: Kooperativlik jarayonida o'quvchilar mas'uliyat va yetakchilik ko'nikmalarini o'rganadilar. Iqtisodiy loyihalar ustida jamoa bo'lib ishlash, o'zaro ishonch va mas'uliyat hissini oshiradi, bu esa kelajakdagi iqtisodiy faoliyatda lider bo'lish imkonini beradi.

Iqtisodiy bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish: Ta'lim oluvchilar kollaboratsiya jarayonida bir-birlari bilan muloqot orqali iqtisodiy tushunchalarni yanada chuqurroq o'zlashtiradilar. Bu ular o'rtasida tajriba va bilim almashinuvini ta'minlaydi, bu esa o'quv jarayonini yanada samarali qiladi.

Raqobatbardoshlikni rivojlantirish: Kollaboratsiya ta'lim oluvchilarni o'zaro yordam va raqobatning optimal muvozanatini topishga o'rgatadi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning kelajakda turli iqtisodiy vaziyatlarga tez moslashishga va jamoa bilan ishlash orqali muvaffaqiyatga erishishga tayyorlaydi.

Iqtisodiy tarbiya bugungi kunda dolzarb bo'lib, uning dolzarbligi bir qancha muhim omillar bilan bog'liq:

Birinchidan, jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuvi sharoitida odamlar ko'proq iqtisodiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Iqtisodiy tarbiya yoshlarni jahon bozoridagi o'zgarishlarga moslashishga tayyorlaydi.

Ikkinchidan, shaxsiy moliyaviy boshqaruvga ehtiyoj asosida ko'plab insonlar kreditlarni boshqarish, investitsiya kiritish va kelajak uchun moliyaviy rejalar tuzish kabi masalalarda

qiyinchiliklarga duch keladi. Iqtisodiy tarbiya bu muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni beradi.

Uchinchidan, jamiyatdagi iqtisodiy farovonlikka erishish maqsadida iqtisodiy bilimlarga ega bo'lgan fuqarolar iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo'shadilar. Iqtisodiy tarbiya jamiyatda iqtisodiy barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga yordam beradi.

To'rtinchidan, raqobat muhiti iqtisodiy bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lgan yoshlarga ehtiyojning kuchliligi. Shuningdek, ular yangi tadbirkorlik imkoniyatlarini yaratishda faol ishtirok etishlari mumkin.

Beshinchidan, ijtimoiy mas'uliyat: iqtisodiy tarbiya insonlarni nafaqat o'zlarining moliyaviy farovonliklari, balki jamiyatdagi ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlik uchun ham mas'uliyatli bo'lishga o'rgatadi.

Ushbu omillar iqtisodiy tarbiyaning dolzarbligini oshiradi va uni ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida qaralishiga olib keladi.

4K modeli asosida iqtisodiy tarbiyaga oid mashg'ulotlarning ishlab chiqilishi ta'lim oluvchilarning iqtisodiy ongini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

4K modelining ta'lim jarayonida qo'llanilishi iqtisodiy tarbiyani samarali shakllantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Ushbu model asosida tashkil etilgan darslar talabalarning iqtisodiy bilimlarini, mas'uliyat hissini va iqtisodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy tarbiya jarayonida 4K modelidan foydalanish kelajakda raqobatbardosh va iqtisodiy savodxon avlodni tarbiyalashda asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, ushbu modelni ta'lim tizimiga kengroq joriy etish tavsiya etiladi.

4 K modeli iqtisodiy tarbiyada ta'lim oluvchilarning iqtisodiy masalalarni hal qilish qobiliyatini, mas'uliyatini, jamoaviy ishlash va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bu ko'nikmalar ularning kelajakdagi iqtisodiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonishiga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Omonovna, S. H. O'quvchilar tarbiyasini shakllantirishda ota-onalarga pedagogik bilim berish tizimining ahamiyati. Современное образование. (Uzbekistan), 2018 (5).

2. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. / Вступит. статья и комментарий В. С. Афанасьева. — М.: [Издательство социально-экономической литературы](#), 1962.

3. Самуэльсон П., [Нордхаус В.](#) Экономика. — М.: Вильямс, 2014.

4. Krugman P. R., Obstfeld M. International Economics: Theory and Policy. — 1988; 8-e изд.: Prentice Hall, 2008.

MAKTAB TA'LIMIDA YUQORI SINIF O'QUVCHILARI SHAXSIY FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.

To'qboyeva Dilshoda Zayniyevna

Navoiy davlat universiteti

“Umumiy pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o'qituvchisi

E-mail:tuqboyevad@gmail.com+998934394627

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktab ta'limida yuqori sinf o'quvchilari shaxsiy faoliyati samaradorligini oshirish omillari, shaxsiy faoliyatga xos bo'lgan jarayonlar, ularni egallash, tanlash inson psixologiyasi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: maktab, faoliyat, jarayon, kasb faoliyatdagi bilimlar, layoqat, malakalar;

Аннотация. В данной статье дана информация о факторах повышения эффективности личностной деятельности старшеклассников в школьном образовании, процессах, специфичных для личностной деятельности, психологии человека их приобретения и отбора.

Ключевые слова: школа, деятельность, процесс, профессиональные знания, способности, навыки;

Abstract. In this article, information is given about the factors of increasing the effectiveness of the personal activity of high school students in school education, the processes specific to personal activity, the human psychology of their acquisition and selection.

Key words: school, activity, process, professional knowledge, ability, skills;

Kirish. Hozirgi davrda zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o'zgarishlar bo'lishini taqozo etmoqda. Zero, olam to'g'risida va insonning hayotda tutgan o'rni to'g'risidagi tasavvurlari o'zgarmoqda, tafakkuri va olamni tushinishning yangi usullari shakllanmoqda, ma'naviy-amaliy o'zlashtirishning yangi vositalari va usullariga o'tish yuz bermoqda.

Ta'limda ijodiy izlanishlar haqiqiy ilmiy nazariyaga, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga, o'qitishning nazariy asoslari, shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlari va uning shakllantirish sharoitlari to'g'risidagi bilimlarning keng tizimiga tayangan holdagina muvaffaqiyat qozonadi. Inson hayoti sharoitlarini o'zgartiruvchi va insonni o'zini ham o'zgartiruvchi faoliyat hozirgi zamonda ta'limning umumiy asosidir. Inson faoliyati jamiyat taraqqiyotining har bir tarixiy davrida turli xil ko'rinishlar, faoliyatning turli shakllarida farqlanadi. Biroq ichki munosabatlar, ular o'rtasidagi aloqalar doimiy va umumiy bo'lib qolaveradi. Ular faoliyat tizimini hosil qiluvchi asoslardir. Ma'lumki, inson o'z g'oya, fikr, qarashlarini faqat faoliyat davomida amalda qo'llaydi va qayta yaratadi.

Faoliyat – bu insonni ma'lum bir ehtiyojlarini va manfaatlarini o'zi tanlagan kasb faoliyatidagi bilimlari, layoqati, malakalariga xos xususiyatlari orqali namoyon bo'lishidir. Shaxsiy faoliyatga xos bo'lgan jarayonlar, ularni egallash, tanlash inson psixologiyasi bilan

bog'liq. Ushbu jarayoni inson psixologiyasiga bog'liqligi shundaki, har bir inson o'zining fiziologik va anatomik, intellektual va ijtimoiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Qaysidir kasbga layoqati, qobiliyati yuqori bo'lgan inson, boshqa bir kasbga qiziqmasligi mumkin. Qiziqqan taqdirda ham uning shaxsiy individual xususiyatlari bu kasbga mos kelmasligi mumkin. Shu boisdan ham yoshlarni kasbga yo'llash jarayonida ularning qaysi sohaga nisbatan qobiliyati, iste'dodi borligi diagnostika qilinadi. Har bir kasbning o'ziga xos bo'lgan tomonlari, insonlarni o'ziga jalb qila oladigan qirralari mavjud bo'lib, inson bu jarayonlarni kuzatib borib shu kasbni egallashga intiladi. Bu jarayonlarda inson o'zini ruhiyat bilan shu kasbga xos bo'lgan psixologik tomonlarni ham shakllantirib boradi. Inson farzandida kasbga bo'lgan intilish, qiziqish ontogenezning turli davrlariga xos bo'lgan xususiyatlar asosida o'zgarib turadi. Shunga asosan bolalar ulg'ayib borar ekan turli yoshlarda turli kasblarga qiziqish bildiradilar. Bu qiziqishlar yosh davrlarida motivlarning almashinib turishi bilan ham chambarchas bog'liq holda o'zgaradi. Misol uchun maktabgacha yosh davridagi bola quruvchilikka qiziqish bildirsa, katta maktab davrida boshqa bir kasbni o'zi uchun ideal deb hisoblay boshlaydi.

Kasblarning bunday tarza almashinib turishi aynan yoshga xos bo'lgan fiziologik, anatomik, gormonal, intellektual o'zgarishlarga bog'liq holda amalga oshadi.

Har bir davrda yoshlarni o'zi tanlagan kasbi haqida mustahkam tasavvurlari bo'ladi. Yoshlar kasb haqida jamiyatdagi talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda tasavvurlarga ega bo'ladilar. Yoshlardagi kasb haqidagi tushunchalar yoshlik davrdan boshlab tadrijiy rivojlanib borish asosida shakllanadi. Masalan maktabgacha davrda bolalarda syujetli-rolli o'yinlar keng tarqaladi, ularning ma'lum qismi kasbga oid o'yinlar hisoblanadi va shu asosda bolalarda rolli o'yinlar asosida ma'lum kasblarni o'zlarining tasavvurlarida shakllantiradilar va unga xos xususiyatlarni o'zlashtira boradilar. Keyinchalik esa bolalarda kasbga yo'nalish beruvchi mehnat qilishga intilish ya'ni uyda o'z o'yinchoqlarini yig'ishtirish, ozodalikka intilish, kiyimlarni tozalash va hokoza kasblarga oid ko'nikmalar shakllana boradi. Kichik maktab yoshida esa bolalarda kasbga bo'lgan intilish taqlidga asoslangan holda amalga oshadi. Ular otasonasi, aka-uka, opa-singillari, yaqinlari qaysi kasb egasi bo'lsalar o'shalarining yurish turishi, kiyimlari, buyumlarini ko'rib ularga taqlid qila boshlashadi. Bu yerdagi ikkinchi muhim tomon bu bolalardagi xususiyat, ya'ni motivlardagi yutuq va asosiy faoliyati ko'rinishi bo'lgan o'qish jarayoni hisoblanadi.

Bolalarni o'qishdagi, o'yin faoliyatidagi va mehnatdagi faoliyatlari asosida o'z qobiliyatlarini anglash, ularni o'zlari xohlagan kasb haqida tasavvurlarini shakllantirishga olib keladi. Boladagi kichik maktab yoshidagi qobiliyatlarni rivojlanishi ularda individual farqlanishni yaqqol ko'rsatib qo'yadi, bular esa qaysi kasb ularga yoqishini ko'rsatib beruvchi spektrlarni rivojlantiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'smirlik davri- bu kasb tanlash, kasbga yo'llash faoliyati olib borishda eng muhim bosqich hisoblanadi. Chunki bu davrda yoshlar ilk marotaba g'ururi va nafsoniyatiga asoslangan holda kasb tanlash va mehnat faoliyatini olib boradilar. O'smirlik bu shaxs bo'lib shakllanishning eng muhim va asosiy bosqichi hisoblanadi. Bu davr har xil mehnat turlariga axloqiy munosabatlar o'rnatiladigan davrdir. Bu davrda har xil kasbni tanlash bilan bog'liq qadriyatlar tizimini shakllanishi bilan bog'liq davr hisoblanadi.

Kattalarni tashqi ko'rinishlariga taqlid qilish bilan o'g'il bolalar "haqiqiy erkaklar"ga xos bo'lgan kasblarni tanlashni xohlab qoladilar (deylik, uchuvchi bo'lishni, kosmonavt bo'lishni va shu kabilar). Qizlar esa ayollarga xos bo'lgan ishlarini ko'zlaydilar (deylik, qo'shiqchi bo'lishni,

tikuvchi bo'lishni, suhandon bo'lishni va shu kabilar.). Romantik kasblarga intilish ommaviy axborot ma'lumotlari orqali ularda shakllanadi. Yoshlarni 14-15 yoshidagi kasb tanlashi bu juda qiyin va murakkab jarayondir. Bu davrda ular qaysi kasbni tanlashlari hali yetarli aniqlanmagan bo'ladi. Kelajakni aniq ko'ra olmaslik ularda - o'zining "Men"ligini anglash refleksiyasini rivojlantiradi. Ular o'zlariga Men kimman? Mening qobiliyatim qanday? Mening hayotiy ideallarim qanday? Men kim bo'lishni xohlayman? kabi savollarni bera boshlaydilar. Ko'pgina kasbiy maktab o'quvchilari uchun bunday o'z - o'zini tahlil qilish kasbiy o'z - o'zini aniqlab olish bilan bog'liqbo'lgan psixologik jarayonlarni uyg'otadi. Lekin aynan kasbiy o'quv maskanlarida, litsey va kollejlarda o'qiyotgan o'quvchilar kasbiy bilimlar olib o'zlarini aynan kasblarini belgilab olishlari zarur bo'lgan davrdir. Lekin amaliyotdagi statistik ma'lumotlar bu yoshlarni o'zlari uchun ma'lum bir kasbni tanlab olganliklarini psixologik asoslab bergan emas.

O'smirlik davri mas'uliyatni his qilish, kuchli emotsional hissiyotlar, javobgarlik hissi, biron-bir kasbni tanlamsdan turib kelajakni ko'ra olmaslik bilan boshqa yosh davrlaridan ajralib turadi. Shuning uchun ham aynan shu davrda muqim bir qarorga kelish, aynan bir kasbni tanlab olishlari zarur hisoblanadi.

XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, YUNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "o'qitish va kasbga tayyorlashda, turli xil ta'lim olish imkoniyatlarini kuchaytirish va kengaytirish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu maktab o'quvchilarini kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorgarligini oshirish va ularning kasb tanlashga oid tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Ayni paytda jahonda kasbga yo'naltirish ishlarini natijaviylik asosida tashkil etish usullarining ilmiy asoslarini takomillashtirish, o'quvchilarning kasbiy motivatsiyasini oshirishga doir o'quv mashg'ulotlarni joriy etish, kasbga yo'naltirishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganlik, o'quvchilarni kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash, o'quvchilarning o'zlari qiziqqan kasblarda o'z iqtidor va imkoniyatlarini erkin ro'yobga chiqarishlari hamda uning o'quv mazmunini, o'qitish shakllari va texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Natijalar. Bugungi kunda Respublikamizda zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, jumladan, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish o'quv-metodik ta'minotini xalqaro talablar asosida yangilash kabi ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Qobiliyatni ajratib beruvchi testlar va ulardan foydalanish masalalari:

Insonlarning kasb tanlash jarayonida qobiliyatni aniqlash katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Buning uchun esa psixologiyada bir qancha testlar va usullardan foydalaniladi. Test-bu inglizchadan olingan bo'lib, sinash, tekshirib ko'rish degan ma'noni anglatadi.

Psixologik test –bu standartlashtirilgan vazifalar bo'lib, uni bajarish tekshiriluvchini psixofiziologik va shaxsiy xarakteristikasini o'lchab beradi. Angiliyalik biolog Frensis Galton bir qator testlarni yaratib, bunda insonni ko'rish qobiliyatini, eshitish qobiliyatini, muskullarni kuchini bilishga qaratilgan va boshqa sensomotor vazifalarni o'rgandi. Galton sensor farqlarni o'rganuvchi testlar bu insonni intellektini ko'rsatadi deb hisoblagan edi. Amerikalik psixolog Djems Kettel og'riqni his etish, xotiradagi va boshqa psixologik jarayonlardagi farqlanishlarni o'rgandi. Kettelga birinchi marotabatestlarga qo'yiladigan talablar tegishli bo'lib, u hamma tekshiriluvchilarga bir xil sharoit yaratishni, test o'tkazishni vaqtini cheklashni, tomoshabinlarni

bo'lmashligini, statistik metodlar asosida natijalarni ishlashni kiritish taalluqlidir. Hozirgi zamon testiga fransuz olimi Alfred Bine katta hissa qo'shib inson tafakkurini testda tekshirishni olib kirdi. T. Simon bilan birgalikda u insonni tushunchalariga, hukm va xulosalariga tegishli bo'lgan testlarni ishlab chiqdi. Hozirda testlarni juda ko'plab ko'rinishlari mavjud. Bular :

- 1) Predmetli testlar intellektual shaxsiy va shaxslararo testlarga bo'linadi.
- 2) Testlarda topshiriqlardan foydalanishning alohida xususiyatlari bo'yicha amaliy obrazli va so'z testlariga bo'linadi.
- 3) Test materiallarining tasnifi bo'yicha sinaluvchiga talablar, blankali va apparaturali testlar.
- 4) Obyekt bo'yicha baholash – protsessual testlar yutuqqa erishish testi, holat va xususiyatlar testi.

Intellektual testlar shaxsni aqliy faoliyati rivojlanganlik darajasi va ularni alohida bilish jarayonlarini (idrok, diqqat, hayol, xotira, nutq) baholashda qo'llaniladi. Yoshlarni qobiliyatini rivojlantirib borishda ularni o'zlarini rivojlantirishgabo'lganintilishlari yotadi. O'zlarini rivojlantirishhuchunularda quyidagi tomonlar bo'lishi kerak bo'ladi.

*Bilimga intilish

*Rejalashtira olish

*Konstruktivlay olish

*Muloqotga kirisha olish

*Tashkilotchilik tomonlari.

Quyida7-9-sinfo'quvchilarining iqtidor va qobiliyatlarini aniqlash bo'yicha metodikalardan namunalar bilan tanishib chiqamiz.

“Intellektual qobiliyatni aniqlash” metodikasi.

Insonning aql-zakovati, zehni uning kundalik turmushi, mehnat vakasbiy faoliyatida o'ziga xos o'rin tutishini tadqiq etish psixologiyaning eng dolzarb muammolardan biri ekanligi uzoq tarixiy davrga ega. Psixologiyaning zamonaviy fan sifatida shakllanishi barobarida insonning zehni va aql- zakovatini o'rganish, uning faoliyati samaradorligiga ta'sirini aniqlash bir qator ilmiy qonuniyatlarni ochilishiga sabab bo'ldi. Misol tariqasida quyidagi psixologlar tomonidan yaratilgan (F.Galton, Ch.Spirmen, A.Bine, T.Simon, M.Kettell, J.Gilford, G.Yu.Ayzenk, R.Tyorstoun) metodikalarni keltirish mumkin.

Dastlabki ilmiy izlanishlar inson intellektining tabiati, tuzilishi va o'lchash usullari ustida olib borilgan.

Tadqiqotlarning keyingi bosqichida esa intellekt bilan inson tiplariga (Ayzenk va Shoyentaler metodikalari (Eysenck, Schoenthaler, 1997)), uning ma'lumotlilik darajasiga, yashaydigan ijtimoiy-madaniy muhitiga (L.N.Borisova, N.S.Kantonistova), kasbiy faoliyatiga (T.Xarrell va M.Xarrell metodikalari) va boshqa jihatlariga bog'liqligi masalalari tadqiq etilgan.

Mazkur muammoni o'quvchilarning kasbga yo'naltirish va kasb tanlash faoliyati bilan bog'liq o'rganish zaruratini tahlil etishga to'g'ri kelsa, u holda Govard Gardner tomonidan ilgari surilgan g'oyaga tayanish muhimdir. G.Gardner intellekt orqali insonlarning, xususan o'quvchilarni qanday faoliyat turlariga layoqatli ekanliklarini va qanday kasb tanlashga yordam berishi mumkinligini izohlashga erishgan. U tomonidan ishlab chiqilgan “Intellekt tipi” anketasi intellekt bilan insonning kasbiy faoliyatga layoqatliligini, moyilligini aniqlash imkonini beradi.

G.Gardner o'zining intellektga bag'ishlangan g'oyasidan inson intellektiga ko'ra yettita tip xosligini tasniflagan: lingivistik, matematik-mantiqiy, vizual-fazoviy, musiqiy, shaxslararo, shaxsning ichki olamini tushunuvchi, kinestetik.

Xulosa. Umumta'lim maktablarida, kasb-hunar ta'limi jarayonida o'quvchilar bilan o'qituvchilarning o'zaro samarali faoliyatni ta'minlashida olim tomonidan ilgari surilgan intellekt tiplariga mansublikni inobatga olish muhimdir. Ko'p hollarda o'quvchilarning intellekt tiplariga mansubligini payqamaslik yoki bunga doir pedagogik-psixologik axborotga ega emaslik o'qituvchilarning ta'lim berish jarayonida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Zamonaviy ta'lim muassasalarida esa bu boradagi masalalarni hal etishda o'qituvchiga ta'lim muassasasi amaliyotchi psixologik ko'makchi hisoblandi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.-Toshkent; O'zbekiston, 2016.56 b.
2. “Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.-Toshkent; O'zbekiston, 2017. – 104 b.
3. Sh.E.Ne'matov, O'.O.Tohirov, G.T.Yadgarova, N.Tashbaev. “O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish orqali umumiy o'rta va o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi uzviyligini ta'minlashning nazariy-metodologik asoslari”. – Toshkent: O'zPFITI bosmaxonasi, 2015. – 152 bet.
4. Xudoynazarov T.A. Sharq allomalarining yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish to'g'risidagi mulohazalarining bugungi kundagi o'rni. J. Maktab va hayot. 2004.
5. Hasanboeva O., Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika –T.: Fan, 2006.-282 b.
6. Husanboeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. –T.: O'zginkomsentr, 2003.-103 b.
7. Ibragimov X. I., Abdullaeva Sh. A. Pedagogika. O'quv qo'llanma.T.: Fan, 2004.- 182 b.
8. Isaeva G. P. O'quvchilarning zamonaviy kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogikafanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.-Toshkent, UzPFITI, 2017.-19 b.
9. Karimova V. Psixologiya.-T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2012. -206 b.
10. Komilova G.O. Maktabgacha yoshdagi (5-6 yosh) o'quvchilarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning pedagogik asoslari: - Pedagogika fanlari nomzodi yozgan dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2022, 21 b.

TASVIRIY FAOLIYAT MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINING RIVOJLANISHI VOSITASI SIFATIDA

Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna
Urganch davlat pedagogika instituti,
Maktabgacha ta'lim kafedrası,katta o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining shakllanishi va rivojlanishida tasviriy faoliyatning tutgan o'rni yoritilgan. Chizish, bo'yash, modellash kabi badiiy faoliyatlarning bola nutqiga ta'siri yetakchi psixolog olimlar — L.S. Vygotskiy, A. Zaporozets, N. Lutsan, A.A. Leontyev va boshqalar ilmiy qarashlari asosida tahlil etilgan. Tadqiqotda tasviriy faoliyatning bolalarning lug'at boyligi, og'zaki muloqot ko'nikmalari, izchil hikoya qilish malakalarini shakllantirishdagi samaradorligi izohlangan. Shuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida diqqat, idrok, kichik motorika, emotsional-estetik hislar va fikrlashning rivojlanishi nutq bilan chambarchas bog'liqligi ilmiy hamda amaliy misollar yordamida ko'rsatib berilgan. Maqola maktabgacha ta'lim jarayonida tasviriy faoliyatni nutqni rivojlantirish vositasi sifatida integrativ qo'llashning pedagogik ahamiyatini asoslaydi.

Kalit so'zlar: tasviriy faoliyat, maktabgacha yosh, nutq rivoji, chizish, modellash, kichik motorika, idrok, Vygotskiy, Zaporozets, muloqot ko'nikmalari, pedagogik integratsiya, badiiy ijod, vizual fikrlash, og'zaki nutq.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль визуальной деятельности в формировании и развитии речи у детей дошкольного возраста. Влияние художественной деятельности, такой как рисование, живопись, лепка, на речь детей анализируется на основе научных взглядов ведущих психологов – Л.С. Выготского, А. Запорожца, Н. Луцана, А.А. Леонтьева и др. В исследовании объясняется эффективность визуальной деятельности в формировании словарного запаса, навыков устной коммуникации и навыков связного повествования у детей. Также на научных и практических примерах показана тесная связь между развитием внимания, восприятия, мелкой моторики, эмоционально-эстетических ощущений и мышления в процессе визуальной деятельности и речи. В статье обосновывается педагогическая значимость интегративного использования визуальной деятельности как средства развития речи в дошкольном образовании.

Ключевые слова: зрительная активность, дошкольный возраст, развитие речи, рисование, моделирование, мелкая моторика, восприятие, Выготский, Запорожец, коммуникативные навыки, педагогическая интеграция, художественное творчество, визуальное мышление, устная речь.

Kirish. Maktabgacha yosh – bola shaxsining jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishidagi muhim bosqichdir. Shu davrda nutq — fikr, his-tuyg'u va ehtiyojlarni ifodalash, ijtimoiy muloqotga kirishish vositasi sifatida shakllanadi. Og'zaki nutq orqali savol-javob qilish, voqealarni izchil bayon etish kabi kompetensiyalar keyingi ta'lim bosqichlari uchun tayanch bo'ladi.

Ma'lumki, bolalar orasida tinib-tinchimas, g'ayratli ichiga sig'maydigan, to'polonchilari bo'lib, ular uchun har doim barcha voqealar qiziq, har bir narsadan yangilik, g'ayrioddiylik topa oladi. Ularga sokin hayot emas, harakatga asoslangan o'yinlar yoqadi. Shunday bolalar borki, ular sokin va xotirjam, uzoq vaqt bir o'rinda o'tirib, kitoblarni tomosha qilishi, qo'g'irchoqlar bilan o'ynashi mumkin. Ba'zilar juda ta'sirchan, eng kichik e'tiborsizlik, keskin fikr bildirish

ularning yig'isiga sabab bo'ladi yoki tashvishga soladi. Har bir jamoada tupli temperament, xulq va xarakterdagi bolalarni uchratish mumkin. Ayrimlarida iqtidor va qobiliyatlari erta namoyon bo'lsa, ayrimlari yopiq, ichimdan top, beqaror. Ularning qiziqishi va qobiliyatlari u qadar aniq namoyon bo'lmaydi. Turli xil temperamentdagi bolalarning barchasini birday jalb eta oladigan faoliyat turlaridan biri tasviriy faoliyatdir. Chunki bu faoliyat ularning qiziqishlari, atrof-olamda kuzatganlari, hayajonga solgan, ijobiy va salbiy munosabatga sabab bo'lgan tuyg'ularini yetkazish imkonini beradi. Bu nutqning ham birlamchi vazifalaridan sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Umumiy va nutqiy faoliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'plab yetakchi olimlar: I.P. Pavlov, A.A. Leontyev, A.R. Luriyalap tomonidan tadqiq etilgan. Bolaning harakat faolligi qanchalik yuqori bo'lsa, uning nutqi shunchalik yaxshi rivojlanadi.

Nutq rivojining samaradorligi ko'plab omillarga: psixologik, pedagogik, ijtimoiy hamda metodik yondashuvlarga, turli sezgi va tajribaviy faoliyatlarga bog'liq. Shular orasida tasviriy faoliyat bolalar uchun ko'p jihatdan ifodali va interaktiv platformani taklif etadi. Chizish, bo'yash va boshqa badiiy amaliyotlarga jalb etilgan bolalar o'z g'oyalarini tasvirlab berish, tushuntirish va hikoya qilishga harakat qilishadi – bu esa og'zaki nutq va hikoya tuzish ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Tasviriy faoliyat bolaning emotsional-estetik hislarini ifodalash, fikrni obraz orqali bayon etish va og'zaki nutqni shakllantirishda muhim vositadir. Vygotskiy va Zaporozets tadqiqotlari tasviriy faoliyat bilan nutq o'rtasidagi bevosita funksional aloqani ta'kidlaydi[59, 71].

Tasviriy faoliyat va nutq o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risidagi Sh.Byuler va L.S.Vigotskiyning g'oyalari o'z tasdig'ini topgan. L.S.Vigotskiy “rasm chizish jarayonini nutq jo'rligiz ko'rib bo'lmaydi”, deya ta'kidlaydi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ham tasviriy faoliyat va nutq rivojlanishi o'rtasidagi chambarchas bog'liqlik to'g'risida e'tirof etishadi. Jumladan, A.Zaporozets maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin, kommunikativ va ishlab chiqarish faoliyati (tasviriy) yetakchi ekanligini, N.Lutsan esa bolaning rivojlanishida muhim bo'lgan har qanday: kognitiv, o'yin, nutqiy faoliyatni tasviriy faoliyatsiz tasavvur etib bo'lmashligini ta'kidlaydi.

Natijalar. Bolaning tasviriy faoliyati deganda uning atrofdagi voqelikni ongli ravishda o'z mahsulotida (chizish, modellash, loyihalash) aks ettirishi tushuniladi. Bola o'zining bu tasavvur ishiga, nafaqat o'z kuzatishlarini, shuningdek so'zlar, rasmlar va san'atning boshqa turlari orqali olingan taassurotlarini ham aks ettiradi. Bunda y atrof-muhitni yuzaki nusxalamaydi, balki to'plangan tajriba va tasvirlangan narsaga munosabati bilan bog'liq holda qayta ishlaydi. U tasvirlay olmaydigan narsalarini so'zlar bilan “to'ldiradi”.

Maktabgacha yosh – bola shaxsining jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishidagi muhim bosqichdir. Shu davrda nutq — fikr, his-tuyg'u va ehtiyojlarni ifodalash, ijtimoiy muloqotga kirishish vositasi sifatida shakllanadi. Og'zaki nutq orqali savol-javob qilish, voqealarni izchil bayon etish kabi kompetensiyalar keyingi ta'lim bosqichlari uchun tayanch bo'ladi.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalar maktabga psixologik jihatdan ham tayyorlanadi. Bu bolalarda maktabda o'qishga, yangi narsalarni kashf etishga, ko'nikma va qobiliyatlarni egallashga, maqsadli va qunt bilan o'rganishga, diqqat bilan tinglashga va kattalarning talablarini bajarishga, o'z harakatlariga munosabat bildirishga, ko'rganlarini tasvirlash va rejalashtirilgan narsalar haqida gapirishni shakllantiradi. Shunga ko'ra bolalar tasviriy faoliyati davomida nutqni rivojlantirishga e'tibor qaratish samarali va maqsadga muvofiqdir.

Bolalarning nutq va tasviriy faoliyatini rivojlantirish mashg'ulotlari tizimi ta'limning bir-biriga bog'langan ikkita tarkibiy qismidir. Ushbu integratsiya maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda ijodiy ish jarayonida olingan nutq qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirish darajasini oshirish imkonini beradi.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish bir necha yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- lug'at zaxirasini boyitish;
- nutqning muloqot vositasi sifatida shakllanishi va rivojlanishi;

nutqni tartibga solish.

Rasm chizish bolalarning sevimli mashgʻulotlaridan biri boʻlib, uning ijodiy faolligini namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Chizmalarining mavzulari har xil boʻlishi mumkin. Bolalar bu jarayonda oʻzlarini qiziqtirgan hamma narsani chizadilar: alohida obyektlar, atrofdagi hayot manzaralari, adabiy qahramonlar, dekorativ naqshlar va hokazo. Modellashtirish jarayonida esa bola kafti va barmoqlarida joylashgan biologik faol nuqtalarning tabiiy massaji yuzaga kelib, bu uning umumiy rivojlanishiga ijobiy taʼsir qiladi. Bunda bolada qoʻl mahorati, shu jumladan mayda motorikasi shakllanadi; qoʻl harakati koʻrish va kinestetik sezgilar nazorati ostida yaxshilanadi, shuning uchun olingan koʻnikmalar jismoniy va aqliy jarayonlarning rivojlanishiga va bolaning butun rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatadi. Bundan tashqari, aqliy muammolarning aksariyati hal qilinadi: qoʻl harakati davomida ong hissiyotlarni vizual, eshitish va taktil hislar bilan murakkab, oʻzaro aloqador tasvir va gʻoyalarga bogʻlash orqali xotirlab qoladi.

Bolalarda idrok va nutqning rivojlanishi boshqa faoliyat turlaridan farqli tarzda tasviriy faoliyat davomida samarali kechadi, chunki bunda nutq chinakam amaliy yoʻnalishga ega boʻladi.

Xulosa. Shuningdek, pedagogik tajribalarda tasviriy faoliyat jarayonida bola bilan samarali muloqot olib borish, unga savollar berish, oʻz fikrini bayon etishga ragʻbatlantirish ogʻzaki nutqni faollashtirishi isbotlangan. Bolalar rasmlar orqali nafaqat oʻz fikrlarini ifodalashadi, balki murakkab ijtimoiy va madaniy mazmunlarni ham oʻzlashtirishga harakat qilishadi. Bundan tashqari tasviriy faoliyat davomida bola koʻrgazmali obrazlar bilan ishlaydi, bu esa vizual va verbal fikrlashni uygʻunlashtirishga xizmat qiladi. Bola rasm orqali ifoda etmoqchi boʻlgan fikrini soʻzga aylantirishga intiladi. Shu tariqa, nutq – rasmning mantiqiy izohi, rasm esa – fikrning obrazli ifodasiga aylanadi.

TALABALAR MA'NAVIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHNG ZAMONAVIY SHAKLLARI

Saidova Yulduz Zamon qizi

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

+998993519183

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy taʼlim muassasalarida maʼnaviy-maʼrifiy ishlar jarayonida talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish jamiyat istiqloli va istiqbolini yuksaltirishning negizi ekanligini ilmiy pedagogik jihatdan asoslangan boʻlib, tarbiyalash jarayonining tarkibiy qismlari yoritib berilgan. Shuningdek, talaba-yoshlarda mustaqillik tafakkurini takomillashtirish yoʻlidagi ijodiy izlanishlar darslar saviyasini oʻsishi, taʼlim va tarbiyaning hayot bilan uzviy bogʻliqligini taʼminlash masalalari tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: maʼnaviy-maʼrifiy ishlar, taʼlim, tarbiya, barkamol avlod, qadriyat, islohotlar.

Аннотация: В данной статье освещены компоненты воспитательного процесса, научно педагогически обосновано, что формирование у учащихся самостоятельного мышления в процессе духовно-просветительской работы в высших учебных заведениях является основой повышения независимости и перспектив общества. Проанализированы также вопросы творческого поиска пути совершенствования самостоятельного мышления у учащихся-молодежи, повышения уровня уроков, обеспечения неразрывной связи образования и воспитания с жизнью.

Ключевые слова: духовно-просветительская работа, образование, воспитание, гармоничное поколение, ценности, реформы.

Annotation: This article highlights the components of the educational process, scientifically and pedagogically substantiates that the formation of students' independent thinking in the process of spiritual and educational work in higher educational institutions is the basis for increasing the independence and prospects of society. The issues of creative search for ways to improve independent thinking among young students, improving the level of lessons, ensuring the inseparable connection of education and upbringing with life are also analyzed.

Keywords: spiritual and educational work, education, upbringing, harmonious generation, values, reforms.

Kirish. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" tamoyili negizida barpo etilmoqda. Jumladan, «O'zbekiston — 2030» strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, jamiyatning sifat jihatidan rivojlanish darajasi uning intellektual, madaniy va ma'naviy salohiyatining o'sishiga bog'liq bo'lib, bu jarayonda ta'limning o'rni beqiyosdir.

XXI asr Yangi O'zbekistondagi sog'lom dunyoqarashga ega bo'lgan iymonli, diyonatli yoshlarga fikrlash va halol mehnat qilish davri ekanligini sezdirib bormoqda. Ayniqsa, ajdodlarimizdan bizgacha meros bo'lib kelgan yuksak insoniy sifat va fazilatlarining yoshlar tarbiyasiga singib, ularning ma'naviy yetuk, salohiyatli, zukko va barkamol bo'lib shakllanishidagi xizmati beqiyosligiga shubha yo'q.

Jamiyat rivoji ma'naviy, aqliy va jismoniy sog'lom, malakali mutaxassislariga bog'liq. Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchilari o'zlarining kelgusi istiqbolini aniq belgilashlari, kasb-kor ko'nikmalariga ega bo'lishlari, mehnatsevar, fidoyi va o'z ishiga jiddiy ma'suliyat hissi bilan yondoshadigan halol shaxslar voyaga yetishlari lozim bo'ladi. Respublikamizning bo'lg'usi fuqarolarining jismi – joni va qalbida xalqimizning umrboqiy udumlari, rasm-rusumlari, marosimlariga muhabbat ruhida qarash, milliy an'analarimizni chuqur bilish, bosh qomusimiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hurmat tuyg'ularini jo qilish har bir talabaning asosiy vazifasidir. Avlodlar vorisligi, davomiyligi tarbiyaviy ishimizning asosiy negizi bo'lib, biz bunda o'zbek xalqining an'analarini har tomonlama voqeligimizga tadbiq etib rivojlantira bormog'imiz kerak. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda oliy o'quv yurtida ma'naviy va ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish muhimdir. O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatimizning barcha sohalari qatori ma'naviy-ma'rifiy ishlarga alohida ahamiyat berilganligi, ushbu jarayonda talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish ilmiy-tadqiqot ishida nazariy jihatdan ishlab chiqilgan. Ayniqsa, oliy o'quv yurtlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish jamiyat istiqbolli va istiqbolini yuksaltirishning negizi ekanligini ilmiy pedagogik jihatdan asoslangan. Bunda Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan yaratilgan mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari bo'lgan, umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatlilik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish, vatanparvarlik, milliy istiqbol g'oyasining asosiy yo'nalishlari oliy o'quv yurtlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlarida ifoda etilishining nazariy asoslari yaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Respublikamizda ro'y berayotgan ta'lim islohoti sharoitida barkamol avlod o'z Vataniga, xalqiga, ona yeriga, millatiga, ota - onasiga sodiq bo'lgan har tomonlama kamol topgan insonlarni tarbiyalash eng muhim ahamiyat kasb etadi. Yangilangan davlat tizimida tarbiya mazmuni maksad va vazifalari xam yangilanadi. Bu yangilanish avvalo tarbiyani insonparvarlik va demokratiya prinsipi asosida qurilishi bilan farqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek " ta'lim-

tarbiya – har qaysi davlat va jamiyatning nafaqat bugungi, balki ertangi kunini ham hal qiladigan eng muhim va ustuvor masaladir. Shuning uchun mamlakatimizda bu masalaga davlat miqyosida ulkan e'tibor qaratilmoqda" [1, 353]. Darhaqiqat bugun ta'lim va tarbiya jarayonini sifatli tashkil qilish har qachongidan ham dolzarb bo'lib turibdi.

“Tarbiya” so‘zining ma’nolari ko‘p bo‘lsa-da, milliy an‘analardan kelib chiqsak, tasavvurda avvalo uning “axloqiy” sifati uyg‘onadi. Boisi, ota-bobolarimiz bola axloq-odobini tarbiyaning boshqa turlariga nisbatan ustun qo‘yishgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida tarbiya so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “rivojlantirish, parvarish qilish, o‘stirish; o‘rgatish; ilm berish” singari bir qator ma’nolarni anglatishi yozilgan. Izohli lug‘atni sinchiklab o‘rganganimizda “ta’lim” so‘zidan ko‘ra “tahsil” so‘zi ham kengroq ma‘noni ifodalaydi. Milliy tarbiya tarixining atoqli namoyandalari Fitrat va Abdulla Avloniy qarashlarida “tarbiya” so‘zining ma‘no qamrovi “ta’lim”ga qara-ganda birmuncha kengdir, hatto “ta’lim” mazmun-mohiyati jihatidan “fikir tarbiyasi” yoki “aql tarbiyasi” sifatida tarbiyaning tarkibiy qismi sanaladi. Umuman, tarbiya so‘zida yoshlarni (ham jismonan, ham axloqan, ham aqlan) barkamol avlod sifatida tarbiyalash tushuniladi. Ya’ni sodda qilib aytganda, “tarbiyali bola” barkamol avlod demakdir.

Yoshlar tarbiyasi har bir davrning o‘ta dolzarb masalasi bo‘lib kelgani ayni haqiqat. Muarrixlarning yozishicha, Gerodot Sharqqa qilgan safarlari chog‘ida Misr ehromlaridagi bir bitikka ajablangan: «Yoshlarning tarbiyasi buzilib ketyapti. Nima qilish kerak?!» Muarrix bu yozuvni o‘qiganiga ham ikki ming yildan oshib ketdi. Yozuvning bitilganiga esa, kim bilsin qancha vaqt bo‘lgan? Demak, yoshlar masalasi hamisha o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan, bunga hamma davrlarda ham turli darajada munosabat bildirilgan ekan-da.

Islom ta’limotida yoshlar tarbiyasi juda muhim o‘rin tutadi. Islomning dastlabki o‘n uch yilida, ya’ni Makka davrida Muhammad sollallohu alayhi va sallam insonlarning ongu shuuriga Allohning yakkayu yagonaligini singdirish barobarida ularga odob-axloq masalalarini o‘rgatishga alohida e’tibor qaratganlar. Bu borada o‘z yonlariga 8–16 yoshli (Ali, Talha, Zubayr) kabi ko‘plab yoshlarni olib, avvalo, ularning ta’lim-tarbiyasiga alohida ahamiyat berganlar.

Hadisi sharifda: “Bolalaringizga odob beringlar va odoblarini chiroyli qilinglar”, deyilgan (Imom Muslim rivoyati). Tarbiya haqida Imom G‘azzoliyning «Ihyou ulumud din» kitobida bunday deyiladi: “Bola – ota-ona qo‘lidagi omonat. Uning qalbi turli naqsh va rasmlardan xoli. Qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, nimaga moyil qilinsa, moyil bo‘laveradi. Agar yaxshilikka undalsa va o‘rgatilsa, saodatli bo‘ladi. Ota-onasi hamda odob, ta’lim-tarbiya bergan ustozlar uning savobiga sherik bo‘ldi. Agar yomonlikka undalsa, halok bo‘ladi”. Buyuk vatandoshimiz shayxurrais Abu Ali ibn Sino yosh avlod tarbiyasining ibtidosi qanday va nimalar bilan bo‘lishi haqida quyidagilarni aytgan edi: “Yosh bola boshlang‘ich ta’lim va tilga doir qoidalarni yod olganidan keyin u mashg‘ul bo‘lishi mumkin bo‘lgan kasb-hunar va san‘atga moyilligiga qarab, uni shunga yo‘llaymiz. Agar u kotiblikni xohlasa, til, xat yozish, nutq so‘zlash va odamlar bilan muomala qilish kabilarga dalolat qilamiz. Albatta, bu o‘rinda, bolaning mayli ahamiyatga ega” [6].

Bundan roppa-rosa bir asr oldin ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy tarbiya haqida kuyinib bunday degan: «Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga javoban: birinchi – uy tarbiyasidur. Bu Onalarning vazifasidur. Ikkinchi – maktab va madrasa tarbiyasidur. Bu Otalar, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur. Menga savol berurlar: Qaysi onalarni aytursiz? Bilimsiz, boshi paxmoq, qo‘li to‘qmoq onalarnimu? O‘zlarida bo‘lmagan tarbiyani qanday berurlar? Qaysi ota? To‘ychi, uloqchi, bazmchi, do‘mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko‘zi qiymagan, zamondan xabarsiz otalarnimi aytursiz? Avval ularni o‘zlarini o‘qutmaklik kerakdur. Bu so‘zlar kishini yuragini ezar, bag‘rini yondirur...». Abdulla Avloniyning quyidagi sozlari barchamizga tanish va o‘zining yuksak tushunchaga ega ekanligi uchun ham har bir ta’lim tarbiya maskanining peshtoqiga ilib qo‘yilgan: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”. Yoshlar tarbiyasini – hayot-mamot masalasi, deb ta’riflagan mutafakkir naqadar haq ekanini barchamiz yaxshi bilamiz. Chunki tarbiyasi mo‘rt yoshlardan jamiyat,

mahalla yoki oila uchun hech qanday naf yo'q. Yoshlarning hayotda adashishi, tuzatib bo'lmaz xatolari tarbiyada yo'l qo'yilgan xato yoki befarqlikning achchiq in'ikosidir.

Tarbiyani insonparvarlashtirish va demokratiyalash prinsipi talabalar, o'qituvchi - tarbiyachilar ijodiy faollik va mustaqilligini rivojlantirishi ularni turli xil ijtimoiy foydali ishlarni amalga oshirishda hamkorligini ta'minlash uchun dasturulamali bo'lib xizmat qiladi. Talabalar yoshlarda ijodiy faollik, aqliy zakovat, axloqiy salohiyat, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ularni keng qamrovli ijtimoiy -foydali ishlarga faol ishtirok etishlarini shakllantirish uchun, oliy ta'lim muassasalarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning alohida o'rni bor.

Qadim-qadimlardan zaminimizda yashab kelgan alloma va mutafakkir ajdodlarimiz barkamol insonni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Ma'lumki inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalarning mehr va ardog'iga, ko'magiga muhtoj bo'ladi. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr farobiyning ta'kidlashicha: "Inson fazilatlarini bilan kamolotga yetadi va kamolotga yetgan odam baxtli hisoblanadi". Shu muommoni tahlil qilgan Yusuf Xos Hojib so'zlari bilan aytganda, "Kamolotga yetish yo'llari ikkita, bilim olish va ibrat o'rganish"dir. Inson barkamollik pillapoyalaridan dunyodagi barcha narsalarga va odamlarga bo'lgan muhabbat his tuyg'usi bilan bilimlar egallash orqali o'z-o'zini tarbiyalash va chetdan berilgan ta'lim-tarbiya natijasida ko'tarilib boradi. Tarbiya axloqni shakllantirsa, bilim tafakkurga kuch beradi. Bularga xohish, intilish va shijoat qo'shilib, uyg'unlukda insonni barkamollik sar yetaklaydi.

Natijalar. Adabiyotlarni tahlil qilish va ish tajribalarini kuzatish natijasida oliy ta'lim muassasalari talabalarida mustaqillik tafakkurini shakllantirish ta'rifi quyidagicha ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Mustaqillik tafakkurini shakllantirish - bu har bir fuqaroning ichki kasbiy, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtirish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq faravonligi yo'lida xizmat qilish, O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlarini, tili, madaniyati, diniy e'tiqodi, urf-odat va an'analarini hurmat qilish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish ma'rifatli, bilimli, madaniyatli ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash demakdir.

Shu munosabat bilan har bir talaba uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan mustaqillik tafakkurini shakllantirish tizimi ya'ni ularga bilimlarni berish, ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirish kabilarning mazmuni va talaba shaxsi kamolotidagi ahamiyatini ko'rsatish zarur. Shuningdek, ushbu tizimning mazmunida talabalarda mustaqillik tafakkuri, milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish, ularni boy tarixiy va madaniy merosimiz bilan tanishtirish, milliy an'analariga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash kabilarni o'z ifodasini topgan [3].

Yoshlarda axloq, ilm, odob, iymon, vijdon, halollik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, e'tiqod, burch, ma'suliyat hissini hosil qilib ularni hasadgo'ylik, johillik, o'z vatani, o'z xalqi, o'z ota - onasiga sotqinlik, tuhmat qilish kabi xislatlarga murosasizlikni shakllantirish bugungi kun talabi ma'naviyatning asosi ekan uni o'rgatish lozim. Zero, ma'rifat - bilish, bilim, tanish va ma'lumot kabi ma'nolarni anglatuvchi tushunchadir. Shuning uchun ham ma'naviyat ma'rifat bilan uyg'un holatda, hamkorlikda, bir - birini o'zaro to'ldirib, rivojlanib boradi. «Ma'rifat, - deb yozadi akademik E.Yusupov kishilarning ongiga muayyan bilimlar, goyalar, e'tiqod va iymon, axloq va odob normalarini singdirish, ta'lim - tarbiya ishlarini takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimidir».

Insonning ma'naviy qiyofasi yaxshilik va yomonlik-axloqiy tushunchalar bilan belgilanadi. Yaxshilik sari intilish, unga yetishish sabr-toqat, mustahkam iroda, yuksak axloqiy maslakni talab etadi. Yomonlikning shaxobchalari ko'p, ammo ularning asosi uch narsa: ta'ma, g'azab va ilmsizlikdir. Beruniyning fikricha g'azab va ilmsizlik inson uchun eng kuchli va eng halokatli dushmanidir. Avvalo, ongini g'arazli maqsadlardan tozalash zarur. Ilm kishi ongini barcha yomonlik-lardan xalos etadi. Ilm-fan kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan paydo bo'ladi [4].

Talaba-yoshlarning mustaqillik tafakkurini shakllantirish ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosi ekanligi nazariy jihatdan ishlab chiqildi. Talaba shaxsida mustaqillik tafakkurini shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarga tayanish, O'rta Osiyo mutafakkirlarining asarlaridagi Vatan, yurt, xalq, ma'naviyat haqidagi g'oyalaridan foydalanish barkamol avlod tarbiyasida yetakchi rol o'ynaydi.

Mustaqillik tafakkurini shakllantirishda ma'naviy-axloqiy, estetik, ekologik, iqtisodiy, huquqiy kabi tarbiyalarning asosiy xususiyatlari yetakchi o'rin tutadi. Jamiyatga yuksak hurmat-e'tibor, millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat, kattaga hurmat va kichikka-izzat, mehr-muhabbat, sabr-bardoshlik, mehnatsevarlik, halollik kabilar talaba shaxsi tafakkurini shakllantirishning asosiy omillari ekanligini unutmazlik darkor [2].

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarida mustaqillik tafakkurini shakllantirishda:

har bir dars jarayonida o'tiladigan mavzularda milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillariga e'tibor berish, ulardan mustaqillik tafakkurini shakllantirishda foydalanish;

ta'lim jarayonida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ma'naviy merosimizni o'rganish va rivojlantirish masalalariga ahamiyat berish;

o'tiladigan mavzular asosida talabalarining mustaqillik tafakkurini shakllanganlik darajasini tekshirish va baholash metodikasini ishlab chiqish;

dars jarayonida talabalarining mustaqil ishlarini tashkil qilish;

talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi, Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlaridan foydalanish, fanlararo aloqani amalga oshirish;

mustaqillik tafakkuri tushunchasi, mohiyati tuzilishi, funksiyalari haqida ma'lumotga ega bo'lish va talabalarining fikrlash qobiliyati, uning iste'dodini rivojlantirishni tashkil qilish metodikasini ishlab chiqish;

talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirishda guruh murabbiysining tarbiyaviy ishlar rejasiga ega bo'lishi;

o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi muloqot madaniyatini yaxshi yo'lga qo'yishning ilmiy va amaliy pedagogik asoslarini ishlab chiqish.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirishda quyidagi masalalarni hal etish lozim bo'ladi:

oliy o'quv yurtlari ta'lim tizimida talabalarga o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy merosiga oid amaliy va nazariy ma'lumotlar berish, ularni tabiiy va gumanitar fanlar dasturiga kiritish;

milliy mafkura tamoyillari asosida yoshlarda mustaqillik tafakkurini shakllantirishning ilg'or tajribalarini qo'llash hamda o'rganish, kundalik ommaviy axborot vositalarida ularni muntazam yoritib borish;

umumxalq bayramlari, marosimlari, udumlari, shuningdek o'zbek xalqining fan va madaniyati tarixiga oid muhim sanalar, buyuk ilm arboblari, olimlar, shoirlar, mutafakkirlarga bag'ishlangan qiziqarli uchrashuvlar o'tkazib borishni oliy ta'lim muassasalari o'quv-tarbiyaviy faoliyatining muhim an'anasiga aylantirish;

milliy g'oyalar, qarashlar, urf-odatlar, an'analar, shuningdek ilm-fan, san'at va madaniyat yutuqlarini o'rganish, ularni yoritish, targ'ib qilishga talaba-yoshlar va yosh muallimlarni muntazam jalb etish;

yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishga san'at, madaniyat, ilm-fan arboblari, mashhur yozuvchilar, adiblar va jamoat arboblari doimiy ravishda jalb etish;

umumbashariy ma'naviy va ilmiy-amaliy qadriyatlar asosida talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirishda ilg'or pedagogik texnologiyalar va tajribalardan ijobiy foydalanib, tarbiyaviy usullarni takomillashtirish, umrboqiy milliy an'analar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning samarali vosita va usullarini izlash va keng qo'llash;

oliy ta'lim tizimida o'tmishimiz ma'naviy merosini o'rganish masalalari yuzasidan talaba va o'qituvchilarni ilmiy tadqiqot ishlariga faol jalb etish va ularni qiziqtiradigan, to'liqlantiradigan mavzular majmuini ishlab chiqish;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida xalqning boy tarixiga, uning ilg'or an'analari, udumlariga mos tarzda shaxsning mustaqillik tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan va shu asosida yaratilgan eng yaxshi, sara ta'lim-tarbiyaga oid ishlarni taqdirlash maqsadida maxsus jamg'arma tashkil etish;

turli saviya va sohadagi mutaxassislarni tayyorlovchi barcha o'quv yurtlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mustaqillik tafakkurini shakllantirish maqsadida xalq pedagogikasi, O'zbekistondagi ta'limiy fikrlar tarixi, «O'zbek an'analari va urf-odatlar tarbiyasi» maxsus kursi yaratish, «Buyuk Sharq mutafakkirlari ta'lim va tarbiya haqida», «Talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish» deb nomlanuvchi kurslarni o'quv rejalari va dasturiga kiritish.

Mazkur masalalar bizning nazarimizda, o'quv dasturini ijodiy qayta ishlash, talabalarda mustaqillik tafakkurini shakllantirish, ta'lim jarayonini ilg'or zamonaviy uslubiy asarlar, qo'llanmalar bilan ta'minlash, ilg'or milliy ziyoli kadrlarni bu sohaga faol jalb qilish imkonini tug'diradi. Shuningdek, bu narsa talaba-yoshlarning ulug' o'tmishimizning beqiyos ma'naviy bisotlarini chuqur o'rganish va eng muhimi, ularning mustaqil fikrlash tarzini o'sib borishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Kezi kelganda shuni ham alohida yodda tutmoq kerakki, bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonini axborot va kompyuter texnikasi bilan ta'minlash, oliy ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishda muhim ahamiyatga egadir.

Eng muhimi, o'quv darslarida mustaqillik tafakkuri masalalariga ko'proq to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Xususan, talabalarga ular hayotiy maqsadlariga erishishlarida, bozor munosabatlari sharoitida o'z o'rinlarini topishlarida mustaqillik tafakkurini nechog'lik muhimligini anglab yetishishlariga amaliy yordam ko'rsatish lozim, bo'ladi.

Binobarin, talabalar bilan bo'ladigan o'zaro muloqot jarayonida ularni fikrlashga, suhbatga undaydigan, ularda mustaqillik tafakkurini shakllantirishga yordam beradigan hamma foydali ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda talabalarning ijodiy faoliyatidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublika hayotida eng muhim voqealarga doir munozaralar, kollokviumlar, davra suhbatlari, o'quv konferensiyalari o'tkazishni dastur rejalari kiritish shular jumlasidandir. O'qituvchilar va talabalar o'zaro muloqotlarda ijtimoiy va estetik muammolarni, madaniy hayot yangiliklarini, hayotiy masalalarni ijodiy muhokama etishlari ancha foydali natijalar keltirishi shubhasizdir. Gap shundaki, umuminsoniy qadriyatlarni egallash orqali yoshlarning mustaqillik ideallari, ma'naviy va axloqiy ziyrakligi, Vatan, elu yurt oldidagi o'z burchlarini bajarish, unumli mehnat faoliyatiga tayyor bo'lish borasidagi fuqarolik tuyg'ulari shakllanadi [3].

Shuningdek, talaba-yoshlarda mustaqillik tafakkurini takomillashtirish yo'lidagi ijodiy izlanishlar darslar saviyasini o'sishi, ta'lim va tarbiyaning hayot bilan uzviy bog'liqligini ta'minlashga yordam beradi. Faqat mana shunday keng qamrovli tadbirlar o'tkazish yo'llari bilangina o'z vataniga, uning buyuk kelajagiga sadoqatli vatanparvar inson shaxsini tarbiyalash mumkin. Bunda o'quv-metodik rejalari, dasturlar, tavsiyanomalar ishlab chiqish, talabalar tarbiyasi va ma'naviy kamoloti masalalariga oid boy hayotiy tajribalardan foydalanish muhimdir.

Xulosa. Bu oliyanob maqsadga erishish uchun jonli muloqotlar, suhbatlar, ma'ruzalar, munozara, ekskursiyalar uyushtirish, muhim mavzulardagi kinofilm va spektakllarni ijodiy muhokama etish kabi tarbiyaviy usullardan keng foydalanish ahamiyatlidir. «O'zbekiston ikkinchi jahon urushi yillarida», «Bilim mustaqillik asosi» mavzularida davra suhbatlari va jonli muloqotlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Talabalarning har biri bilan yakka-yakka tartibda uzluksiz ish olib borish, ta'lim muassasasi rahbariyati, ta'lim mutasaddilari bilan hamkorlik qilish, bo'lajak mutaxassislarda insoniylik va vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashga e'tibor qaratish, umumiy va huquqiy madaniyatni muttasil sayqallab borish – yetakchi tarbiya omillaridan sanaladi. Talabalarning ma'naviy o'sishiga, mustaqillik tafakkurini shakllanishiga katta e'tibor berish, ta'lim-tarbiya tizimining hamisha diqqat markazida turmog'i kerakdir.

«Sharq ma'naviy merosi», «Mustaqillik-kelajak poydevori» singari mavzularda mashg'ulotlar o'tkazishga an'anaviy tus bermoq lozimdir. Muhim dasturiy hujjatlar asosida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va asarlarini qunt bilan o'rganish, respublikamiz hayotidagi dolzarb muammolarga doir hukumat hujjatlarini muhokama etish, ulardan zarur xulosalar chiqarish – bular talabalar tafakkuri, siyosiy, huquqiy bilim saviyasini o'sishiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy barkamollik - bu kishida jismoniy sifatning yuqori darajada rivojlanganligidir. Badan tarbiya mashqlari tartibli yo'l bila bo'lsa, fikrni uyg'onlashtiradi, qon yurishishiga yordam beradi, ovqat hazmini yaxshilaydi, asbini quvvatlantiradi, tan haroratini oltiradi, zehni ochadi [5].

O'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari yuksak ma'naviyat ruhida, milliy mustaqillik ideallariga asoslangan tarzda yuksak axloqiy tamoyillar va e'tiqod negizida qaror topadi. Xuddi shu tamoyillar negizida talaba-yoshlar shaxsining eng yaxshi ibratli, ijobiy xislatlari, fazilatlarini, ularni hayotning har bir lahzasi, daqiqasidan ma'nan va ruhan qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladigan yuksak ma'naviy-axloqiy tizim shakllana boradi. Bu esa kelajakda o'z samarasi va natijalarini berishi shubhasizdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2019. – 400 b.
2. Olimov Sh.Sh. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). – T.: “Fan va texnologiya”, 2015. - 228 b.
3. Soibnazarova M. Barkamol avlod tarbiyasida mutafakkirlarning fikrlaridan foydalanish //Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii. – 2022. – T. 2. – №. 6.
4. Amonova X., Sadikova S. Renessans va barkamol avlod tarbiyasi //Obshestvo i innovatsii. – 2021. – T. 2. – №. 8/S. – S. 374-378.
5. Samiyeva Sh., Shamsullayeva R. Подготовка студентов к духовно-просветительской деятельности как современная педагогическая проблема //Pedagogik mahorat. – s. 80.
6. “Islomiy tarbiya va uning falsafasi”. Muhammad Atiya, 197-bet.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TO'G'RI YOZISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLARINING TAVSIFI

Subxonova Sanobar Abduhalim qizi

Navoiy Davlat Universiteti doktoranti,

“Boshlang'ich ta'lim” kafedrasini o'qituvchisi

E-mail: subhonovasanobar@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining to'g'ri yozish ko'nikmasini rivojlantirishda o'quv topshiriqlarining qay turlaridan foydalanish samarali kechishi hamda ularning tavsifi haqida fikr yuritiladi. Ona tili fanidan mashqlar tizimi hamda to'g'ri yozish malakasini rivojlantirishga oid mashqlar mazmuni tahlil ostiga olingan.

Kalit so'zlar: to'g'ri yozish, imlo, topshiriq, boshlang'ich ta'lim, mashqlar tizimi, savodxonlik, topshiriqlar tizimi, orfografiya, metodika, ko'rish omili, eshitish omili.

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективное использование типов учебных задач и их описание в развитии навыков правильного письма у учащихся

младших классов. Проанализирована система упражнений по предмету родной язык и содержание упражнений, связанных с развитием навыков правильного письма.

Ключевые слова: правильное письмо, орфография, задание, начальное образование, система упражнений, грамотность, система заданий, орфография, методика, зрительный фактор, слуховой фактор.

Annotation: This article discusses the effective use of types of educational tasks in the development of correct writing skills of elementary school students and their description. The system of exercises in the subject of the mother tongue and the content of exercises related to the development of correct writing skills were analyzed.

Key words: correct writing, spelling, tasks, elementary education, exercise system, literacy, assignment system, orthography, methodology, viewing factor, factor.

Kirish. Jamiyatda har bir shaxsning adabiy til me'yorlari asosida to'g'ri yozishi – savodxonlik darajasi madaniylikning muhim belgilaridandir. Yozma nutqning to'g'ri va to'kis bo'lmog'i uchun esa imlo qoidalarini nazariy va amaliy jihatdan puxta bilish shartdir. Chunonchi, imlo qoidalari – savodxonligimiz asosi desak mubolag'a bo'lmaydi. Imlo adabiy tilning yozma shakli bilan aloqador bo'lib, u to'g'ri yozish qoidalarini o'rgatuvchi hamda ular haqida batafsil ma'lumot beruvchi tilshunoslikning alohida bir bo'limidir. Imlo qoidalari orqali biz so'z va so'z shakllarining bir xilda yozilishini tartibli tarzda yozma nutqda ifoda etamiz.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev e'tirof etib o'tganlaridek: «Yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazish, ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish, bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur». [1]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Imlo savodxonligini oshirish bilan bog'liq mashqlarning turlari nihoyatda rang-barang. Ular o'quvcidagi omloviy ziyraklikni oshirishga yordam beradi. Imloviy hushyorlik va imloviy sezgirlik so'zlarning to'g'ri shakllarini tasavvur qila olishi, ulardagi xatolarni hamda xatolarning tiplarini seza olishi, tekshirishning to'g'ri variantini topa bilish ko'nikmalarini bilish bilan bog'liqdir ilgari buning eng asosiy yo'li sifatida tegishli qoidalariga mos mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Bu ham to'g'ri yo'l ammo ko'rish, eshitish, qo'l va nutqiy harakatlarga ham e'tibor qilish kerak.

Ko'rish omili - imlosi qiyin bo'lgan so'zlarni ko'rib olish va ko'chirish bu jihatdan o'rinli bo'ladi.

Tinglash omili – o'quvchi o'qituvchi aytayotgan so'zlarni aniq eshitishi va uni anglab olishi kerak hisoblanadi. U tovushlarning ma'no farqlashini idrok etishi shart.

Qo'l harakati omili – har qanday imloviy ko'nikmalarga tegishli mashqlar, ya'ni yozayotgan qo'lning ritmik harakatlari vositasidagina erishish mumkin. Imlo ustida ishlaganida xuddi

shuning uchun ham yozma mashqlarni ko'proq bajarish taqazo etiladi. Sahifadagi qatorlar bo'ylab harakatlanayotgan qo'l muayyan so'zning yozma obrazini hosil qilib boradi. Qo'lning o'zi go'yo bu harakatlarni eslab qoladi, ya'ni bu so'zlarni qo'l o'z-o'zidan yozaveradi. Psixologlar eslab qolishni ongli va ongsiz turlarga ajratishadi. Shuning uchun ham eslab qolish bilan bog'liq bo'lgan mashqlarga urg'u berish kerak hisoblanadi.

Aytib turib yoki talaffuz qilib turib yozish – o'quvchilar, jumladan, boshlang'ich sinflarda so'zlarni bo'g'inlab talaffuz qilishadi. Ular birinchi bo'g'indagi dastlabki harfni o'qib u anglatgan tovushni talaffuz qilishadi.

Sharhli yozuvlar – bunday yozuv turi har bir so'z v abo'g'inlarni alohida-alohida talaffuz qilishdan tashqari, izohlashni ham talab etadi. Bunday ovoz chiqarib o'qilishi taklif etilayotgan so'z va gaplarni o'qish bilan cheklanmaydi, balki har bir holatdagi imlo qoidalarining amaliyotdagi o'ziga xosliklarini asoslashga ham xizmat qiladi: har bir imlo qoidasini ongli ravishda yozishga ham xizmat qiladi. Bunda yana bir holat e'tiborga olinishi lozim hisoblanadi, barcha o'quvchilarning sharh va izoh berayotgan o'quvchi bilan matnni o'qishda bir xil tempda borishlari joiz. Hech kim ortda ham qolmasligi va hech kim tezlashib ham ketmasligi joiz.

Ko'chirib yozish – lug'aviy birliklarni eslab qolishdagi eng unumdor usul bu ko'chirib yozishdir. Metodist olim M. R. Lvovning ko'rsatishicha, "Ko'chirib yozish yozma mashqlardagi eng faol ish turlaridan biri bo'lib, yozuv texnikasi hamda hunixatni, imlo va grammatikani o'rgatishda keng qo'llaniladi".

Esab yozish – yozuvning bu turi xotirani, tafakkurni, nutqini rivojlantiradi, o'quvchidagi o'z-o'zidan nazorat qilishni tarbiyalab boradi. [2;5-9]

Natijalar. Til axborot almashish vositasi sifatida og'zaki va yozma shakllarga ega. Tilning bu ikki shakli o'zaro aloqador bo'lib, kishilar bir-birini tushunishlari uchun talaffuz va yozuv me'yorlarini bilishlari muhim. Tilimizdagi aksariyat so'zlar talaffuziga xos yozilsada, ayrim so'zlar talaffuzidan farqli tarzda yoziladi. Savodxonlik bilan bog'liq muammolar, aksariyat hollarda mana shu nuqtada yuzaga keladi. Shu bois savodxonlikni rivojlantirish uchun turli mashqlar ustida ishlash kerak hisoblanadi. [3; 3]

Shuning uchun ham turli xil shakildagi mashqlar bilan ishlash orqali o'quvchiga yozma savodxonlikni oshirish mumkin hisoblanadi.

Bunda noto'g'ri yozilgan so'zlarni tagiga chizing kabi topshiriqlardan ham foydalansa bo'ladi:

Islohat	hokazo
konki	mobodo

yanov

pehona

Bunda har bir o'quvchi xato yozilgan so'zlarning tagiga chizish orqali o'zining imloviy savodxonligini tekshirib boradi.

Hamda talaffuzi va imlosida farq qiluvchi so'zlarning ayrim fonemalarini tushurib qoldirish orqali ham so'larni to'g'ri yozish sharti orqali ha o'quvchida imloviy savodxonlikni rivojlantirish mumkin. Masalan:

so...t – soat

t..nna - tonna

mumk..n - mumkin

a..vtobus – avtobus

shuni misollar ham shu sirasidandir.

Misol uchun, “Uchta xato, bitta to'g'ri ” o'yini orqali ham aynan 4-sinf o'quvchilarining orfografik savodxonligini tekshirish bilan bir qatorda, o'yin davomida xatolar ustida ishlash ham ularning to'g'ri yozish malakasini shakllantirish mumkin hisoblanadi. Bunda, o'quvchilar ikki guruhga bo'lingan holda x va h harflari ishtirok etgan so'zlarni har bir ishtirokchi uchta xato va bitta to'g'risini yozgan holda davom ettiradilar hamda so'zlar jamlangan varoqlar guruhlar orasida almashinib, har ikkala guruh ham raqib jamoaning to'g'ri va noto'g'ri yozgan so'zlarini saralab chiqadilar bu o'yin orqali esa ikki jamoa ham ham yozib, ham raqib jamoaning bajargan topshirig'ini saralagan holda x va h harflari ishtirok etgan so'zlar doirasida bilim va yetarli malakaga ega bo'ladilar. Bu kabi o'yinlardan foydalanish esa o'quvchining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bilanq bir qatorda, ularni jamoa bo'lib ishlash kabi ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, darsliklarda berilgan to'g'ri yozish malakalarini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari ham o'quvchida dars jarayonida yozma nutqning sayqal topishi uchun juda unumlidir. Misol uchun, 2-sinf ona tili darsligida berilgan “So'z ichida ketma-ket kelgan bir xil undoshlar” [Qosimova v.b., 208: 55] mavzusi doirasida berilgan mashqlar ham shular jumlasidandir:

144-mashq. O'qing.

Yalqovlikni yiqqanmiz,

Katta yo'lga chiqqanmiz.

Yetish uchun maqsadga,

Toblanib chiqqanmiz.

Po'lat Mo'min

Ketma-ket kelgan bir xil undosh harfli soʻzlarni boʻgʻin koʻchirish uchun boʻlib, sheʼrni yozing.

145-mashq. Oʻqing. Soʻzlarni boʻgʻin koʻchirish uchun boʻlib yoʻzing.

Gʻalla, chinni, tonna, barra, issiq, naqqosh, chittak, qubba, rassom, qissa.

Ushbu mashqlar hamda unda berilgan topshiriqlar orqali oʻquvchilarda orfografik qoidalarining har ikki turini amaliy jihatdan oʻrganish mumkin hisoblanadi. Yaʼni, qosh undoshlar imlosi va koʻchirish qoidalari kabi. Ushbu mashqlarni oʻquvchilar bajarish orqali oʻzlarida toʻgʻri yozishga doir amaliy koʻnikmalarni hosil qilib boradilar.[4; 124]

Xulosa. Xulosa qiladigan boʻlsak, orfografik savodxonlik jamiyat rivoji uchun juda salmoqli hodisa hisoblanadi. Chunki imloviy savodxonligi boʻlmagan jamiyatda omi shaxslar koʻpayadi, imlo madaniyati tanazzulga yuz tutadi. Shunday ekan, boshlangʻich sinf oʻquvchilarini savodxon etib tarbiyalash bu jamiyatni savodxon etish demakdir. Bunda esa har bir oʻquvchining yozma savodxonligini shakillantirish hamda rivojlantirish uchun esa turli mashqlar tizimidan foydalanish naqsadga muvofiqdir. Bunda esa, boshlangʻich sinf oʻqituvchilari nafaqat ona tili darslarida balki, barcha darslarda har bir termin va soʻzlarning toʻgʻri yozib, toʻgʻri talaffuz etilishiga eʼtibor berishi lozim hisoblanadi. Chunonchi, imlo madaniyati har bir shaxsning jamiyatdagi oʻrnini belgilovchi asosiy omillardan biri boʻlib xizmat qiladi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этишимиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутқ.— Тошкент:Ўзбекистон,2016. 136.
2. В. Тоʻхлиев, Н. Абдуллаев, о. Аметова. Imloni oʻrganamiz. Toshkent. 2015.
3. Dilduza Toʻxliyeva. Imloni oʻrganamiz. Toshkent. “Bayoz”. 2020.
4. Subxonova S. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining toʻgʻri yozish malakasini rivojlantiruvchi oʻquv topshiriqlari mazmuni tahlili. Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari. Konfirensiya toʻplami. Toshkent . – 2024.
5. Matchonov S. , Bakiyeva H. v.b. Boshlangʻich sinflarda ona tili oʻqitish metodikasi. Toshkent, “Ishonchli hamkor”. – 2021. 642 b.
6. Abdullayeva Q. , Rahmonbekova S. Diktantlar toʻplami. Vektor- press. – T. ; 2011; 191 b.
7. Gʻulomov A., Sayfullayeva R., Ernazarova M. v.b. Oʻzbek tilini oʻqitish metodikasi. Oʻquv qoʻllanma. Muharrir. Toshkent. – 2023. 370 b.
8. Qosimova K. , Matchonov S. v.b. Ona tili oʻqitish metodikasi. “Noshir”, Toshkent. – 2009. 351 b.

PEDAGOGIK RISKOLOGIYA: ILMIY YONDASHUVLAR VA NAZARIY TALQIN

Jabborova Dilafruz Furkatovna

Navoiy davlat universiteti,
Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagogik riskologiyaning nazariy asoslari hamda ta'lim jarayonida pedagogik risklarni o'rganishga doir asosiy ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida yuzaga keladigan noaniqlik holatlari, pedagogik qarorlar bilan bog'liq xavf-xatarlar va ularni boshqarish zarurati ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik risklarni boshqarishda integrallashgan yondashuvlarning ustuvorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pedagogik riskologiya, pedagogik risk, noaniqlik, tavakkalchilik, ta'lim jarayoni, tizimli yondashuv, psixologik yondashuv, . aksiologik yondashuv, innovatsion yondashuv.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы педагогической рискологии и основные научные подходы к изучению педагогических рисков в образовательном процессе. На основе научных источников рассматриваются ситуации неопределенности, возникающие в образовательном процессе, риски, связанные с педагогическими решениями, и необходимость управления ими. Результаты исследования указывают на приоритетность комплексных подходов к управлению педагогическими рисками.

Ключевые слова: педагогическая рискология, педагогический риск, неопределенность, риск, образовательный процесс, системный подход, психологический подход, аксиологический подход, инновационный подход.

Annotation. This article analyzes the theoretical foundations of pedagogical riskology and the main scientific approaches to the study of pedagogical risks in the educational process. Based on scientific sources, the situations of uncertainty that arise in the educational process, the risks associated with pedagogical decisions, and the need to manage them are considered. The results of the study indicate the priority of integrated approaches to pedagogical risk management.

Keywords: pedagogical riskology, pedagogical risk, uncertainty, risk, educational process, systemic approach, psychological approach, axiological approach, innovative approach.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi globallashuv, raqamli texnologiyalar, shuningdek, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar ta'sirida jadal rivojlanmoqda. Bu jarayon ta'lim natijalariga ta'sir etuvchi noaniqlik va xavf omillarining ortishiga olib keladi, natijada pedagogik faoliyatda qaror qabul qilish har doim ehtimollik va tavakkalchilik bilan bog'liq bo'ladi [2; 4]. Shu sababli, pedagogik jarayonda risklarni tizimli tarzda aniqlash va boshqarish zamonaviy pedagogikaning muhim ilmiy va amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. Pedagogik risk tushunchasi ilmiy adabiyotlarda ko'p jihatdan ehtimollik nazariyasi bilan bog'langan. Risk, odatda, kutilgan natijaga erishishning noaniqligi, alternativ variantlar orasida tanlov qilish zarurati sifatida izohlanadi [3].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Pedagogik kontekstda esa risk — bu pedagog tomonidan qabul qilinadigan qarorning kutilgan natijaga yetmaslik ehtimoli sifatida talqin qilinadi. V.A. Slastyonin va E.F. Zeer tadqiqotlariga ko'ra, pedagogik risk ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u pedagogning kasbiy faoliyati darajasi bilan bevosita bog'liqdir [4].

Muhokama. Axborot yetarliligi va sharoitlar to'g'ri bo'lgan hollarda pedagogik risk boshqariluvchi bo'ladi, ya'ni pedagog sharoitlarni tahlil qilib, qarorlarni optimal qabul qilishi mumkin. Aksincha, noaniqlik kuchli bo'lgan vaziyatlarda risk nazoratsiz tavakkalchilikka aylanadi va pedagogik natijalar kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin [5]. Shu nuqtai nazardan pedagogik riskologiya nafaqat xavf omillarini aniqlash, balki ularni tizimli boshqarish va oldini olish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan fan sifatida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, psixologik tadqiqotlar pedagogik riskni shaxsning individual xususiyatlari, motivatsiyasi, stressga chidamliligi va shaxsiy kompetensiyalari bilan bog'liq hodisa sifatida talqin qiladi [6]. Bu esa pedagogik faoliyatni individual yondashuv orqali optimallashtirish imkonini beradi.

Pedagogik riskologiyaga oid ilmiy yondashuvlar.

1. Tizimli yondashuv

Tizimli yondashuv pedagogik risklarni ta'lim tizimining barcha komponentlari o'zaro aloqadorligi nuqtai nazaridan o'rganishni nazarda tutadi. Bu yondashuv asosida pedagogik jarayon elementlari (maqsad, mazmun, metod, vositalar, natija) bir-biri bilan uzviy bog'liq tizim sifatida tahlil qilinadi. B.F. Lomov va V.P. Bepalko tadqiqotlari tizimli yondashuvning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi, ya'ni pedagogik muammolarni kompleks va integrallashgan tahlil qilish imkonini beradi [7; 8]. Shu bilan birga, tizimli yondashuv pedagogik faoliyatdagi kutilmagan oqibatlarni oldindan aniqlash va risklarni minimallashtirishga yordam beradi.

2. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv A.N. Leontev va S.L. Rubinshteyn nazariyalariga tayanadi. Bu yondashuvda pedagogik risklar pedagog va o'quvchining faoliyati davomida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlar bilan izohlanadi [9]. Masalan, noto'g'ri pedagogik qaror qabul qilish yoki metodikani to'g'ri qo'llay olmaslik o'quv jarayonida kutilmagan natijalarga olib keladi. Shu yondashuv risklarni faoliyat kontekstida tahlil qilish va pedagogning qaror qabul qilish kompetensiyasini oshirishga imkon yaratadi.

3. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv pedagogik risklarni shaxsning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va motivatsiyasi bilan bog'lab o'rganadi. Bu yondashuv K. Rogers va Sh.A. Amonashvili ishlarida o'z ifodasini topgan [10; 11]. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv pedagog va o'quvchining psixologik holati, shaxsiy kompetensiyalari va tajribasini hisobga olgan holda risklarni boshqarish imkonini beradi.

4. Psixologik yondashuv

Psixologik yondashuvda pedagogik risklarning asosiy manbai sifatida emotsional zo'riqish, stress, motivatsiyaning pasayishi va psixologik resurslarning yetishmasligi ko'riladi [6; 12]. Bu yondashuv pedagogik faoliyatdagi xavf-xatarlarni individual shaxsning psixologik xususiyatlari bilan bog'laydi va pedagogik yordam, stressni boshqarish hamda motivatsiya tizimini optimallashtirish zaruratini ko'rsatadi.

5. Ijtimoiy-pedagogik yondashuv

Ijtimoiy-pedagogik yondashuv pedagogik risklarni jamiyat, oila va ijtimoiy muhit bilan bog'liq omillar orqali tushuntiradi [13]. Masalan, resurslarga teng kirish imkoniyati yo'qligi, ijtimoiy adolatsizlik va oilaviy sharoitlarning ta'lim natijalariga ta'siri bu yondashuv doirasida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining rivojlanishi pedagogik risklarni kamaytirishda muhim vosita sifatida qaraladi.

6. Kompetensiyaviy yondashuv

Kompetensiyaviy yondashuv pedagogda riskologik kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan. Bu yo'nalishda pedagog risklarni oldindan aniqlash, baholash va samarali boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur [14; 15]. Kompetensiyaviy yondashuv pedagogik mahoratni rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishning muhim komponenti sifatida qaraladi.

5. Aksiologik yondashuv

Risklar pedagogik qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va kasbiy mas'uliyat nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Pedagogning har bir qarori ta'lim sifati va tarbiyaviy oqibatlarga ta'sir qilishi sababli ehtiyotkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Innovatsion yondashuv

Ta'lim jarayoniga yangiliklarni joriy etish bilan bog'liq risklar (raqamli texnologiyalar, yangi metodlar) o'rganiladi. Bu yondashuv risklarni to'siq emas, balki rivojlanish imkoniyati sifatida talqin qiladi.

Xulosa. Bu jadvalda “Pedagogik faoliyatda risklarni boshqarish bo'yicha ilmiy yondashuvlar” ni ko'rishingiz mumkin.

Yondashuv nomi	Asosiy xususiyatlari	Tavakkalchilik turi / xususiyati	Pedagogik risk oqibatlari	Riskni boshqarish usullari	Asosiy tadqiqotchilar / manbalar
Tizimli yondashuv	Ta'lim tizimi komponentlarining o'zaro aloqadorligi; kompleks tahlil	Strukturaviy risklar (tizimdagi xatoliklar)	Ta'lim jarayonida buzilish, natija pasayishi	Tizimli monitoring, kompleks strategiyalar	B.F. Lomov [7], V.P. Bepalko [8]
Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv	Pedagog va o'quvchining faoliyati jarayonida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlar	Operatsion risklar (qaror xatolari)	O'quvchi motivatsiya sining pasayishi, noto'g'ri o'qitish	Qaror qabul qilish kompetensiyasi, vaziyat tahlili	A.N. Leontev [9], S.L. Rubinshteyn [9]
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv	Shaxsning individual xususiyatlari, ehtiyojlari, motivatsiyasi	Individual risklar	Stress, muvaffaqiyatsizlik, shaxsiy qoniqmaslik	Shaxsiy maslahat, psixologik qo'llab-quvvatlash	K. Rogers [10], Sh.A. Amonashvili [11]
Psixologik yondashuv	Emotsional zo'riqish, motivatsiyaning pasayishi; psixologik resurslar	Psixologik risklar	Burnout, pedagogik charchash	Stressni boshqarish, motivatsiya tizimi	J. Atkinson [6], L.I. Antsyferova [12]
Ijtimoiy-pedagogik yondashuv	Jamiyat, oila va ijtimoiy muhit omillari	Ijtimoiy risklar	Ta'limda tengsizlik, resurs yetishmasligi	Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, teng resurs taqsimoti	A.V. Mudrik [13], I.S. Kon [13]
Kompetensiyaviy yondashuv	Pedagogda riskologik kompetensiyani shakllantirish; pedagogik mahoratni rivojlantirish	Kompetensiyaviy risklar	Noto'g'ri qaror qabul qilish, amaliy natijalar pastligi	Pedagogik treninglar, malaka oshirish	I.A. Zimnyaya [14], A.V. Xutorskoy [15]

Xulosa. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogik riskologiya turli ilmiy yondashuvlarga tayanadi va ularni integrallashgan holda qo'llash ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beradi. Pedagogik risklarni ilmiy asosda baholash va boshqarish pedagogik mahoratning muhim tarkibiy

qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, pedagogik risklarni tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan va ijtimoiy-pedagogik yondashuvlar orqali baholash nafaqat xavf-xatarlarni kamaytiradi, balki pedagogning kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Корнилова Т.В. Психология риска. – М.: Аспект Пресс, 2003. – 312 с.
- Качанова Е.Н. Риск в образовании: теоретические и практические аспекты. – М., 2006. – 184 с.
- Knight F.H. Risk, uncertainty and profit. – Boston: Houghton Mifflin Company, 1921. – 381 p.
- Сластёнин В.А. Педагогика: учеб. пособие для студентов высших педагогических учебных заведений. – М.: Академия, 2013. – 576 с.
- Zeer E.F. Psikhologiya professional'nogo razvitiya: ucheb. posobie. – М.: Akademiya, 2014. – 240 s.
- Atkinson J.W. Motivation and risk-taking behavior // Personality and behavior disorders. – N.Y.: Ronald Press, 1964. – P. 359–372.
- Ломов Б.Ф. Системный подход в психологии. – М.: Наука, 1984. – 444 с.
- Беспалько В.П. Педагогическая технология: основы теории и практики. – М.: Педагогика, 1995. – 192 с.
- Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1977. – 304 с.
- Rogers C. Freedom to learn for the 80's. – Columbus: Charles E. Merrill Publishing Company, 1983. – 312 p.
- Амонашвили Ш.А. Гуманистическая педагогика. – М.: Школа жизни, 2000. – 384 с.
- Анцыферова Л.И. Психология личности: новые подходы. – М.: Наука, 1994. – 365 с.
- Мудрик А.В. Социальная педагогика: учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: Академия, 2010. – 240 с.
- Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результативно-целевое основание компетентностного подхода в образовании. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. – 40 с.
- Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования. – М.: Народное образование, 2013. – 288 с.

TILSHUNOSLIK

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK ANTROPOSENTRIK PARADIGMA YO'NALISHI SIFATIDA

Jo'rayeva Bibish Muxsinovna

Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori, Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirishi markazining Buxoro bo'limi rahbari

b.m.jo'rayeva@buxdu.uz

Barnoyeva Samarabonu Uchqun qizi

Annotatsiya: Maqolada lingvokulturologiya til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni o‘rganuvchi fan ekanligi, zamonaviy gumanitar tadqiqotlarning muhim sohasi sifatida tilshunoslik, madaniyatshunoslik va antropologiya doirasida qo‘llanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, antroposentrizm antroposentrik yo‘nalish, mentalitet, paradigma, etnografiya, etnologiya, etnopsixologiya, etnogeografiya.

Аннотация: В статье рассматривается тот факт, что лингвокультурология является наукой, изучающей взаимоотношения языка и культуры, и используется как важное направление современных гуманитарных исследований в рамках лингвистики, культурологии и антропологии.

Ключевые слова: Лингвокультурология, антропоцентризм, антропоцентрическая направленность, менталитет, парадигма, этнография, этнология, этнопсихология, этногеография.

Annotation: The article discusses the fact that linguoculturology is a science that studies the relationship between language and culture, and is used as an important direction of modern humanitarian research within the framework of linguistics, cultural studies and anthropology.

Key words: Linguistic culture, anthropocentrism, anthropocentric orientation, mentality, paradigm, ethnography, ethnology, ethnopsychology, ethnogeography.

Kirish. Lingvokulturologiya til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni o‘rganuvchi fandır. Bu ta’limot tilning madaniy xususiyatlari jamiyatga qanday ta’sir qilishini aks ettirishga qaratilgan. Lingvokulturologiyani antroposentrik yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqadigan yondashuv inson (antropos) bu tadqiqotning markazi ekanligini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan “antroposentrik yo‘nalish”da asosiy e’tibor shaxsga, uning til faoliyati va madaniy amaliyotiga qaratilishini bildiradi. Antroposentrik nuqtayi nazardan qaralganda lingvokulturologiya tilning madaniy g‘oya, qadriyat, me’yor va urf-odatlarning qanday shakllantirishini, shuningdek, madaniy hodisalarning tilda qanday aks etishini o‘rganadi. Bu yondashuvda til nafaqat madaniyatni aks ettiradi, balki uning shakllanishida faol ishtirok etadi, deb taxmin qilinadi. Odamlar dunyo, jamiyat, o‘zlari va boshqalar haqidagi g‘oyalarini yetkazish uchun tildan foydalanadilar. O‘z navbatida, bu lingvistik iboralar va tuzilmalar madaniy me’yorlarga ta’sir qilishi va o‘ziga xos madaniy amaliyotlarni yaratishi mumkin. Shunday qilib, antroposentrik nuqtayi nazardan qaraladigan madaniy tilshunoslik odamlarning til orqali madaniy xususiyatlarni qanday shakllantirishi va uzatishini, madaniy xususiyatlar tilning tuzilishi va funksiyasiga qanday ta’sir qilishini tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. “Lingvokulturologiya” atamasi XX asrning 90-yillarida yuzaga keldi va tilshunoslikning madaniy hamda lingvistik makonida paydo bo‘lgan mustaqil yo‘nalish nomiga aylandi. Lingvokulturologiya fani tilni madaniy hodisa, o‘ziga xos mentalitet va mentalitetning ifodasi sifatida o‘rganadi. Lingvokulturologiya tilshunoslikdagi antroposentrik paradigma mahsuli bo‘lib, u nutqiy xabarlarni qabul qiluvchi va jo‘natuvchi sifatida shaxsni birinchi o‘ringa olib chiqadi. Antroposentrik paradigmada inson tildan tashqarida, til esa insondan tashqarida fikr yuritmaydi. Lingvokulturologiya etnolingvistikaning tubida vujudga kelgan fan bo‘lib, undan sezilarli farq qiladi va uning bir qismi deb hisoblanmaydi. Etnolingvistika doirasida xalqlarning genetik qarindoshligi, ikki tillilik va ko‘p tillilik muammosi hal qilinadi, til va ma‘naviy etnik madaniyat rivojiga ijtimoiy-madaniy omillarning ta‘siri o‘rganiladi. Bu retrospektiv paradigma bo‘lib, ko‘proq qabilalar, millatlar, dialektlarning madaniyati va tilini o‘rganishga qaratilgan. Etnolingvistikadan farqli o‘laroq lingvokulturologiya etnik guruhlarining global aloqasi va madaniyatlararo muloqotning rivojlanishi sharoitida til va madaniyatning sinxron muhitda o‘zaro ta‘sirini o‘rganishga qaratilgan istiqbolli paradigma sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Etnolingvistika va lingvokulturologiya bir-biridan metodologik asosi bilan ham farq qiladi. Etnolingvistika etnografiya, etnologiya, etnopsixologiya va etnogeografiya tamoyillari va usullariga asoslanadi, lingvokulturologiya esa madaniyatshunoslikda va madaniyatlararo muloqot ta‘limotida o‘zining nazariy asosiga ega. Ularni umumiy obyekt til va madaniyat munosabatlari birlashtiradi. Bu, birinchi navbatda, tilni o‘rgatish uchun zarur bo‘lgan va lingvistik faktlarni chuqurroq empirik o‘rganishni o‘z ichiga olgan amaliy fandır. Lingvokulturologiya integral fan sifatida o‘z ichida bir qancha yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatadi: etnik lingvokulturologiya; diaxronik lingvokulturologiya; qiyosiy lingvokulturologiya; sinxron lingvokulturologiya; lingvistik va madaniy leksikografiya; umumiy lingvokulturologiya va boshqalar.

Etnik madaniyatshunoslik alohida ijtimoiy guruhning (qabilaning, millatning) u yoki bu mavjudlik davridagi tili va madaniyati xususiyatlarini o‘rganadi. V.A.Maslovaning ta‘kidicha, “Diachronik lingvokulturologiya til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlarning rivojlanish bosqichlarini tarixiy jihatdan o‘rganishga qaratilgan. Qiyosiy lingvokulturologiya genetik jihatdan bog‘liq etnik guruhlar tillarida madaniyat aks etishining umumiy o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. Qiyosiy lingvokulturologiyada genetik jihatdan bog‘liq bo‘lmagan xalqlarning lingvistik o‘ziga xosligi tadqiq etiladi. Sinxron lingvokulturologiya zamonaviy davlatdagi til va madaniyatning o‘zaro ta‘sirini tarixiy va etimologik jihatlarsiz o‘rganadi. Lingvomadaniy leksikografiya madaniyatshunoslik, lingvokulturologiya va mintaqashunoslikka oid lug‘atlar tuzish bilan shug‘ullanadi. Umumiy lingvokulturologiya fan tarixi va nazariyasini,

uning tamoyillari, kategoriyalari va usullarini belgilaydi. Lingvokulturologiya fanining predmetiga: 1) etnik guruh yoki etnik guruhlar hayoti, ruhiyati va madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi va boshqa til hamda madaniyatlarda ekvivalentiga ega bo'lmagan so'z va iboralar; 2) mifologiklashgan lingvistik birliklar: tilda mustahkamlangan arxetiplar, mifologemalar, marosim va e'tiqodlar, marosim va urf-odatlar; 3) etnosning ko'p asrlik tajribasini aks ettiruvchi tilning paremiologik fondi; 4) tilning frazeologik birliklari; 5) standartlar, stereotiplar, belgilar, nutq formulalari; 6) tilning metafora va obrazlari; 7) tillarning stilistik tuzilishi; 8) nutqiy xulq-atvor; 9) nutq odobi singarilar kiritiladi.

Shunday qilib, lingvokulturologiya lingvistik shaklda ifodalangan etnik guruh, etnik guruhlar jamlanmasi va butun insoniyatning moddiy hamda ma'naviy madaniyatini o'rganadigan gumanitar fan sifatida faoliyat ko'rsatadi. Aynan shu xususiyat tilning asosiy vazifalaridan biri – madaniyatni yaratish, rivojlantirish, saqlash va yetkazish vositasi bo'lish holati qanday amalga oshirilishini aniqlash va tushuntirish imkonini beradi.

Natijalar. Zamonaviy antroposentrik yondashuvning kelib chiqishi XX asrning 50-yillariga to'g'ri keladi, tilshunoslik nazariyasida antroposentrizm bugungi kunda eng muhim ilmiy postulat sifatida tan olingan. Antroposentrizm – insonning dunyodagi markaziy mavqeyiga asoslangan, qadriyat, ahamiyat va ma'no nuqtayi nazaridan qaraladigan falsafiy, madaniy tushuncha bo'lib; inson hamma narsaning asosi va mezoni ekanligini, tabiat va dunyoning boshqa tomonlari ham insonga nisbatan qadriyat va mazmunga ega ekanligini anglatadi.

Ushbu konsepsiya turli sohalarda, jumladan falsafa, madaniyatshunoslik, ekologiya va tilshunoslikda qo'llanilishi mumkin. Masalan, tilshunoslikda antroposentrizm tilda insonning rolini birinchi planga olib chiqadi. So'nggi o'n yilliklarda "antroposentrizm" atamasi tez-tez ishlatib kelinmoqda, bu inson faoliyati yer ekotizimlari va iqlimiga ta'sir qiluvchi hal qiluvchi omilga aylangan davrni anglatadi. Madaniy tilshunoslikda antroposentrizm til va madaniyat o'rtasidagi yaqin munosabatni aks ettiradi, til tizimi va madaniy kontekstda insonning markaziy roliga e'tibor qaratadi. Bu yondashuv til va madaniyatning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini va uni bir-biridan alohida o'rganib bo'lmazligini nazarda tutadi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida til ikki paradigma, ya'ni markazlashgan tuzilma va antroposentrik yo'nalishda o'rganildi. Zamonaviy tilshunoslikda tillarni o'rganishda antroposentrik paradigma ustuvor ahamiyatga ega. Bunda tadqiqotchining qiziqishlari bilish obyektidan subyektga o'tkaziladi, ya'ni tildagi shaxs va shaxsdagi til tahlilga tortiladi. Hozirgi bosqichdagi til to'g'risidagi antroposentrik yondashuv tildagi inson omili muammosiga qiziqish bilan birlashtirilgan qator xilma-xil ilmiy yo'nalish va maktablar, lingvistik ta'limot va konsepsiyalarning shartli umumlashtiruvchi nomidir. Ayni shu munosabat antropologik

lingvistikaning obyekti hisoblanadi. Antroposentrizm (yunon tilidan antropos – inson va lotin tilidan centrum – markaz) – tabiat, jamiyat haqidagi har qanday bilimda va bilimning oʻzida insoniy oʻlchov mavjudligini tasdiqlovchi antropomorfizmning keskin shakli, bilish koʻrsatkichidir. Antroposentrizm tushunchasini Protagor oʻzining mashhur “Inson barcha narsaning oʻlchovidir” formulasida yaqqol taʼriflab bergan. Antroposentrik yoʻnalishning konsepsiyalarida erkin tanlov va masʼuliyatli harakat subyekti sifatida shaxsning mustaqilligi taʼkidlab oʻtilgan. Antroposentrik paradigma nuqtayi nazaridan inson oʻzini anglash barobarida, shuningdek, ilmiy va amaliy faoliyati orqali dunyoni oʻrganadi. Yangi ilmiy paradigmani shakllantirish jarayonida quyidagi tezis eʼlon qilindi: “Dunyo – bu narsalar emas, balki dalillar majmuyidir”[5]. Til asta-sekin dalilga, voqeaga qayta yoʻnaltirildi va soʻzlovchining shaxsiyati diqqat markaziga aylandi. Ushbu paradigma til tadqiqining yangi ifoda va maqsadlarini, yangi muhim tushuncha va uslublarni nazarda tutadi. Antroposentrik paradigmada lingvistik tadqiq mavzulari ham, ularni oʻrganish usullari ham oʻzgardi, tadqiqotning umumiy tamoyillari va usullarini tanlashga yondashuv ham oʻzgacha tus oldi, lingvistik tavsifning bir qator raqobatdosh metatillari paydo boʻldi.

Til shaxslar oʻrtasidagi muloqot vositasi, madaniyat esa jamiyat taraqqiyotining maʼlum darajasidir. Til madaniyatni asraydi, uni avloddan avlodga yetkazadi. Shu gʻoya asosida lingvomadaniyatshunoslik fani vujudga keldi.

Muhokama. Lingvomadaniyatshunoslik — XX asrning 90-yillarida shakllangan til va madaniyat oʻrtasidagi munosabatni oʻrganuvchi lingvistikaning mustaqil yoʻnalishi. Maʼlumki, til va madaniyat oʻrtasidagi munosabat muammosi tilshunoslikda uzoq vaqt davomida oʻrganilib kelinmoqda va turli yoʻnalishlarda tadqiq qilinmoqda. Ushbu muammo yechimining dastlabki urinishlari V.Gumboldt asarlarida oʻz aksini topgan. Uning taʼkidlashicha, konsepsiyaning asosiy qoidalari quyidagilar:

1. Moddiy va maʼnaviy madaniyat tilda mujassamlashgan.
2. Har qanday madaniyat milliydir, uning milliy tabiati dunyoga munosabatda reallashadi; til har bir xalqqa xos ichki shakllarga ega.
3. Tilning ichki shakli “xalq ruhi”, uning madaniyati ifodasidir.
4. Til inson va uning atrofidagi dunyo bilan aloqasidir.

Hatto bir xil tilni bilgan holda odamlar bir-birlarini har doim ham toʻgʻri tushuna olmaydilar va buning sababi, koʻpincha, ular tegishli boʻlgan madaniyatlarning farqidadir.

Inson nutqi soʻz va jumalardan iborat boʻlib, ularsiz muloqot qilish “mumkin, lekin bunday muloqot ham qiyin, ham soddadir”[3]. Soʻz va mulohazalar odamlarni muloqot orqali birlashtiradi. Muloqotsiz jamiyat mavjud emas, jamiyatsiz esa na ijtimoiy, na madaniyatli, na

idrokli inson mavjud. «Til – xalqning barcha soʻzlari va ularning toʻgʻri birikmasi, oʻz fikrlarini yetkazish majmuyidir»[2]. Til–bu insoniyat jamiyatida tartibsiz paydo boʻlgan va rivojlanayotgan, muloqot maqsadlarida xizmat qiladigan va insonning dunyo haqidagi bilimlari va tasavvurlari yigʻindisini ifodalashga qodir boʻlgan diskret (tushunarli) tovush belgilari tizimidir[3]. Turli davr, mamlakat va maktab vakillarining til taʼriflari asosiy gʻoyada birlashadi: til bu aloqa, fikrlarni ifodalash vositasidir. Til inson qadriyatlari, ideallari va munosabatlarini, odamlarning olam hamda bu dunyodagi hayoti haqidagi fikrlarini aks ettiradi va shakllantiradi. Tilning eng muhim vazifasi bu madaniyatni asrab, uni avloddan avlodga yetkazishdir. Ayni shuning uchun ham til shaxs, milliy xarakter, etnik jamoa hamda millatni shakllantirishda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Maʼlumki, turli tillarda moddiy madaniyat obyektlarini (masalan, oziq-ovqat, ichimliklar) belgilash uchun maxsus atamalar mavjud. Bunday atamalarning mavjudligi maʼlum bir madaniyatga xos boʻlgan maxsus odatlar, qadriyatlar tizimining xususiyatlari bilan bogʻliq. *Madaniyat* soʻzi lotincha “Colere” soʻzidan kelib chiqqan, “oʻstirish, tarbiyalash, rivojlantirish, qadrlash, sigʻinish degan maʼnoni anglatadi. XVIII asrdan boshlab madaniyat inson faoliyati, uning maqsadli mulohazalari tufayli paydo boʻlgan barcha jihatlariga eʼtibor qarata boshladi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan esa bu soʻz ilmiy atama sifatida qoʻllanila boshlandi. *Madaniyat* atamasi koʻp maʼnoli boʻlib, Katta ensiklopedik lugʻatda quyidagi taʼrif beriladi: Madaniyat – bu jamiyat, odamlar hayoti va faoliyatini tashkil etishning turlari va shakllarida, ularning munosabatlarida, shuningdek, ular tomonidan yaratilgan moddiy va maʼnaviy qadriyatlarda ifodalangan shaxsning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari taraqqiyotining tarixan belgilangan darajasidir[1]. Bu oʻrinda A.Vejbitskaya G.Klifford tomonidan berilgan taʼrifga amal qiladi: Madaniyat – bu ramzlarda mujassamlangan maʼnolarning tarixan uzatiladigan namunasi, ramzlar koʻrinishida ifodalangan irsiy tasvirlar tizimi, ular yordamida odamlar bir-biri bilan muloqot qilishadi hamda hayot haqidagi bilimlari va hayotiy tafakkurlari mustahkamlanadi, rivojlanadi[4]. Ushbu taʼrifdan kelib chiqadiki, odamlar muloqot qiladigan belgilar tildir. Yaʼni madaniyat tilda mujassamlashgan maʼnolarning tarixan uzatilgan namunasidir. Til madaniyat haqiqiylikining eng yaxshi isboti hisoblanadi. Til va madaniyat oʻrtasidagi munosabatni koʻrib chiqqanda ularning yaqin oʻzaro munosabati yaqqol namoyon boʻladi: 1. Til va madaniyat insonning dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shakllaridir. 2. Madaniyat va til bir-biri bilan muloqotda mavjud (shaxs madaniyat va tilning subyekti boʻlganligi sababli shaxslar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir vositasi til, til esa madaniyatni avloddan avlodga oʻtkazish vositasi boʻlishi mumkin boʻlsa, u holda madaniyat va til oʻrtasida muloqot yoki maʼlumot uzatish borligini aytishimiz mumkin). 3. Madaniyat va til subyekti – shaxs. 4.

Me'yoriylik – til va madaniyat uchun umumiy xususiyat. 5. Madaniyat va tilning muhim xususiyatlaridan biri bu tarixiylikdir.

Yuqoridagilarni hisobga olib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: insonning til qobiliyatini shakllantirishda, ijtimoiy shaxsning barkamollashuvida, ya'ni muloqot jarayonida til va madaniyat o'zaro bog'liq. Umumiy xususiyatlar bilan bir qatorda til va madaniyatda farqlar ham mavjud:

1. “Tilda fenomendagi kabi ommaviy adresatga e'tibor ustunlik qiladi, madaniyatda esa elitarlik qadrlanadi”[6].Tildan muloqot vositasi sifatida jamiyatning turli qatlamlari foydalanishi mumkin. Ammo jamiyatda alohida qatlam – muhim ijtimoiy va madaniy vazifalarni bajaradigan yuqori qatlam yoki elita mavjud.

2. Madaniyat shunday belgilar tizimiki, u o'zini mustaqil ravishda tashkil qila olmaydi¹.

3. Til va madaniyat turli xil belgilar tizimlaridir.

Yuqoridagi farqlar madaniyatning tilga mos kelishi haqida umumiy xulosaga kelish uchun imkon beradi. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar murakkab manzara bo'lib, uning turli tomonlarini yoritish uchun bir nechta yondashuvlar ilgari surilgan:

Birinchi yondashuv S.A. Atanovskiy, G.A. Brutyan, E.I. Kukushkin, E.S. Markaryan kabi faylasuf olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Bu yondashuvning mohiyati shundan iboratki, til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar bir yo'nalishdagi harakat hisoblanadi. Til voqelikni aks ettirganligi, madaniyat esa bu voqelikning ajralmas tarkibiy qismi bo'lganligi sababli til madaniyatning oddiy aksidir. Voqelikdagi o'zgarishlar tildagi o'zgarishlarga olib keladi.

Ikkinchi yondashuv V.Gumboldt, A.A. Potebnya tomonidan taklif qilingan. Ushbu yondashuvning mohiyati shundaki, til bizni o'rab turgan, biz undan tashqarida va uning ishtirokisiz yashay olmaydigan muhitdir. Binobarin, “bizning yashash muhitimiz bo'lgan til bizdan tashqarida obyektiv borliq sifatida mavjud emas, u bizning o'zimizda, ongimizda, xotiramizda; u har bir fikr harakati, har bir yangi ijtimoiy va madaniy roli bilan o'z ko'rinishini o'zgartiradi” [6].

V.A. Maslova til va madaniyat o'rtasidagi munosabat haqidagi munozaralarida yana bir yondashuvni ta'kidlaydi. Olima tilni madaniyat fakti deb hisoblaydi, chunki til: 1. Ajdodlarimizdan meros qilib olingan madaniyatimizning ajralmas qismi. 2. Madaniyatni tashiydigan asosiy vosita...[6] .

Demak, til madaniyatning ajralmas qismi va uning quroli, u “ruhimiz voqeligi, madaniyat qiyofasi; u milliy mafkuraning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Til inson uchun ong sohasini ochgan mexanizmdir” [6].

Til madaniyatning “oynasi” bo‘lib, u nafaqat insonni o‘rab turgan dunyoni, uning hayot sharoitlarini, balki xalqning ijtimoiy o‘zini o‘zi anglashini, uning tafakkuri, milliy xarakteri, turmush tarzi, urf-odatlari, ma’naviyati, qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi, mafkurasini aks ettiradi. Tilni oyna bilan qiyoslash o‘zini oqlaydi: u haqiqatan ham atrofimizdagi dunyoni aks ettiradi. Har bir so‘zning orqasida haqiqiy dunyoning predmeti yoki hodisasi mavjud. Til barcha narsani aks ettiradi: geografiya, iqlim, tarix, yashash sharoitlari va h.k.

Dunyoning tilda aks etishi ushbu tilda so‘zlashuvchi xalqlarning birgalikdagi ijodidir va har bir yangi avlod o‘z ona tili bilan milliy xarakter, dunyoqarash, ma’naviyat va boshqalarni o‘zida mujassam etgan “to‘liq madaniyat majmuasini”ni oladi.

«Biroq, dunyo va til o‘rtasida tafakkur qiluvchi, ona tilida so‘zlashuvchi shaxs turadi»[3].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, til va unda so‘zlashuvchilar o‘rtasida yaqin munosabat va o‘zaro bog‘liqlik mavjudligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Til odamlar o‘rtasidagi muloqot vositasi bo‘lib, undan foydalanadigan nutq jamoasining hayoti va rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Til va real dunyo o‘rtasida inson turadi. Sezgi a‘zolari orqali dunyoni qabul qiluvchi va idrok etuvchi va shu asosda dunyo haqidagi tasavvurlar tizimini vujudga keltiradigan ham shaxsdir. Til insonga dunyoning ma’lum bir qarashini yuklaydi.

Til fikrni ifodalash va uni odamdan odamga o‘tkazish usuli sifatida tafakkur bilan chambarchas bog‘liqdir. So‘z voqelik predmetining o‘zini emas, balki u ona tilida so‘zlovchiga uning ongida ushbu predmet g‘oyasi bilan yuklangan ko‘rinishini aks ettiradi.

Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o‘rtasida yuzaga kelgan umumlashma yo‘nalish bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro ta’siri va bog‘liqligi, bu bog‘liqlikning shakllanishi, takomili, taraqqiyoti bilan shug‘ullanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Большой энциклопедический словарь / гл. ред. А. М. Прохоров. – М.: Сов. энцикл., 1993
2. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка: Современное написание: в 2 т. – М.: Астрель: АСТ, 2001. – Т. 4. – 1144 с.
3. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово, 2000. – 624. – С. 8.

4. Вежбицкая А. Понимание культур через посредство ключевых слов. – М.: Языки славянской культуры, 2001. – 288.– С. 44.
5. Витгенштейн Л. Философские исследования // Витгенштейн Л. Философские работы. Ч. I. / пер. с нем. М. С. Козловой и Ю. А. Асеева; сост., вступ. статья, примеч. М. С. Козловой.– М.: Гнозис, 1994.
6. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: «Академия», 2001. –208.– С.60.

O‘ZBEK TILIDAGI ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLARNING NAZARIY ASOSLARI

Teshaboyev Dilmurod Raxmadjonovich

Farg‘ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
dteshaboyevphd@gmail.com + 998916690240

Annotatsiya. Ushbu maqolada til sintaktik qurilishida anchayin keng va mazmuniy-sintaktik tuzilishining o‘ziga xosligi bilan boshqa sintaktik birliklardan ajralib turuvchi, uzoq yillar mobaynida tadqiq etib kelinayotgan masalalardan biri bo‘lgan qo‘shma gaplar, xususan, ergash gapli qo‘shma gaplarga doir nazariy ma’lumotlar berilgan, shuningdek, ularga xos lisoniy masalalarni turli aspektda o‘rganishning lingvistik omillarini belgilash orqali mazkur muammo doirasidagi yangi qirralarni kashf etish bo‘yicha ilmiy qarashlar va xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: sintaktik butunlik, sodda gap, qo‘shma gap, ergash gapli qo‘shma gap, predikativ birlik, ergash predikativ birlik, bosh predikativ birlik, valentlik nazariyasi, gap bo‘laklari, havola bo‘lak, havola bo‘laksiz bosh gaplar, havola bo‘lakli bosh gaplar.

Аннотация. В данной статье представлена информация о сложных предложениях, которые являются одним из вопросов, изучаемых на протяжении многих лет, которые отличаются от других синтаксических единиц широтой и специфичностью семантико-синтаксической структуры языка, в частности, теоретическая информация о сложных предложениях, а также способ совершенствования лингвистической модели изучения языковых проблем в различных аспектах.

Ключевые слова: синтаксическое целое, простое предложение, сложное предложение, сложное предложение с придаточным, предикативная единица, предикативная единица, основная предикативная единица, теория валентности, части предложения, придаточные предложения с отсылочным членом, придаточные предложения без отсылочного члена.

Annotation. This article provides information about compound sentences, which are one of the issues studied over many years, which differ from other syntactic units in the breadth and specificity of the semantic-syntactic structure of the language, in particular, theoretical information about compound sentences, as well as the method of improving the linguistic model of studying language problems in various aspects.

Key words: syntactic whole, simple sentence, compound sentence, compound sentence with a suffix, predicative unit, predicative unit, main predicative unit, valence theory, sentence parts, sentences with a suffix member, sentences without a suffix member.

Kirish. Intonatsion belgilari bilan sintaksisning alohida ajralib turuvchi, mazmuniy mundarijasining kengligi bilan sodda gaplardan farqlanuvchi sintaktik butunlik sifatida qo'shma gaplar til sintaktik sathining birligi hisoblanadi.

O'zbek tili qo'shma gap sintaksisining ko'pgina bahs-munozaralarga sabab bo'luvchi masalalaridan biri bu ergash gapli qo'shma gaplar masalasidir. Oborotlar, kengaygan birikmalar va ergash predikativ birliklar chegarasining aniq belgilab qo'yilmaganligi, ergash predikativ birlikni bosh predikativ birlikka bog'lovchi so'z shakllarining asosiy rol o'ynashi, ergash predikativ birliklarni tasniflashdagi tamoyillarning aniq belgilanmaganligi, ergash predikativ birliklar tabiatini yoritishda shu tilning o'ziga xos spetsifik xususiyatlaridan kelib chiqilmay, boshqa til oilalariga xos bo'lgan xususiyatlar asosida tavsiflanganligi yoki rus tilidagi tarjimalarga tayangan holda, ergash predikativ birliklarni aniqlash ergash gapli qo'shma gaplar muammosini hal qilishda ayrim chalkashliklarga olib kelgan deyish mumkin.

An'anaviy tilshunoslikda yaratilgan sintaksisga oid qo'shma gap va uning tarkibiy xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarning ahamiyati benihoya kattadir. Mazkur ishlardagi ilmiy asoslangan g'oyalar bugungi tilshunoslikda qo'shma gap tabiati va uning mazmuniy-tarkibiy xususiyatlariga doir yangicha qarashlarning paydo bo'lishi uchun mustahkam zamin hozirlaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Qo'shma gap va ergash gapli qo'shma gaplar uzoq yillar davomida tilshunoslarning e'tiborida bo'lgan masalalardan biri sanaladi. Xususan, bu masala jahon tilshunosligida Sh.Balli, A.M.Peshkovskiy, I.N.Yegorova, N.N.Ilina, E.V.Paducheva, V.A.Kornilov, G.F.Gavrilov, V.A.Beloshapkova, O.I.Moskalskaya, M.I.Chemisina, O.K.Vasileva-Shvede, G.V.Stepanov, A.N.Baskakov, S.I.Shutova, E.N.Shiryayev, A.Z.Abdullayev, A.G.Djavodov, V.B.Kasevich [7, 8, 15, 16, 19, 24, 25] kabi tilshunoslar tomonidan yoritilgan.

Qo'shma gap nazariyalarini o'rganishning dastlabki bosqichi o'zbek tilida, umuman, turkiyshunoslikda, asosan, rus tilshunosligida shakllangan qo'shma gap nazariyalari asosida yaratilgan. O'zbek tilidagi ergash gapli qo'shma gaplar tasnifi boshqa tillardagi ergash gaplarning tasnifiga o'xshash yoki yaqin bo'lib, "turkiy tillardagi, shuningdek, boshqa tillardagi ergash gap turlari sodda gap nazariyasi bilan uzviy bog'langan"dir [8]. Sodda gaplardagi muayyan bo'laklar bilan ergash gaplarni nisbatlash juda uzoq an'anaga ega [19]. Masalan, ispan

tilshunosligida ergash gaplarning vazifasi soʻz turkumlarining sodda gaplardagi vazifasi bilan taqqoslanadi, yaʼni oʻxshashlikka asoslanadi[11].

V.A.Beloshapkovaning taʼkidlashicha, F.I.Buslayev asos solgan tasnif XIX asr oʻrtalarida rus tilshunosligida keng tarqalgan. Tasnif ergash gapli qoʻshma gaplarni sodda gaplarga, ergash gaplarni esa sodda gap boʻlaklariga oʻxshatishga asoslangan. Bu tasnifga koʻra ega, kesim, aniqlovchi, toʻldiruvchi va hol kabi ergash gaplarning turlari belgilangan. Oʻrin, tarz, darajamiqdor, payt, sabab, maqsad, shart va toʻsiqsiz ergash gaplar esa hol ergash gaplarning koʻrinishlari sifatida tasniflangan.

N.S.Pospelovning tadqiqi ergash gaplar tasnifi masalasida shakliy-mazmuniy tasnif yaratilishida muhim rol oʻynadi. U ergash gapli qoʻshma gaplarning bir aʼzoli va ikki aʼzoli turlarini ajratdi. N.S.Pospelov bir aʼzoli va ikki aʼzoli gaplar oʻrtasidagi farqni bosh va ergash gaplar oʻrtasidagi bogʻliqlikning turli tabiati bilan izohladi. Bir aʼzoli gaplarda ergash gap bosh gapdagi biror boʻlakni aniqlashtiradi, yaʼni ergash predikativ birlik bosh predikativ birlikdagi bir soʻzgagina taalluqli. Ikki aʼzoli gaplarda esa ergash gap bosh gap bilan yaxlitligicha bogʻlanadi. V.A.Beloshapkova bir aʼzoli va ikki aʼzoli gaplarni “boʻlaklangan” va “boʻlaklanmagan” gaplarga ajratadi. V.A.Beloshapkova va N.S.Pospelovlarning ergash gaplar masalasidagi talqinlarida, deyarli, farq yoʻq.

Turkiyshunoslikda ham N.S.Pospelovning qarashlari, yaʼni ergash predikativ birliklarning bosh predikativ birlikni toʻliqligicha izohlashi yoki uning biror boʻlagini aniqlashi bilan aloqador boʻlishi haqidagi fikrlar keng tarqalgan. Masalan, M.A.Asqarova mazmun va strukturasiga koʻra, ergash predikativ birlikning tuzilishi bosh predikativ birlikdan farqlanishi va bosh predikativ birlikning biror boʻlagini yoki bosh predikativ birlikni butunicha izohlashini taʼkidlab oʻtadi [6]. Yuqoridagi tasnif asosida A.Z.Abdullayev va A.G.Javadovlar ozarbayjon tilidagi ergash gapli qoʻshma gaplarni ikki mazmuniy-sintaktik guruhga ajratishni tavsiya qiladilar. Ular bosh predikativ birlikdagi biror boʻlakni izohlaydigan ergash gapli qoʻshma gaplarning bir mazmuniy yadroga ega boʻlishini, bosh predikativ birlikni butunicha izohlaydigan ergash gapli qoʻshma gaplar esa ikki mazmuniy yadroga ega boʻlishini taʼkidlaydilar [1].

M.I.Cheremisina va T.A.Kolosovalar ergash gapli qoʻshma gap komponentlari va gap boʻlaklarining vazifalari oʻzaro oʻxshash ekanligini inkor eta olmaydilar. Ularning fikricha, ega, kesim, toʻldiruvchi, aniqlovchi va holning vazifalari sodda gapda soʻz shakli, soʻz birikmalari orqali yuzaga chiqadi. Bu vazifalar predikativ birliklar orqali bajarilsa, qoʻshma gapga aylanadi [30].

Tilda har qanday gap muayyan sintaktik oʻrinlar tizimidan iboratdir. Sodda gap va qoʻshma gaplardagi sintaktik boʻshliqlar bir-biridan farqlanmaydi, aksincha, ular bu jihati bilan

bir umumiylikni tashkil etadi. I.N.Yegorova ham sodda gap va ergash gapli qo'shma gaplar o'rtasida funksional muvofiqlik mavjudligini sintaktik bo'shliqning gap bo'lagi yoki predikativ birlik orqali berkilishi bilan asoslaydi [15].

Natija va muhokama. Ergash gapning mohiyati va qo'llanishini ta'minlashda bosh gapning kesimi vazifasidagi so'zning ma'nosi va valentligi muhim sanaladi [12]. Predikat valentligi hisobiga yuzaga keladigan sintaktik bo'shliq ba'zan predikatning mazmuniy imkoniyatidan kelib chiqib, tobe predikativ birlik tomonidan ham egallanishi mumkin. Aksincha, sintaktik o'rin tobe predikativ birlik tomonidan egallanmasa, ergash gapli qo'shma gap tarkib topmaydi. Shuning uchun ayrim tilshunoslar ergash gapli qo'shma gap tarkibini belgilashda valentlik nazariyasidan foydalanadilar. Ergash gapli qo'shma gaplarning semantik xususiyatlarini o'rganishda ba'zan valentlik nazariyasiga murojaat qilish ham maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, shuni aytish mumkinki, gap bo'laklarining vazifalaridan andoza olgan holda, ergash gapli qo'shma gaplarni tasniflash maqbulroqdir, chunki sintaktik o'rinlar tizimi nuqtayi nazaridan, ergash gapli qo'shma gaplar sodda gaplardan, deyarli, farqlanmaydi. Gapning grammatik asosi ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gap hisoblanadi. Ergash gap esa bosh gap tarkibidagi muayyan bir bo'lakni izohlaydigan gap maqomida bo'ladi [23].

O'tgan asrning 50-60-yillarida o'zbek tili sintaksisini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Grammatik bog'lanish natijasida yuzaga chiquvchi sintaktik birlik hisoblangan gaplar "predikativ aloqa"ning miqdoriy belgisiga ko'ra sodda va qo'shma gaplarga ajratildi.

O'zbek tilshunosligida qo'shma gap sintaksisining asosiy masalalariga doir monografik ishlar o'tgan asrning 50-yillaridan maydonga kela boshladi. Bu an'anaviy tadqiqotlarda sintaktik butunlikning eng yuqori shakli bo'lgan qo'shma gaplarning umumiy xususiyatlari, ularning asosiy turlari va tarkibiy qismlarining yoritilishi yetakchilik qiladi.

Qurilish materialii monopredikativ birliklar bo'lgan qo'shma gaplarga doir masalalarning hal qilinishida rus tilshunosligi va turkologiyaga doir materiallar asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

O'zbek tilshunosligida qo'shma gaplarni o'rganish dastlab H.G'oziyev, A.Ma'rufov, F.Kamol, M.Asqarova, G'.Abdurahmonov, H.Rustamov kabilar tomonidan 40-60-yillarda tadqiq etildi [2, 5, 6, 14, 17, 22, 26]. Keyinchalik B.Berdialiyev, A.Mamajonov, N.Mahmudov, N.Turniyozov, R.Sayfullayevalar tomonidan davom ettirildi [9, 10, 20, 21, 27, 29].

Qo'shma gaplar tadqiqida M.Asqarova, G'.Abdurahmonov, A.Berdialiyevlar va ularning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega [2, 4, 5, 9]. Shuni ta'kidlash kerakki, olib borilgan lingvistik tadqiqotlar soha rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilgan.

Sodda gaplardan farqlanib turuvchi sintaktik butunlik bo'lgan qo'shma gaplar tadqiqi tilshunos olim A.Mamajonov tomonidan ham tadqiq etilgan bo'lib, olim o'zining "Qo'shma gap stilistikasi" nomli monografiyasida ergash gapli qo'shma gaplar haqida fikr yuritir ekan, havola bo'laklar bilan hosil qilinadigan ergash gapli qo'shma gaplarga ham to'xtalib o'tadi [20].

Boshqa tilshunosliklarda bo'lgani kabi, o'zbek tilshunosligida ham ergash gapli qo'shma gaplar haqidagi munozaralar ko'pdan beri davom etib kelmoqda.

Ergash gapli qo'shma gaplarni tasniflashda faqat ergash predikativ birlikka emas, balki bosh predikativ birlikka ham e'tibor berish lozim. Bu jihatdan bosh predikativ birliklar ham ikki turga bo'linadi: 1) havola bo'laksiz bosh gaplar, 2) havola bo'lakli bosh gaplar [23].

Ergash gapli qo'shma gaplar grammatik va ohang butunligiga ega bo'lgan, mazmunan nisbiy mustaqil monopredikativ birliklardan tashkil topgan sintaktik qurilmadir.

Ergash gapli qo'shma gaplarni tashkil etuvchi qismlarda predikativlik munosabati bo'lishi shart, ular ergash va bosh predikativ birlik bo'lishidan qat'iy nazar, bir-birini to'ldiradi, izohlaydi, aniqlaydi va mazmunan bir-biriga bog'langan bo'ladi.

Shuni ta'kidlash joizki, o'zbek tilida ergash gapli qo'shma gaplarning struktural-semantik tadqiqi masalalariga doir ayrim mulohazalar H.Rustamov, E.Azlarov, A.Ahmedov, A.Hojiyev, A.Matg'oziyev, M.Rahmonov, A.Sultonov, A.Mamajonov, H.Nazarova, M.Mirtojiyev, N.Yoqubova, H.Yo'ldasheva, B.To'ychiboyev, S.Solixo'jayeva, M.Abdullayev, R.Sayfullayeva, D.Shodmonqulova, R.Abdusamotov, L.Raupova, I.Toshev, I.O'sarov, S.Boymirzayeva, N.Umarova, N.Turniyozov, I.Azimov, M.Xolboyeva, M.Rahmatov, O.Tojiyev, M.Saparniyozova, A.Musayev, G.Umrzaqova, D.Aytboyevlar tomonidan tahlilga tortilgan, lekin o'zbek tili ergash gaplarining yagona va mukammal tasnifi masalalari hali hamon muammoli, shu bilan birga, dolzarbligicha qolmoqda.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, til sintaktik sathining birligi sanalgan qo'shma gaplar mazmuniy-sintaktik tuzilishining o'ziga xos va murakkabligi, mazmun sig'iminining kattaligi bilan sodda gaplardan farqlanib turuvchi til birligi sanaladi. Ta'kidlash joizki, tilshunoslar diqqatini jalb etib kelayotgan qo'shma gaplar mavzusi har tomonlama tadqiq qilingan bo'lsa-da, bu mavzuga doir muammolar haligacha to'liq va atroflicha hal etilmagan.

Jahon va o'zbek tilshunosligida ergash gapli qo'shma gaplar bir-biriga o'xshamagan yondashuv va talqinlar bo'yicha tasniflanadi. Bu xilma-xil qarashlarning mavjudligi ergash gapli qo'shma gaplarning tasniflanishiga, ularning tabiatiga ham ishora qiladi.

Umuman olganda, qo'shma gaplar tadqiqi bilan aloqador muammolar talaygina. Bu masalalar hozirgi kunda o'zbek tili sintaksisi oldida turgan va atroflicha o'rganishni taqozo etuvchi muammolar sirasiga kiradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Абдуллаев А.З., Джавадов А.Г. О семантическом ядре азербайджанского сложноподчиненного предложения. Советская тюркология, 1987.
2. Абдурахмонов Ғ.А. Қўшма гап синтаксиси асослари. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1958.
3. Адмони В.Г. Грамматический строй как система построения и общая теория грамматики. – Л.: Наука, 1988.
4. Аскарова М.А. Способы подчинения и типы придаточных предложений в современном узбекском языке. АДД. – Ташкент, 1963;
5. Аскарова М. Ўзбек тилида эргашиш формалари ва эргаш гаплар. –Т.: Фан, 1966.
6. Аскарова М. Ҳозирги замон ўзбек тили ва қўшма гаплар. – Тошкент, 1960.
7. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – М.: 1955.
8. Баскаков А.Н. Предложение в современном турецком языке. – М.: Наука, 1984.
9. Бердиалиев А. Семантико-сигнификативная парадигматика и синтагматические отношение в конструкциях сложноподчиненного предложение узбекского литературного языка. АДД. – Ташкент, 1989;
10. Бердиалиев А. Ўзбек тилида омоним модели эргаш гапли қўшма гаплар. – Тошкент: Фан, 1990.
11. Васильева-Шведе О.К., Степанов Г.В. Теоретическая грамматика испанского языка. Синтаксис предложения. – М.: Высшая школа, 1981.
12. Гаврилов Г.Ф. Об изоморфизме сложно-подчиненного предложения и словосочетания. – В кн.: Подчинение в полипредикативных конструкциях. – Новосибирск: Наука, 1980.
13. Гак В.Г. О категориях модуса предложения – В сб.: Предложение и текст в семантическом аспекте. – Калинин: 1978.
14. Ғозиев Ҳ. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилидаги қўшма гапларнинг состави ҳақида // Ўзбек тили илмий грамматикасидан материаллар. 1941.
15. Егорова И.Н. Позиционные эквиваленты слова в составе предложения. – В кн.: Русский язык. Грамматические исследования. – М.: Наука, 1967.

16. Ильина Н.Н. Об одном способе классификации связей между частями сложного предложения. – В кн., Информационные вопросы семантики, лингвистики и автоматического перевода. – М., 1972.
17. Камол Ф. Қўшма гапларга доир масалалар. – Тошкент.: Ўзфанакадешнашр, 1955.
18. Касевич В.Б. Семантик. Ситаксис. Морфология. – М.: Наука, 1988.
19. Корнилов В.А. К проблеме изоморфизма сложно-подчиненного предложения и подчинительного словосочетания. – В кн.: Подчинение в полипредикативных конструкциях. – Новосибирск: Наука, 1980.
20. Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент, 1990.
21. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент, 1995.
22. Маъруфов А. Ҳозирги замон ўзбек тилида пайт эргаш гаплар. Дис. фил.фан.ном. – Тошкент, 1949.
23. Нурмонов А., Махмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаев С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992.
24. Падучева Е.В. О семантике синтаксиса. Материалы трансформационной грамматике русского языка. – М., 1974.
25. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. 7-е изд. – М.: Учпедгиз, 1956.
26. Рустамов Х. Ҳозирги замон ўзбек тилида тўлдирувчи эргаш гапли қўшма гаплар. Филол.фан.ном. ... дис. Тошкент, 1960.
27. Сайфуллаева Р.А. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг формал-функционал талқини. – Тошкент: Фан, 1994.
28. Турниёзов Б.Н. Ҳозирги ўзбек тилида тенг компонентли мураккаб синтактик курилмалар деривацияси: Филол. фанлари номзоди. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006.
29. Турниёзов Н.К. Ўзбек ва француз тилларидаги аниқловчи эргаш гаплар. – Тошкент, 1971.
30. Черемисина М.И., Колосова Т.А. Очерки по теории сложного предложения. – Новосибирск: Наука, 1987.

TOHIR MALIK IJODIDA TIBBIY EKSPREMENTLARNING ILMIY-FANTASTIK
TALQINI

Hamdamova Shamshoda Saidaxmad qizi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

universiteti tayanch doktoranti

shamshoda1996@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tohir Malikning ilmiy-fantastik asarlarida bayon etilgan tibbiy tajribalar, boqiy umr va inson umrini uzaytirishga, shuningdek, inson miyasining imkoniyat darajasini kengaytirishga, telepatik ravishda boshqa bir odamning fikrini o'qiy olish qobiliyatini o'stirishga qaratilgan tibbiy va texnologik jarayonlar haqida so'z yuritilgan. Eloloma, TET (Toshkent elektron tibbiyoti), Analizator nomli fantastik qurilmalar esa ushbu farazlarni ro'yobga chiqaruvchi vosita bo'lib xizmat qildirilgan. Biofizika, kibernetika, astronomiya, fiziologiya, kimyo, dorishunoslik, arxeologiya kabi sohalar va shu soha olimlarining tibbiy tajribalardagi ishtiroki adib asarlariga ilmiy-fantastik pafos berganligini kuzatamiz. "Falak" qissasidagi husuf hodisasi ya'ni oy tutilishi paytidagi astronomik hodisalarni tibbiy muolajalarga ta'sir qildirish kabi jo'ngina eksprementi "Devona" qissasida, ayniqsa, "Zaharli g'ubor" asarida EHM va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlikda asr talabidan kelib chiqqan holda davom ettirilganiga guvoh bo'lamiz. "Hikmat afandining o'limi" qissasidagi kimyoviy tajribalar ushbu asarlarda biofizikaviy hamda kibernetik eksperiment shaklida o'z ifodasini topganki, bu ilmiy-fantastikaning sof fantastikadan ajralib turuvchi asosiy jihatlaridan biridir. Adibning ilmiy-fantastik talqinlaridan kelib chiqqan holda uning kashshof sifatidagi qirrasini yoritilgan.

Kalit so'zlar: Geliotibbiy tadqiqotlar, Husuf hodisasi, Analizator qurilmasi, Fantastik asboblari, fantastik unsurlar, telepatik jarayon, elektrod, miya, TET qurilmasi.

Abstract: In this article, the medical experiments described in Tahir Malik's science fiction works, immortal life and human life extension, as well as the ability to read the mind of another person telepathically medical and technological processes aimed at cultivation are discussed. Fantastic devices called Eloloma, TET (Tashkent electronic medicine), Analyzer have been used as a means of realizing these hypotheses. We observe that the participation of scientists in fields such as biophysics, cybernetics, astronomy, physiology, chemistry, pharmacology, archeology and medical experiments in these fields gave a science fiction pathos to literary works. In the short story "Sky" the eclipse event, i.e. the influence of the astronomical events during the lunar eclipse on medical treatments, in the short story "Foolish", especially in the work "Poisonous Dust" comes from the demand of the century in harmony with exposure and modern technologies. The chemical experiments in the story "Hikmat Effendi" are expressed in the form of biophysical and cybernetic experiments, which is one of the main aspects of science fiction, based on the science fiction interpretations of the writer lit.

Key words: Heliomedical research, Husuf phenomenon, Analyzer device, Fantastic devices, fantastic elements, telepathic process, electrode, brain, TET device.

Kirish. Eksprement-u kashfiyotlarning doyasi bo'lmish ilmiy-fantastika kosmos va undagi o'zga sayyoralar, robottehnika-yu kibernetikaga oid farazlar bilan cheklanibgina qolmay, fanning,

insonlar faoliyatining turli jabhalariga oid farazlarni ilgari suradiki bu uning imkoniyat darajasi cheklanmaganligi bilan izohlanadi.

Tohir Malik ilmiy-fantastikaning ana shu cheksiz imkoniyatlaridan foydalanib tibbiy, biofizik, geliotibbiy eksprementlarni ham adabiyot maydoniga olib kirgan. Adibning “Falak”, “Devona”, “Zaharli g’ubor” (Baxtiyor Hoshimxo’jayev bilan hammualiflikdagi) qissalarida buning isbotini ko’rishimiz mumkin. Ko’p hollarda bu eksprementlar zamonaviy fantastik texnologiyalar orqali amalga oshiriladi. Bu kabi tajribalarning oqibatida inson ruhiyatiga ta’sir qilish, telepatiya, ya’ni bironing fikrini o’qiy olish, boqiy umr yoki umrni uzaytirish singari maqsadlar nazarda tutiladi. Professor Ra’no Ibragimovaning: “Odatda yozuvchi yaratayotgan fantastik olamiga, uning realligiga kitobxonni ishontirish uchun ma’lum an’anaviy usullardan foydalanadi. Masalan, voqeani shaxsan o’zi voqif bo’lgandek tasvirlaydi, voqealar yuz berayotgan joylarni aniq ko’rsatadi”, [4, 161] - degan fikrlariga yozuvchi sohaga oid aniq ma’lumotlar va ilmiy dalillarni keltirishini ham ilova qilishimiz mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Adib ilmiy-fantastikasining asosiy qahramonlari shu yo’nalishdagi aksar asarlar singari o’zga sayyoraliklar-u g’ayritabiiy xislatga ega bo’lgan yoki tashqi ta’sirlar yordamida shunday g’ayrioddiylikni o’zlashtirib olgan yerliklar emas, balki, o’zining aqliy salohiyati bilan olamshumul ixtirolar qiladigan olimlar obrazidir. “Falak” qissasidagi biofizik Jahongir Aliyev, geliobiolog Ahmad Zokirovich, Mirzo Ulug’bek davridagi alloma Shamsibek, “Hikmat afandining o’limi” qissasidagi asli o’zbek bo’lgan tehtonlik olim Hikmat afandi, Gruzin akademigi Sheo Pokuchala, “Chorrahada qolgan odamlar” qissasidagi spektroskopik tadqiqotlar orqali Yer sayyorasining mavjudligini aniqlagan tanglik olim Fid, sho’rolar qatag’oniga uchragan meditsina professori Razzoqov, insonning ruhiy sistemasini yaxshilashga qaratilgan TET(Toshkent elektron tibbiyoti) nomli qurilmaning ixtirochisi Dilmurod, “Zaharli g’ubor” qissasidagi o’zi yaratgan Analizator qurilmasi tufayli telepatik qobiliyat va boqiy umr sohibi bo’lgan charlz Long, Magnit maydon kuchlanishlari bo’yicha nazariyotchi fizik Robert Belden, inson umrini uzaytirish va miya imkoniyatlarini oshirish ustida ish olib borayotgan Sharl Gomesku hamda olimlar tilidagi shu sohaning “Qirol” bo’lgan o’zbek olimi Ismoil Umidov, “Somon yo’li elchilari” (ikkinchi nomi “Davron”) qissasidagi arxiolog olimlar Bekmirzayev, davron Hasanov singari turli sohalarda faoliyat yuritadigan kashfiyotchi olimlar shular jumlasidandir. Ular oddiy yerlik inson(tanglik Fiddan tashqari). Ularni umumlashtirib shu bilan birga muallifning boshqa qahramonlaridan farqlab turadigan jihat fantastik voqelikka dahldor ekanliklaridir. Muallif ijodidagi ajralib turuvchi yana bir jihat: fantastik asarning shakllanishida fantastik obraz emas, fantastik unsur yetakchilik qiladi. Xususan, “Falak”da asarga fantastik ruh berayotgan jihat biofizik Jahongir Aliyev emas balki, u

ixtiro qilgan Eloloma va u qurilmaning elektrodini inson miyasiga oʻrnatish orqali hosil qilinadigan telepatik jarayon – boshqa birovning, hatto asrlar avvalgi oʻlik odamning miyasidagi fikrlarni, u yashagan hayotni aniqlay bilganligi chinakam fantastika.

Shu tariqa ikki real jarayon: XX asr olimlarining ilmiy izlanishlari va shaxsiy hayotlari hamda XV asr Mirzo Ulugʻbek davri, Shamsibekning ixtirolarga boy ammo fojeali hayoti oʻtmishga sayohat motivi orqali birlashtirilgan. Bunda Eloloma qurilmasi va uning eksprementlaridan boshqa hamma narsa realistik, ammo asarning fantastika chegarasiga mansub ekanligi ham shu nuqtada belgilanadi.

Asarda ikkita kashshof olim obrazi bor. Ikkinchisi Shamsibek. U geliobiologik nazariya ustida tajriba oʻtkazmoqchi boʻladi. U oyogʻi qorason boʻlgan Gʻanimurod ismli yigitni davolashda astronomiya va meditsina ilmini birlashtirib eksprement oʻtkazmoqchi boʻladi. Bu tajriba uchun uning ilhomchisi Mirzo Ulugʻbek. Shamsibek unga: “Falakdagi oʻzgarishlar kurrayi arzga taʻsir koʻrsatadi deb edingiz.

Falakda boʻladigan katta oʻzgarishlarni bilsam shu kuni dori tayyorlab muolaja qilsam. Aytaylik, Husuf kuni yoki quyosh tutiladigan kun. Shu onlarda havo tarkibida oʻzgarish boʻlmasmikan, boʻlsa, dori va malhamga tasir etmasmikan?” – deydi [7, 60.] va husuf kuni shu tajribani amalga oshirayotgan pallada hasadgoʻy xurofotchilar tomonidan fojeali oʻldiriladi.

Shamsibek besh asr avval qiziqqan aynan ana shu soha telepatik tajriba yakunlangach Jahongir Aliyevning eʼtiborini tortadi. XX asrda ham shu soha ustida ishlayotgan geliobiolog olim Ahmad Zokirovich Astronomiya bilan meditsinani chogʻishtirib olib borayotgan ilmiy tadqiqotlari bilan Shamsibekning davomchisi boʻlib yangi kashfiyotlarga bel bogʻlaydi. “Devona” qissasida esa yuqoridagiga oʻxshash tibbiy eksprement ruhiy kasalliklarni davolash ustida olib boriladi. Shifokor Dilmurod oʻzi ixtiro qilgan Ted orqali boshiga tushgan koʻrguliklar tufayli es-hushidan ayrilgan Sabohiddin yaʼni devonani davolashga urinadi. Devonaning ensasiga qurilma simlarini oʻrnatib ular orqali impuls yuborish yoʻli bilan bemorning ruhiy olamiga taʻsir oʻtkazadi. “Dilmurod simlarni ehtiyotlik bilan uning ensasiga qoʻydi. Devona shunda ham qimir etmadi. Faqat impuls yuborganda sal titradi-yu tinchidi. [6,84] Shamsibekning tajribasiga uning tasodifiy va fojeali oʻlimi sabab boʻlgan boʻlsa, Dilmurodning bu tibbiy eksprementi tanglik tadqiqotchi Rhaq yaʼni Mirzavoyning yerliklarga xos boʻlmagan telepatik taʻsir oʻtkazish xislati tufayli devonaning oʻlimi bilan yakunlanadi. Vaholanki, Rhaqning niyati yaxshi edi. U oʻtmishini eslatish orqali devonaning xotirasini tiklamoqchi edi. Qolaversa, uning oʻzi ham birinchi ekspeditsiyasida Buxoroda uchratgan Sabohiddinning keyingi taqdirini shu telepatik yoʻl orqali bilib olmoqchi boʻlgandi. Ammo afsuski, Sabohiddin oʻtmishidagi koʻrguliklarini fikriy taʻsir yoʻli bilan qayta boshdan kechirishni koʻtara olmadi. Ushbu asarda muallifning boshqa

qissalaridan farqli o'laroq fantastik voqelik uchun fantastik unsurlar va buyumlarni o'zigina emas fantastik obrazlar ham syujetga olib kirilgan. Fid, Rhaq, Lukian kabi uch barmoqli tangliklar obrazlari, ularning telepatik xislatlari, muhabbat, nafrat, sadoqat, mehr kabi yerliklarga xos bo'lgan tuyg'ulardan mosivo ekanliklari, taraqqiyotda esa yerliklardan bir necha marta ilgarida ekanliklari buning isbotidir.

Ular yerliklardan farqli mavjudot bo'lganliklari uchun bir nechta g'ayriinsoniy qobiliyatlar ularda bor va bu ularning barchamiz mansub bo'lgan Yer sayyorasidan emas o'zga sayyoradan, tanglik ekanliklarini izohlash asarning fantastik haqiqatiga kitobxonni ishontirish manbayi qilib xizmat qildirilgan.

Natijalar. Haqning Yer sayyorasiga aynan tabib qiyofasida kelishi, Shamsibekning tabobat allomasi ekanligi, tibbiyot olimlari Dilmurod va professor Razzoqovlarning tibbiy izlanishlari – bularning barchasi insoniyat har bir zamonda ham tibbiyot sohasidagi ixtirolarga ko'proq muhtoj ekanligining badiiy ifodasi desak to'g'ri bo'ladi.

Tohir Malikning fantastik asarlarida bu sohaga doir eksprementlarning asarning asosiy g'oyasini belgilab beruvchi fantastik ideal bo'lib xizmat qiladi. Bularning biri: inson umrini uzaytirish, ikkinchisi – inson miyasining imkoniyat darajasini kengaytirish. Bu izlanishlar Tohir Malikning Baxtiyor Hoshimxo'jayev bilan hammualliflikdagi “Zaharli g'ubor” qissasidagi Charlz Long va Ismoil umidovlarning tajriba va ixtirolarida azaliy ikki qutbda, ezgulik va yovuzlik tarafdorlari sifatidagi harakatlarida, intellektual kurashlarida batafsil o'z ifodasini topgan.

Ular muallif ta'biri bilan aytganda: “Ikkovi ham olim, lekin biri – yaratuvchi, biri – yaratuvchi ko'rinishidagi buzguvchi”. [2,67] Charlz Long o'zini “Qudrat sohibi” deb atab butun dunyoga (Hatto faqat Yer bilan cheklanib qolmay koinotdagi boshqa sayyoralariga ham) hukmronlikni da'vo qiladi. Agar insoniyat uning bu da'vosini rad etsa, Sahroyi Kabrga quyun yog'dirishdan ham, Yevropaga issiq oqim, Afrikaga sovuq oqim keltirib insonlarni qirishdan ham toymaydi. Agar insoniyat unga qarshi kurashaversa, so'ngi chora sifatida muzliklarni eritib butun Yer sayyorasini suvga bostirishni ham rejalab qo'yadi.

Ammo ikki olim o'rtasidagi bu intellekt jangida o'zbek ixtirochisi Ismoil Umidov yutib chiqadi.

Charlz Longning boqiy umr va qudratli miya sohibi bo'lishiga o'zi ixtiro qilgan va miyasiga ulagan Analizator deb ataluvchi qurilma sabab bo'lsa, Ismoil Umidov insonni umrini uzaytiruvchi va miya imkoniyatlarini kengaytiruvchi dori kashf qiladi. Uning ixtirosida ham miya va yurakka operatsiya yo'li bilan maxsus qurilmalar o'rnatiladi. Natijada olimlarning har

ikkalasi ham “O’ta odam”, ya’ni, o’zgalarda bo’lmagan g’ayritabiiy qobiliyat, qudrat sohibi bo’lishadi. Yakunda esa badiiy so’zning qudrati bilan ezgu maqsad tarafdori g’alaba qozonadi.

Muhokama. Ismoil Umidov inson umrini sun’iy ravishda uzaytirish borasida ish olib borgan bo’lsa-da, u tabiiy hayot tarafdori. U Sharl Gomeskuga shunday deydi: “Uzoq umr ko’rish uchun dori yoki operatsiya shart emas, negaki tabiatning o’zi eng o’tkir dori. Tabiatning bor ne’matlaridan bahramand bo’lish bu sohadagi eng zo’r muolaja Agar hamma joydagi havo shu yerdagiday kislorodga boy bo’lsa, umr o’z-o’zidan kamida o’n-o’n besh yilga uzaygan bo’lardi”, - deydi va Ibn Sinoning: “Odamlar dori ichsam, umrim uzayadi deb yurmasdan sayrga tez-tez chiqib tursinlar”, degan fikrlarini keltiradi. U fikrlarini davom ettirib “Ar-Roziy ham odamlarni ko’p harakat qilishga, toza havoda yurishga undagan. Men umrni uzaytiradigan shu usulni ma’qul ko’rardim”, - deydi. [2,37.]. U Ibn Sino “Tib qonunlari”da ko’p nasihatlar qilganini, lekin buni odamlar quloqqa ilmaganlarini, shundan keyin tabobatda yangi usullarni qo’llashga majbur bo’lganini aytadi.

Qissada Long inson miyasining imkoniyatlarini shunday ta’riflaydi: “Agar inson miyasining faoliyatidan to’la foydalansa edi, eh nimalarga qodir bo’lmasdi. Buyuk g’oyalar miyada soniyaning bir necha ulushida yalt etadi-yu so’nadi. Yozishga ulgursang, ulgurding, bo’lmasa yo’q”. [2,21.]. Uning ixtirosi shundayki, miyasiga kelgan har bir fikr Analizator orqali uzatgichga o’tadi. Analizator bu fikrlarni ajratadi, saralaydi. O’zi yasagan temir panjalar esa soniyaning ulushida miyada yalt etgan fikrni yozib oladi. Uning buyukligi manbayi ham shunda. Ko’rinadiki, “Falak” qissasidagi Jahongir Aliyev yaratgan Elaloma hamda Longning Analizator nomli qurilmasi deyarli bir xil vazifani bajaradi. Har ikkala asarda ham funksiyasi bir xil bo’lgan fantastik qurilma tanlangan. Farqi shundaki, Analizator imkoniyat doirasi jihatidan Elalomaning takomillashgan shakli, ya’ni so’ngi avlod modeli sifatida tasavvur uyg’otadi. Bu asboblarning har ikkalasi ham miyaga o’rnatiladi, har ikkisi ham boshqa bir insonning miyasidagi fikrlarni o’qish imkonini beradi. Bu jihatdan ikki asardagi bu fantastik unsurlar biri ikkinchisini takrorlagan kabi taassurot uyg’otadi kitobxonda. Ammo Analizator Elalomaning yangi versiyasi ekanligi adibning har ikkala asarga o’zgacha fantaziya berganligini dalillashi mumkin.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, tibbiy, kibernetik va genetik ixtiro va tajribalar ko’plab ilmiy-fantastik yozuvchilarning faraziy imkoniyatlari doirasida o’z ifodasini topib kelmoqda va bularning ko’plari fanda o’z ro’yobini topmoqda. Xususan, ingliz yozuvchisi Oldos Xaksli o’zining “Yangi jasur dunyo” romanida bolalar tabiiy ravishda tug’ilmasligini va inkubatorida yetilishini bashorat tarzida yozadi. [5,2]. Bu bugungi klonlashtirish hodisasining 1932-yildagi, qariyb bir asr avval faraz qilingan ilmiy-fantastik ko’rinishidir. Bu singari tibbiy eksperimentlar bilan bog’liq asarlar o’tgan asrdayoq Belyayevning “Professor Douelning boshi”,

Bulgakovning “It'yurak” Martin Kegenning “Kiborg” Hojiakbar Shayxovning “Pushtirang falokat” kabi asarlarida u yoki bu fantastik talqinda o'z ifodasini topgan. Tohir Malik ham yechilmagan tibbiyot sirlariga o'zining fantastik ko'zgusidan nazar solib turf axil yechimlar tavsiya qiladi.

Xulosa qilganda “Falak” qissasidan boshlangan Shamsibekning husuf hodisasi ya'ni oy tutilishi paytidagi astronomik hodisalarni tibbiy muolajalarga ta'sir qildirish kabi jo'ngina eksprementi “Devona” qissasida, ayniqsa, “Zaharli g'ubor” asarida EHM va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlikda asr talabidan kelib chiqqan holda davom ettirilganiga guvoh bo'lamiz. “Hikmat afandining o'limi” qissasidagi kimyoviy tajribalar ushbu asarlarda biofizikaviy hamda kibernetik eksperiment shaklida o'z ifodasini topganki, bu ilmiy-fantastikaning sof fantastikadan ajralib turuvchi asosiy jihatlaridan biridir. Zotan adibning ushbu asarlarida ilmiy-fantastika yetakchilik qiladi, chunki Tohir Malik adabiyotni reallikdan, hayotiy voqealardan batamom ajratgisi kelmaydi. Muallifnin bu yo'nalishdagi barcha asarlari realizm va fantastika chegarasida kesishadi, hayot haqiqatlariga xayol cheksizliklari muvofiqlashtiriladi.

Adabiyotlar ro'yxati

- 1.Тоҳир Малик. (2016). Танланган асарлар. Тошкент, Шарқ.
- 2.Тоҳир Малик., Бахтиёр Хошимхужаев. (1978). Захарли губор. Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”.В. 21-37-67.
- 3.Шайхов, Ҳ., Хобилов, Т. (1972). Етти сер. Илмий-фантастик ҳикоялар ва қисса., Ўзбекистон ЛКСМ Марказий комитет "Ёш гвардия" нашриёти. Б.72.
- 4.Ибрагимова Р. (2003). Ўзбек фантастикасининг тараққиёт муаммолари.ТошкентВ. В. 161.,.
- 5.Murodqulov, F. (2022). Fantastik asarlarda bashorat qilingan va inson hayotiga kirib kelgan texnologiyalar. <https://qalampir.uz>. В. 2.
- 6.Тоҳир Малик. (2008). Девона. Тошкент, www.ziyouz.com В. 84.
- 7.Тоҳир Малик. (2008) Фалак. Тошкент. www.ziyouz.com. В 60.

DAVR VA QAHRAMON MUNOSABATI: IFODA VA TASVIR

Nizomov Farxod Muso o'g'li

Navoiy Davlat Universiteti, katta o'qituvchisi

Farkhodnizomov22@gmail.com

Annotatsiya. Istiqlol davri o'zbek nasrida Abduqayum Yo'ldoshev, Luqmon Bo'rixon qissalari va ularda voqelikni yangicha yondashuvlar asosida badiiy aks ettirishning ijodiy tajribalarini tahlil etish, “Ong oqimi” ko'rinishlarining o'zbek adabiyotida voqelanishini majoziy timsollarning har ikki yozuvchi asarlaridagi badiiy talqini va janr imkoniyatlarining kengayishidagi ahamiyatini ko'rsatish hamda davr hodisalarini boricha ochib berish, ularni badiiy adabiyot mezonlari bilan baholash, ifoda va tasvirning o'ziga xosligini ochib berish zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligining muhim masalalaridan biridir.

Mazkur tahliliy mulohazalarda ayni shu jihatlariga diqqat qaratilgan. Nasrimizning ikki yetuk adiblarining “Quyosh hali botmagan”, “Gudbay, Amerika”, “Osmon og‘ushi” qissalari misolida badiiy matnda davr va qahramon munosabati, ijtimoiy hayot va obrazli tafakkur aloqalari, makon va zamon tushunchalari, nasrda zamonaviy mavzularni aks ettirishdagi muallif mahoratiga alohida e’tibor qaratilgan. Mualliflar asarlaridagi an’anaviylik, tasvir uslubi, badiiy ifoda singari xususiyatlar haqida bahs yuritishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: xronotop, obraz, individuallik, xarakter, badiiy haqiqat, an’anaviylik, germeneytik tahlil, tasvir uslubi, badiiy ifoda.

Аннотация. Анализ творческого опыта художественного отражения действительности на основе новых подходов к рассказам Абдукаюма Ёлдошева и Лукмона Борихона в узбекской прозе периода независимости, художественная интерпретация проявлений «Потока сознания» в узбекской литературе и образных символов в узбекской литературе. творчества обоих писателей и показать важность расширения возможностей жанра и максимально раскрыть события периода, оценить их по критериям художественного произведения, раскрыть своеобразие выражения и образа. один из важных вопросов современного узбекского литературоведения.

В данных аналитических комментариях внимание акцентируется именно на этих аспектах. На примере рассказов «Солнце еще не зашло», «Прощай, Америка», «Осман Огуши» двух зрелых писателей нашей прозы рассматривается соотношение периода и героя в художественном тексте, общественной жизни и образной мысли. Особое внимание уделяется связям, понятиям пространства и времени, а также умению автора отразить в прозе современные темы. Предпринята попытка рассуждать о таких особенностях, как традиционность, стиль изображения и художественная выразительность в творчестве авторов.

Ключевые слова: хронотоп, образ, индивидуальность, персонаж, художественная реальность, традиционализм, герменевтический анализ, стиль изображения, художественная выразительность.

Annotation. Analyzing the creative experiences of artistic reflection of reality based on new approaches to the stories of Abduqayum Yoldoshev and Lukmon Burikhon in the Uzbek prose of the independence period, the artistic interpretation of the “Stream of Consciousness” manifestations in Uzbek literature and figurative symbols in the works of both writers. and to show the importance of the expansion of the possibilities of the genre and to reveal the events of the period as much as possible, to evaluate them with the criteria of fiction, to reveal the uniqueness of expression and image is one of the important issues of modern Uzbek literary studies.

In these analytical comments, attention is focused on these aspects. In the example of the stories “The Sun Has Not Set”, “Goodbye, America”, “Osman Oghushi” by two mature writers of our prose, the relationship between the period and the hero in the artistic text, social life and figurative thought connections, concepts of space and time, and the author’s skill in reflecting modern themes in the prose special attention is paid. An attempt was made to argue about such features as traditionality, image style, and artistic expression in the authors’ works.

Key words: chronotope, image, individuality, character, artistic reality, traditionalism, hermeneutic analysis, image style, artistic expression.

Kirish. Chuqur psixologik va lirik ko‘lamda yaratilgan “Quyosh hali botmagan” qissasining g‘oyaviy pafosida chin insoniy muhabbatning yengilmasligi va tantanasi masalasi etakchilik qiladi. Hatto, kuch-qudrati, polvonligi, imkoniyat-boyligi dunyoga sig‘mas korchalon Davronning Norsoat-Tanzila sevgisiga, bu yoshlar pokiza qalb tuyg‘ulariga tan berishi, o‘zi naqadar kuchli polvon, bu borada Osiyo chempioni bo‘lgan esa-da, kurashda Norsoat jo‘rasiga yiqilib berib, naqadar tantilik qilishi asarda, realistik usulda o‘z ifodasini topgan. Aslida bu xarakter-tiynati hayot haqiqatiga xos realistik ruhda tasvirlangan Davronning xatti-harakati pokiza sevgiga, beg‘ubor va sofdil tuyg‘ular tantanasiga xayrixohligining alomatidir. Qissa shunday hayotiy jozibadorligi bilan ham g‘oyaviy-badiiy mukammallik kasb etgan. Bu jarayonlar umumiy yo‘riqdan lirik ko‘lam, ramziy belgilar bilan tasvirlanganligidan qissaning badiiy jozibadorligi, hayotni o‘z badiiy haqiqatlari bilan tasvirlanganligi jihatdan alohida e‘tiborni tortadi.

Abduqayum Yo‘ldoshevning “Gudbay, Amerika!” qissasidagi obrazlar galereyasi orqali hayot va badiiy haqiqat, insoniy taqdir chigalliklari, ramziylik va lirik tasvir usullari og‘ushida inson omili masalalari bilan bevosita bog‘liqligi e‘tiborni tortadi. Avvalo, bu jozibali realistik usulda yaratilgan asarning o‘zbek nasrida yaratilgan ilk jiddiy qissa ekanligini ta’kidlamok kerak.

Mazkur qissaning ijtimoiy-g‘oyaviy jihatdan betakrorligi barobarida uning mikrosuyetlarga asoslangan arxitektonikasi, kompozision o‘ziga xos yangicha tuzilmadan iboratligi, mavzuning dolzarbligi kabi adabiy fazilatlar mazmundan iboratligini ta’kidlash joiz. Shu mavzuga yaqin ruhda yozilgan “Osmon og‘ushi” qissasi to‘g‘risida ham shu fikrlarni ta’kidlash o‘rinlidir. Mazkur maqolada bu ikki asar haqida ayrim qaydlar bayon qilingan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu asarlarni tahlil etishda atoqli adabiyotshunos olimlar M.Xrapchenko, B. Karimov, Q.Yo‘ldoshevlarning nazariy qarashlariga, internet saytlarida mavzuyimizga dahldor mulohazalariga diqqat qaratildi. Maqola obyekti hisoblangan asarlar matni bilan ishlendi. Qiyosiy, tipologik, germenevtik tahlil, formalizm kabi metod va usullar asosida mavzu tahlil etildi.

Taniqli san’atshunos va adabiyotshunos olim M.B.Xrapchenkoning qayd etishicha, “...jahon adabiyotida har bir ijodkor-yozuvchining oldida, u Servantes yo Tekkerey bo‘ladimi, Gyote yo Filding bo‘ladimi, baribir, ular oldida turadigan muhim vazifalardan biri shunday: romantizm asosidami, tanqidiy realizm yoki modernizm usulidami, yaratilayotgan asarda, uning qoq markazida odamizot qiyofasi, aniq inson obrazi, uning quvonch-u dardi, intilishi umidi turadi va bu jarayonlar bu g‘oyalar yuksak va badiiy ko‘lamda tasvirlana olsagina bu asar umuminsoniy xarakterga, yetuk badiiy kashfiyot mohiyatiga ega bo‘ladi” [5; 368-bet].

Professor Qozoqboy Yo‘ldosh yozuvchi Luqmon Bo‘rixonning asarlaridagi tasvirlarning, obrazlar faoliyatining, badiiy san’atlardan foydalanishning samimiyati va tabiiyligi yetakchilik qilishini alohida uqtiradi. Samimiyat va tabiiylik mohiyat jihatidan hayotni lirik ko‘lamda tasavvur etishning va shunday tasvirlashning o‘zagi sanaladi. Ayni vaqtda lirik pafos – har bir asar, jumladan, L.Bo‘rixon qissalarining ham o‘ziga xos o‘qimishli bo‘ladigan fazilatlaridan biridir. Muallif nasri “o‘tkir syujeti, betakror insoniy taqdiralar aks ettirilgani, tilining jozibadorligi, tasvirning samimiyati, eng muhimi, qahramonlar ruhiyatining sof o‘zbekcha ifodalanganligi bilan o‘quvchilarni o‘ziga rom etadi. Uning qissalariga xos bir umumiy jihat shundan iboratki, ularda voqea-hodisalar tasviridan ko‘ra ruhiyat ifodasiga e‘tibor ustuvorlik qiladi”[1; 6-bet].

Olim ta’kidlashicha, inson ruhiyati talqiniga e‘tibor - bu kishilarning go‘zal dunyosi, quvonchi, intilishlarini, sevgi yoki oila izzatoblari talqini orqali lirik tasvirni vujudga keltirish imkonini beradi.

Adabiyotshunos olim, professor B.Karimov: “Badiiy asar ma’lum bir zamon-da muayyan ijodkor tomonidan insho etiladi. Zamon, davr muammolari unda muayyan ifodasini topishi kerak... Adabiyotimiz suvratdan siyratga, jamiyatdan insonga, tashqaridan ichkariga qaytayotgandek, irmoqlar dengizga ulanayot-gandek...” [2; 11-12-betlar] degan ta’kidi-da zamonaviy nasrning hartomonlama yangilanishlarni nazarda tutadi.

Natijalar. “Gudbay, Amerika” qissasi shakliy jihatdan qissa-reportaj sifatida o‘ziga xoslik kasb etgan. Muallif katta pul-boylik to‘plash ilinjida Amerika kabi dovruqli mamlakatga bosh urib borgan o‘ndan ortiq oila vakillarining va ulargacha ham to‘rt-besh yil muqaddam bu yurtga borgan bandalarning chin hayotiy ruhiyasini, achchiq taqdir-azmoyishlarini kino lentasi tasvirlaridek badiiy ko‘lamda ko‘rsata olgan. To‘g‘ri, yozuvchi dovruqtalab kishilarning mustaqil bozor iqtisodining vaqtinchalik o‘tish davri mashaqqatlariga dosh berolmay, rivojlangan olis yurtga yo‘l olgan bandalarni yog‘dirish fikridan, Amerika muhitini, bu yerdagi “demokratiya” yorlig‘i ostida sodir bo‘layotgan axloqsizliklarni, aldov-qaldov, sarmoya va pul odami fenomenidan naqadar ustun turishi kabi negativ hodisalarni ta’kidlamok va qoralamok niyatidan mutlaqo saqlanadi. Ammo bu yurtdagi real voqelikni, real aziyatlarni o‘zbekistonlik dovruqtalablar hayoti misolida mardona ko‘rsatilishi asar markaziga qo‘ygan. Mana, O‘zbekistondan borgan Nodir bilan Amerikada anchadan buyon yurgan Jamilaning suhbatlari:

“- Siz... siz ancha o‘zgarib qopsiz, Jamilaxon, - deydi Nodir samimiylilik bilan.

- Ehtimol... Ammo hayot shunga majbur qilyapti, Nodir, - deya javob beradi Jamila. - Bu yerda jon-jahding bilan kurashmasang, ishlamasang, seni toptab-yanchib o‘tib ketishadi. - Bunga yo‘l qo‘ymaslik kerak! Kambag‘almisan - o‘zing aybdorsan, nega vaqtida yaxshi ishlamading? -

kasalmisan, yana o'zing aybdorsan - Nega vaqtida o'zing sog'liging haqida qayg'urmading? - Itning keyingi oyog'imisan, yana o'zing aybdorsan - nega vaqtida, imkon borida harakat qilmading, osmondan chalpak yog'ilishini kuti-ib yotding?... - Ha, g'alati falsafa ekan", - deydi Nodir. - Falfasa emas, hayot haqiqati bu! - qizg'inlik bilan e'tiroz bildiradi Jamila" [4; 116-bet]. Darhaqiqat, Jamilaning dard-alam ruhi ufurib turgan so'zlarida Amerika haqiqatining eng muhim jihatlari o'z ifodasini topgan. Bu so'zlar Amerikacha hayotning bir ulushi va ko'rinishi sanaladi. Amerikada qolib ketish uchun amerikalikka uylanish, uylangandan so'ng besh yil o'tib, bu yurt fuqaroligiga qabul qilinish mumkinligi haqidagi voqealar, bu jarayondagi soxtaliklar ro'yi-rost badiiy ifodasini topgan.

Amerika "sarguzashtlari" tizimidagi navbatdagi voqelik muallifning "Osmon og'ushi" qissasidagi Malik (Maykl) degan uchar yigitning xonanda qiz Zarifani "yulduz" qilish va'dasi bilan chaqirib olganligi bilan bog'liq. Malik-Maykl o'z yurtidan shunday qiz-juvonlarni chaqirib, Amerikada fohishalik olamiga qo'shib, orada katta foyda ko'rib yurganlardan biri. U Zarifa (Zeta)ni buzuq niyatli yigit-qizlar to'planadigan tizim shoularga jalb qiladi. Avvalo, u Zarifaga qariyb yarim yalang'och bo'lib oladigan antiqa liboslar kiydiradi. Inglizcha qo'shiqlarni berilib kuylaydigan Zarifa san'atini baholaydigan jyuri a'zolarini so'rasa, Malik bular tegishli joyda seni videoda ko'rib o'tirib, baholayverishadi, deya yolg'on ma'lumotni aytib, san'atkor qizni tinchlantiradi.

O'zbekistonlik yigitning Amerikada ma'lum vaqt yashab yurish muddatida fohishalikda yaramas va jirkanch illatni kundalik oddiy hodisa, yaxshi kun ko'rishning, "yulduz" bo'lib tanilishlikning vositasi deb bilishidan ajablanmasa ham bo'ladi. Uning oddiy haqiqatiga ko'ra, bu ishlar uchun "iste'doddan tashqari husni joziba va ozroq to'shak ham kerak". Ma'lum bo'lishicha, munofiq Malik (Maykl) bechora sodda Zarifaga uylanish va'dasini ham bergan.

" - Nima deyapsan, Zeta? Qanaqa uylanish? Qiz tok urganday seskanib ketdi: - Uylanmasangiz... unda... qo'shmachilik qilmoqchimisiz? -Qo'y bunaqangi arxaik so'zlarni! - jerkib berdi Malik, - Men seni birovning tagiga majburlab yotqizmayman. Lekin ishim yurishsin, tezroq maqsadimga erishay desang, ba'zi birovlarining ko'nglini olishga to'g'ri keladi..." [3; 255-bet]. Bu parcha tahlilida "katta imkoniyatlar" o'lkasiga boylik va baxt izlab borgan insonlarning achchiq fojialari, u yerda yashash uchun har qanday ishni bajarishi ochiq tasvirlangan. Ota-onasi tomonidan ona tilida qo'yilgan ismlarini inglizcha nomlarga almashtirib olish ham aslida bir fojia ekanligi qayd etilgan. Bugungi davrning eng og'riqli muam-molari boricha bayon etilgan. Yoshlarning turli soxta orzularga aldanmasligi asar matnidan qizil ip yanglig' o'tkazilgan.

Qissada dunyo ahlini larzaga solib kelayotgan diniy ekstremizm, diniy fundamentalizm kabi global illat va buning Amerikada oddiy voqea yoki inson erki taqozosi deb qaralishi kabi

jinoiy faoliyatning ijrochilaridan biri o'zbekistonlik ekanligi hodisalari ilk bor qalamga olingan. Taniqli sport ustasi Izzatulla aka Erali va Sherali ismli o'g'illarini sport ishlari keng yo'lga qo'yilgan "erkin" yurtda katta sportchi qilish, Olimpiya o'yinlari ishtirokchisiga aylantirish kabi oliyjanob maqsadlar bilan Amerikaga olib kelgan; ammo baxtga qarshi bu zurriyodlar yot g'oyalar ta'sirida boshlarida ashaddiy va quruq dindor to'nini kiyib oladilar. Ular sportni, san'atni islomga qarshi harakat, erkin, ochilib-yozilib yurishni, erkin fikrni tamoman zararli va gunoh deb biladilar. Erta-yu kech masjiddan beri kelmaydilar. O'zlarini go'yo pokdon ko'rsatib, ijtimoiy ish bilan shug'ullanmaydilar, otasining ma'naviy-axloqiy so'zlarini, xatti-harakatlarini shariatga qarshilikda ayblaydilar, har damda padariga tanbeh berib, zahar sochadilar. Ularning harakati, gap-so'zlarida ma'naviy qashshoqlik, bemehrlilik, milliy qadriyatlarni mensimaslik seziladi. O'zbekistondan borgan Davronbek (otalarining shogirdi) ishtirokidagi suh-batda munofiq o'g'illarning zaharomuz ta'nalaridan yuragi qisib kelgan ota Izzatulla aka to'satdan vafot etadi. Qo'li kalta oila bechora otani dafn etgani qabriston to'lovini qilishdan ojiz. Uni, nihoyat, kuydirishga rozi bo'ladilar.

Shahar krematoriysidagi maxsus xonada Izzatulla akaning mayiti yoqish uchun pechga kiritilayotganini oyna ortidan yig'lab kuzatayotgan shogird Davronbekning ko'nglidan shunday o'ylar o'tardi. U yonida bukchayib turgan Habiba xolaga, hatto o'ta jiddiy Erali bilan Sheraliga ham emas, ko'proq o'ziga o'zi gapirayotganday iztirob bilan shivirlaydi:

“- Shunday odamga uch gaz yer topilmay qoldimi?

Aka-ukalardan biri javob qaytaradi:

- Topiladi, lekin...

Ikkinchisi gapni yakunlaydi:

- Lekin juda qimmat. Bu yerda eng boy odamlargina o'zlari, yaqinlari uchun oldindan qabristondan yer sotib olib qo'yishadi. Qolganlar shunday..."[3; 257-bet].

E'tibor berilsa muallif Amerikadagi ko'rguliklar tafsilotini mikrosyujetlar asnosini tasvirlar ekan, bunday katta-kichik hodisotlar psixologik tahlillarga naqadar bevosita tayanilgani ma'lum bo'ladi. Bu kabi hayotiy haqiqatlarning badiiy-emotsional haqiqatga aylantirishda yozuvchining teran mahorati qo'l kelganligi, shubhasiz. Voqelik tasvirida sun'iylik yo'q, ifodalarda peyzaj, xronotop, pafos, badiiy detallar kabi adabiy figuralardan, monolog va diologik nutqlardan mahorat bilan foydalanilgan.

Asarda navbatdagi Amerikadagi yana bir baxtiqaro, yo'lidan adashgan munisa qiz Lobardir. O'zbekistonda grin-karta yutgan opasi Buvsara eri va ikki farzandi bilan Lobarni qora bilib boradilar. Zo'rg'a uyini topib borishsa, eshikni hech kim ochmaydi. Ichkaridan ayol ingrashi eshitilardi. Opa-singil shu tariqa eshik ortidan so'zlashadi. Gap shundaki, Amerikada

turmushga chiqqan eri Sharon Lobarni uy ichidagi panjara ortiga qamab, o'zi ovga ketgan edi. Ma'lum bo'lishicha, sayohat vizasining muddati tugaganidan keyin Lobar shu yerda qoladi. Yashash uchun qo'ldan kelgan har qanday ishni qilishga majbur bo'ladi. Bu yurtida butunlay qolish uchun amerikalikka erga tegish lozim. Shu sababli vositachi orqali qora tanli Sharon degan erkak bilan soxta nikohdan o'tadi. Bayon tasviri: "Bu cholday qo'pol negr ellikdan oshgan badfe'l nusxa edi; Ular nikohdan o'tishadi; Migratsiya xizmatidan Lobarga "grin-kard" berishadi; Sharonga u o'ttiz besh ming dollar to'laydi oradagi vositachiga esa besh mingni..."[3; 260-bet], deyilishi biz uchun muqaddas sanalgan nikohning bu mamlakat uchun qadrsiz, inson tuyg'ulari ahamiyatsiz ekanligini tasdiqlaydi.

Bunday fojiona hayot, bir qizning boshiga tushgan ko'rgulik ifodasi inson zotining qalbini jarohatlaydi. Yozuvchi har bir qahramon ma'naviy-ruhiy dunyosining haqiqatlarini hayotiylik mezoni asosida badiiy gavdalandira olgan. Katta-kichik bo'lishidan qat'iy nazar, muallif barcha obrazlar xarakter-tiynatini ishonarli va yetuk darajada talqin etgan. Ancha yillar oilasi, yaqinlari bilan ko'rishmagan Lobar g'oyat tushkun, bechora hayoti ularni ne ahvolga soladi. Oz vaqtdagi oilaviy hayot bu qizni kampirga aylantirib qo'yadi. Sharon Lobardan o'ziga har kuni pul berishini, boqishini talab qiladi, uni kaltaklaydi, zo'rlaydi. Ko'ngli tusagan har ishni qilishga majbur qiladi. Tez-tez uyga qulflab, ko'chaga chiqishni ma'n qiladi. Telefondan gaplashishga yo'l qo'ymaydi.

Eh-he, bunday hodisalarning qancha-qanchasi Lobarning boshidan o'tmagan... Barcha obrazlari kabi Lobardek "sehrli" mamlakatda chandon kuyib-jizg'anak bo'lgan qizning zaharli hayoti goh uning o'z nutqi orqali goh muallif nutqi aspektida ichki psixologik kolliziya maromida talqin qilingan. Bu obraz boshidan o'tgan ko'rguliklar tizimi, asli gulday qizning moldan farqi yo'q. Qop-qora kimsa quchog'iga kirishga majbur bo'lgan taqdiri yurakni o'rtab o'qilishi, shubhasiz.

Badiiy ifodalar davomida qahramonning "Illo, bu yerda Amerikada dunyoqa-rashlar o'zga, maqsad-niyatlar o'zga, ayniqsa, ilk bor bu sehrli zaminga qadam qo'yib turgan odamning boshi aylanib, ayrim voqeliklar qarshisida esankirab-gangib, tavbalar aytgancha, ko'ksiga tupurishi tayin"[3; 268-bet], degan jumllarida yuqorida nomlari keltirilgan insonlarning achchiq qismatiga, qadr-qimmatini poymol bo'lgan, yosh umri xazon bo'lgan odamlarning afsus-u nadomatlariga ishora qiladi.

Xulosa. Inson huquqlari yuksak qadrlanishi bong uriladigan Amerikadagi o'zbek qizning bu darajadagi yer bilan yakson qadr-qimmatining oyoqosti qilinishi katta sarmoya deya xorijiy yurtlarga chopadigan kishilarga muhim saboq va tanbeh bo'lishi aniq.

Yozuvchi badiiy ifoda davomida obrazlar ruhiyatiga diqqat qaratadi, o'zlarini so'zlatadi, ko'ngil kechinmalarini ikki makon real an'anaviy (mavjud davr, voqelik joyi aniq bir vaqtda kechadi) va sinkretik xronotop (voqelik noreal, mavhum zamon va makonda kechadigan)lar shaklida badiiy ifodalaydi. Baxt va boylik, vatan va bewatanlik, muhabbat va nafrat, huzur va notinchlik, rost va yolg'on kabi kontrast tushunchalarni qarama-qarshi qo'yadi. Bu haqida jonli kishilar hayotini tasvirlash bilan o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatadi. Muhim xulosalar sifatida vatanni qadrlash, ona yurtga sadoqat, yaqinlarga muhabbat, shukronalik hissi kabi tuyg'ularni ta'kidlash o'rinlidir. Bu kabi xulosalar ham Abduqayum Yo'ldoshev qissasining muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Yo'ldoshev, Q. (2015). Badiiy kamolot yo'li // Bo'rixon L. Quyosh hali botmagan. T.: O'zbekiston.
2. Karimov, B. (2018). Ruhيات alifbosi. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.
3. Yo'ldoshev, A. (2018). Osmon og'ushi. Qissalar va hikoyalar. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
4. Yo'ldoshev, A. (2018). Gudbay, Amerika. Qissalar va hikoyalar. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
5. Xrapchenko, M. (1996). Xudojestvennoye tvorchestvo, deystvitelnost, chelovek. M.: Sovetskiy pisatel.

РОЛЬ МОДЕРНИЗМА В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ И ИСКУССТВЕ

Гафурова Азиза Зиятовна

Навоийский государственный университет

aziza23-87@mail.ru

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию роли модернизма в мировой литературе и искусстве. В ней рассматриваются ключевые аспекты этого важного культурного движения, возникшего в конце XIX - начале XX века, и его влияние на развитие различных художественных форм. Модернизм характеризуется стремлением к новаторству, разрыву с традиционными канонами и поиском новых способов выражения человеческого опыта. В статье анализируются главные черты и техники, присущие модернизму, такие как фрагментация, субъективность, эксперимент с формой и нарративом. Особенное внимание уделено рассмотрению вкладов известных представителей модернизма.

Ключевые слова: литература, модернизм, искусство, образ, писатели, поэты, экспрессионизм, кубизм, футуризм, сюрреализм, модернизм, интертекстуальность.

Annotation: This article is devoted to the study of the role of modernism in world literature and art. It examines the key aspects of this important cultural movement that emerged in the late 19th and early 20th centuries and its influence on the development of various artistic forms. Modernism is characterized by a desire for innovation, a break with traditional canons and the search for new ways of expressing human experience. The article analyzes the main features and techniques inherent in modernism, such as fragmentation, subjectivity, experimentation with form and narrative. Particular attention is paid to the consideration of the contributions of famous representatives of modernism.

Keywords: literature, modernism, art, image, writers, poets, expressionism, cubism, futurism, surrealism, modernism, intertextuality.

Введение. Модернизм, как значительное явление в мировой литературе и искусстве, оставил глубочайший след в культурном наследии человечества. Возникнув на рубеже XIX и XX веков, это движение стало ответом на радикальные изменения, которые происходили в обществе: быстрая урбанизация, технический прогресс, и политические потрясения.

Литература модернизма характеризуется стремлением уйти от традиционных сюжетных и формальных структур. Произведения модернистов часто демонстрируют фрагментарность, интертекстуальность и эксперименты с языком и стилем. В этом контексте особенно выделяются такие авторы, как Джеймс Джойс, Вирджиния Вулф, Франц Кафка и Марсель Пруст. Их работы не только отражали сложность и антагонизм современного мира, но и приглашали читателей к активному участию в создании смысла текста.

В искусстве модернизм проявился в многочисленных авангардных течениях, таких как экспрессионизм, кубизм, футуризм, сюрреализм и дадаизм. Художники стремились разрушить старые каноны и найти новые способы самовыражения. Образы, цвета, и формы стали инструментами для передачи сложных психологических состояний и философских идей. Великие мастера того времени, такие как Пабло Пикассо, Василий Кандинский, Сальвадор Дали и Марсель Дюшан, изменили само понятие искусства, заставив зрителей пересмотреть свои представления о том, что такое красота и смысл.

Модернизм способствовал развитию новых техник и медиумов в литературе и искусстве, таких как поток сознания, коллаж, а также эксперименты с типографикой и монтажом. Эти новшества также подчеркивали индивидуальность и субъективность восприятия, которую модернисты считали важнейшей составляющей творческого процесса.

Сложность и многослойность модернистских работ можно рассматривать как отражение хаотичности и неопределенности эпохи, в которой они создавались. Тем не менее, именно благодаря своей инновационности и способности выражать глубинные аспекты человеческого опыта, модернизм смог оставить неизгладимый след в мировой культуре.

По мере того как мир продолжает меняться, наследие модернистов остается актуальным и по сей день, служа источником вдохновения для новых поколений писателей и художников. В конечном счете, изучение и понимание модернизма помогает нам лучше осознать сложность нашего собственного времени и найти новые пути для самовыражения и понимания мира вокруг нас.

Модернизм также оказал значительное влияние на развитие музыки и театра. Композиторы, такие как Игорь Стравинский, Арнольд Шёнберг и Бела Барток, вводили инновации в области гармонии, ритма и формы, разрывая с традициями классической музыки. В своих произведениях они стремились к созданию новых звуковых миров, которые могли бы передать сложные эмоциональные и интеллектуальные состояния. Модернистские композиции часто вызывали шок и неоднозначную реакцию у публики, но со временем их новаторские идеи стали неотъемлемой частью музыкального ландшафта XX века.

Театральный модернизм, в свою очередь, стремился к разрушению традиционных канонов драмы и актерской игры. Такие драматурги, как Бертольд Брехт и Сэмюэл Беккет, создали произведения, которые оспаривали нормы сюжета и характера, вводили элементы эпического театра и театра абсурда. Их пьесы призывали зрителей к активному размышлению и интерпретации, создавая пространство для многоголосия и полифонии смыслов. Новые театральные методы, такие как «отчуждение» Брехта, также изменили отношение к актёрскому мастерству, делая акцент на критическом дистанцировании и осознании.

Не менее значимым было влияние модернизма на архитектуру и дизайн. Архитекторы, такие как Ле Корбюзье и Франк Ллойд Райт, стремились создать функциональное, но при этом эстетически выразительное пространство, отражающее дух времени. Корбюзье, например, считал дом «машиной для жилья», где каждая деталь должна служить удобству и комфорту человека. Этот подход кардинально изменил представления о жилищной и общественной архитектуре, открывая новые возможности для городского развития и пространственного мышления.

Литература и методология. В литературе модернизм проявился через инновационные литературные техники и формы, такие как поток сознания, фрагментарное повествование и многоголосие.

Писатели и поэты, работавшие в данном направлении, постоянно экспериментировали с новыми словами, формами, приемами и техниками, для того чтобы создать новое, свежее звучание, хотя темы оставались по-прежнему старыми и вечными. Обычно это была тема об одиночестве человека в огромном и пестром мире, о несовпадении ритмов его жизни с окружающей реальностью.

Модернизм это своеобразная литературная революция, в ней участвовали писатели и поэты, объявившие о своем полном отрицании реалистического правдоподобия и всех культурно-литературных традиций в целом. Им выпало жить и творить в непростое время, когда ценности традиционной гуманистической культуры устарели, когда понятие свободы в разных странах имело весьма неоднозначное значение, когда кровь и ужасы Первой мировой войны обесценили человеческую жизнь, и окружающий мир предстал перед человеком во всей своей жестокости и холодности. Ранний модернизм символизировал время, когда разрушилась вера в силу разума, настало время торжества иррациональности, мистицизма и абсурдности всего существования. [2]

Обсуждение. В литературе модернистские тексты отличались игрой со словами, неоднозначностью и металитературными элементами. Томас Пинчон, Джон Барт, Хорхе Луис Борхес и другие авторы восприняли идеи модернизма как отправную точку для дальнейших экспериментов. Их произведения исследовали границы искусства, превращая текст в полифонию голосов и точек зрения. Использование фрагментарности и интертекстуальности стало ответом на модернистское стремление к целостности и глубине, позволяя исследовать более широкий спектр человеческого опыта.

В визуальных искусствах влияние модернизма отразилось в появлении новых авангардных направлений, таких как поп-арт, минимализм и концептуализм. Каждое из этих движений вносило свой вклад в переосмысление роли искусства в обществе. Поп-арт, с его интересом к массовой культуре и ироничным подходом, выступал антитезой к элитаризму и сложной символике модернизма, делая искусство доступным и понимаемым для более широкой аудитории. Минимализм и концептуализм, напротив, углублялись в изучение форм и материалов, уходя от изобразительности к исследованию идей и концептов.

Такое многообразие художественных и литературных течений в XX веке, вызванное сначала модернизмом, а затем его ответвлениями и реакциями на него,

свидетельствует о глубоких изменениях в восприятии и понимании искусства и литературы. Модернизм не только положил начало многим новаторским движениям, но и продолжает вдохновлять современных творцов на новые поиски и эксперименты, утверждая значимость искусства как непрерывного процесса самопознания и исследования мира. [2]

Заключение. Таким образом, анализируя роль модернизма в мировой литературе и искусстве, можно с уверенностью сказать, что это движение не только открыло новые горизонты для творчества, но и изменило само понимание искусства. Модернизм стал катализатором для многих последующих художественных направлений и течений, продолжая оказывать влияние на современных художников и писателей. Он доказал, что искусство способно менять мир, формировать новое сознание и обновлять культурные парадигмы.

Одним из ключевых аспектов модернизма стала интертекстуальность и культурные коды, которые пронизывали произведения искусства и литературы того времени. Произведения часто насыщались отсылками к другим культурным формам, мифам, философским трактатам и историческим событиям. Это подчеркивало неразрывную связь между прошлым и настоящим, а также многослойность человеческого опыта. Такой подход требовал активного вовлечения и интерпретации от читателя или зрителя, что создавало новые способы взаимодействия с искусством.

Кроме того, модернизм способствовал созданию новых жанров и форм, таких как поток сознания в литературе и абстракционизм в живописи. Эти инновации стали основой для дальнейших экспериментов и исследований в искусстве. К примеру, поток сознания позволил авторам более глубоко исследовать внутренний мир персонажей, усиленно подчёркивая субъективность восприятия. В живописи же абстракционизм предоставил художникам неограниченную свободу самовыражения и возможность передавать сложные эмоции и идеи без опоры на фигуративное изображение.

Влияние модернизма на развитие современных медиаискусств также невозможно переоценить. Фильм, фотография, радио и позже телевидение стали новыми формами художественного выражения, испытавшими на себе мощное воздействие модернистских идей. Эксперименты с монтажом, светом, звуком и композицией перенесли модернистские принципы на новые технологические платформы, расширяя границы возможного в искусстве и создавая предпосылки для дальнейших инноваций, которые мы видим и сегодня. [3]

Использованная литература

1. Армстронг, К., и де Зегер, К (2006). Женщины-художники как тысячелетие, Кембридж, Массачусетс: Октябрьские книги, MIT Press.
2. Бекстрем, П., (2007). Центр-периферия. Авангард и другие Университет Тромсе, № 21.
3. Сасс, Луи А., (1992). Безумие и модернизм: безумие в свете современного искусства, литературы и мысли. Нью-Йорк.
4. Ван Лоо, Софи (2006). Ущелье (I). Королевский музей изящных искусств, Антверпен.

MUSIQA

MUSIQA TO'GARAKLARIDA DUTOR CHOLG'USI ASOSIDA O'QUVCHILARNING IJROCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHGA QO'YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLAR Shohida Omanqulova Nematillo qizi

O'zFinPI, "Musiq ta'limi" kafedrası dotsenti

shohidaomankulova@gmail.com

Annotatsiya. Maktab ta'limida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk inson qilib tarbiyalashda musiqa ta'limi bilan bog'liq barcha jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotlarini pedagogik talablar asosida tashlik etish, o'quvchilarda ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish orqali musiqa san'ati va ularda ilgari surilgan g'oyalarning tarbiyaviy jihatlarini hamda shaxs kamolotidagi ahamiyatini to'garak faoliyati jarayonida keng targ'ib qilish muhimdir. Shu ma'noda ushbu maqola musiqa to'garaklarida dutor cholg'usi asosida o'quvchilarning ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishga qo'yiladigan pedagogik talablar: to'garakning maqsadi va mohiyatini yoritilganligi, o'quvchilarni milliy musiqa ruhida, keng dunyoqarashli, badiiy did egalari etib tarbiyalash, mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijrochiligiga moslab repertuar tanlash, to'garakni mazmunli olib borishda o'qituvchilarning pedagogik mahorati keng yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: umumta'lim maktablari, musiqa to'garaklari, dutor cholg'usi, ko'nikma, ijrochilik, o'qituvchi, o'quvchi, pedagogik mahorat.

Annotation. In school education, all processes related to music education are of great importance in raising students to become morally mature people. It is important to conduct extracurricular music classes at school based on pedagogical requirements, to promote the educational aspects of musical art and the ideas presented in them, and the importance of personal development through the development of performance skills in students in the course of club activities. . In this sense, this article presents the pedagogical requirements for the development of students' performance skills based on the dutor instrument in music clubs: the

purpose and essence of the club is highlighted, students are educated in the spirit of national music, have a broad outlook, and have artistic tastes. Pedagogical skills of the teacher in training, choosing repertoire according to the performance of the students, conducting the class in a meaningful way are widely covered.

Key words: general education schools, music clubs, musical instrument, skill, performance, teacher, student, pedagogical skills

Kirish. Musiqa haqida gap ketganda, uning inson hayotining ohanglardagi his –tuyg’ulari deb ta’rif berishadi. Ijod esa musiqa olamini mo’jizakor vositalar bo’lmish sehrli cholg’ular yaratib, benazir ohanglar taratuvchi sozlar bilan to’ldirdi. Natijada, bugungi kundainson hayotini musiqiy cholg’ularsiz tasavvur etib bo’lmaydi. Cholg’ular insoniyatma’naviyatining bir bo’lagiga aylandi. Har bir xalq o’z hayoti, ma’naviyati va an’anasi asosida o’z milliy qadriyatlariga mos musiqiy cholg’ular yaratgan. Sharqning musiqiy cholg’u sozlari – eng qadimiy, o’ziga xos va jonli san’atdir. Bizgacha yetib kelgan qadimiy tasvirlar, arxeologik topilmalar va o’rta asrlardagi cholg’u sozlarining tasvirlari ularning qadim-qadimlardan buyon mavjud ekanligini tasavvur qilish imkonini beribgina qolmay, shu bilan birga u yoki bu musiqiy sozlarning o’zbek xalqi ajdodlari orasida azaldan taomilda bo’lganligi xususida ham ma’lumotlar beradi. Ana shunday cholg’u sozlardan biri, o’zbek xalqining barcha udum va qadriyatlari, milliy an’analarini aks ettiruvchi dutor cholg’usidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Dutor xususidagi dastlabki ma’lumotlarni Mavloni Zaynulobidin al-Xusayniyning Alisher Navoiyga bag’ishlangan “musiqiy ilm va amaliyot qonuni risolasida uchramiz. XV asrning ikkinchi yarmida bitilgan bu risolada o’sha zamonda kvarta intervali oralig’ida sozlanuvchi, o’n bir pardaga ega bo’lgan dutor tavsiflanadi. Dutor va dutor cholg’ulari to’g’risida ma’lumotlar beruvchi yana bir manba Al-Husayniy risolasidan ikki yuz yil keyin yozilgan risolai musiqiy asari bo’lib, uning muallifi mashhur hofiz, bastakor va changchi sozanda Darvish Ali bin MirzoAli bin Xo’ja-Maxmud Munavvardir. Darvish Alining asari ikki bo’limdan, ya’ni nazariy va tarixiy qismlardan iborat. XX asrlarga kelib, dutor cholg’usi bo’yicha bir qancha o’quv adabiyotlar nashr etildi. Jumladan, dotsent Sh.Raximov Cholg’u ijrochiligi» (dutor) 2011, Q.Panjiev va boshqalarni «Musiqa to’garaklarini tashkil etish» (2020) nomli o’quv qo’llanmasi va boshqa bir qator adabiyotlarda Musiqa to’garaklarida o’quvchilarni dutor cholg’usida ijrochilik ko’nikmalarini rivojlantirishning usul, metod va shakllarini bayon etilgan.

O’tgan asrda dutor san’atiga nisbatan ko’proq e’tibor bergan, unda ijro etilgan qo’shiqlar va kuylarni yozib olgan dastlab yevropalik musiqashunos, harbiy orkestr dirijor Avgust Eyxgorn bo’ldi. O’zbeklar va O’rta Osiyodagi boshqa xalqlarning musiqiy madaniyati tarixi, cholg’ularning o’ziga xos akustik, musiqiy-texnik jihatlari, sozlanishi hamda tovush qatorlari va

applikaturasi Eyxgorn e'tiborini o'ziga jalb etadi. XX asr birinchi choragida o'zbek musiqa san'atining ilmiy-uslubiy va milliy tomonlarini birinchilardan bo'lib tadqiq qilgan olim Abdurauf Fitrat edi. Xususan, Shashmaqomning shubachalarini, ufarlarini hamda butun el kuylarini dutor bilan chalish mumkindir, -deb yozadi A. Fitrat.

Dutorning haraki juda past bo'lgani uchun ko'p dutor ijrochilarimiz chalgan vaqtda qo'llarini taxtaga tekkizib, dutor ovozi sofligi buzib qo'yadi. 1919 yilda tashkil etilgan halq konservatoriyasi qoshida alohida ijodiy jamoa tuzildi. B.A.Uspenskiy boshchiligidagi Turkmanistonga uyishtirilgan ekspeditsiya chog'ida 350 ga yaqin xalq musiqiy asarlari turli ijrochilardan yozib olindi. Bu kuy va qo'shiqlarning aksaryati turkman dutorida cholg'u asari sifatida yoki dutor jo'rnavezligida ijro etilgan.

1930 yillarning ikkinchi yarmidan to 1950 yillarning o'rtalarigacha an'anaviy xalq cholg'u asboblari, jumladan, dutor ham cholg'u asbob sifatida tadqiq qilish ishlari sezilari darajada susayadi.

Ma'lumki, ijrochilik san'ati muayyan hududlarga xos uslublarning shakllanishi, xalqning turli etnik guruhlariga bo'linishi bilan bog'liqdir. Dutor o'zbek cholg'u sozlari ichida muhim o'ringa ega bo'lib, uning ijrochilik xususiyatlari janrlarning o'ziga xosligi, ohang va tovushlar tuzilishi tamoyilida, cholg'uni yasash san'ati qoidalarida asosan, Farg'ona-Toshkent, Buxora-Samarqand va Xorazm uslublari namoyon bo'ladi[7]. Dutor chalish san'atida Farg'ona-Toshkent uslubining asrlar davomida mukammallikka erisha borganligini ko'ramiz. Asrlar davomida dutorida ijro etilib kelinayotgan ohanglarning sayqallashuvi, ularning shakl rang-barangligi, usul va uslublari doirasining kengligi ijroning o'ziga xos nafisligi va ta'sirchanligi an'anaviy ijrochilik maktablarining paydo bo'lishiga olib keldiki, bu omillarning barchasi o'zbek milliy madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo'lmish dutor chalish san'atining ko'lamini yetarlicha tavsiflaydi.

Aynan sinfdan tashqari musiqa ta'limida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda o'quvchilarda milliy g'oya tushunchalarini shakllantirishning didaktik qulayligi mavjudki, ular dars (masalan, umumiy o'rta ta'lim tizimidagi "Musika madaniyati" o'quv fani) bilan sinfdan tashqari mashg'ulotlardagi musiqiy to'garaklar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikda namoyon bo'ladi. To'garak mashg'ulotlari bilan dars o'rtasidagi umumiyliklarga mashg'ulotlarning tashkiliy shakli, to'garak rahbarlari qo'llaydigan metod va usullar, mashg'ulotlarda o'quvchining faolligi va tashabbuskorligiga erishish va unga tayanish, mashg'ulotlarini yangi xulosalar bilan yakunlanishi kabilar kiradi. Musiqiy to'garaklar o'quvchilarda qobiliyati, ijodiyotning tarkib topishi, shakllanishi va o'sishi uchun sharoit yaratadi.

Natijalar. To'garak ishlari dasturi o'quvchilarning qiziqishi, istak va talablari, mahalliy

shart-sharoitdan kelib chiqqan holda tuzilishi zarur to'garaklar moddiy bazasini yaxshilash kerak. Zero, "Sinfдан tashqari musiqani mablag' bilan ta'minlash respublika va mahalliy byudjtlar, korxonalar, birlashmalar tashkilotlar, ayrim shaxslar va qo'shimcha manbalar hisobidan amalga oshiriladi".

Sinfдан tashqari ta'lim jarayonlarining jadal rivojlanishi bu sohada ta'lim– tarbiyaviy ishlarni olib borish uchun har tomonlama tayyorgarlik ko'rgan ko'p sonli to'garak rahbarlari, instruktorlar, ommaviy tadbir tashkilotchilarining bo'lishini talab qiladi. Hozirgi kunda sinfdan tashqari badiiy to'garaklarni pedagogik kadrlar bilan ta'minlash masalasini har bir hudud kesimida hal etish masalasi o'ta dolzarbligicha qolmoqda. Bolalar muassasalarining to'garak mashg'ulotlarida va ommaviy- siyosiy ishlarida minglab turli soha vakillari, yuqori malakali mutaxassis-kadrlar faoliyat ko'rsatmoqdalar ².

Fikrimizning isboti uchun real vaziyatni, mavjud tajribalarni tahlil etib ko'raylik. Masalan, "Musika madaniyati" o'quv predmetlaridan 1-7 –sinflarda haftasiga bir soatdan dars o'tiladi. Bu yetarli emas. O'quv fanining ixtisoslik xususiyati ushbu fanni olib borishda har bir o'quvchi bilan yakka tartibda ishlashni taqazo etadi. Biroq, unga ajratilgan vaqt va bir sinfga jamlangan o'quvchilar soni bunday imkoniyatni bermaydi. Bunday imkoniyatni faqat sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotlarida ta'minlash mumkin. Shuning uchun ham musiqa to'garaklarida e'tiborni har qachongidan ham ortiqroq qaritish lozimligini ko'rsatadi. Bu borada quyidagi ustivor vazifalarni ko'rish mumkin.

1. O'quvchilarda musiqiy to'garaklar vositasida hayotga qiziqishi, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllanishi va rivojlanishi, ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish;
2. Dutor cholg'usi va uning taraxiy shakllanish jarayonlarini o'rganish;
3. Musika to'garaklarida o'quvchilarni dator cholg'usida ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida o'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalashning eng muhim tarbiyaviy vositasi sifatida o'rganish;
4. Odatda musiqa to'garaklariga muayyan sohaga ma'lum darajada qiziqishi bo'lgan bolalar keladi. Demak, ular bilan ishlash maroqli, jonli va samarali kechadi. Buning uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak;
5. Sinfдан tashqari musiqa mashg'ulotlaridagi to'garaklarga jamlangan o'quvchilar soni (Nizom talablari bo'yicha birinchi o'quv yilida 10 nafar, ikkinchi o'quv yilida 8 nafar bo'lishi mumkin). Ularning har biri bilan yakka tartibda ishlash imkonini beradi. Shuning uchun ham aynan maktabdan tashqari ta'lim muassasalari nufuzli yutuqlarga erishib kelmoqda. Ma'lumki, tarbiyaviy ishlar dars jarayoni bilangina cheklanib qolmasdan, balki darsdan tashqari vaqtlarda ham davom etadi.

Sinfidan tashqari ta'lim jarayoni muammolarini o'rganish bo'yicha olibborilayotgan tadqiqotlar, ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlash, mazmunini chuqurlashtirish va ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, oila, maktab va maktabdan tashqari ta'lim jarayonlari uzviyligini ifodalaydi. Bu uzviylik asosida o'quvchi-yoshlarni mamlakatimiz taraqqiyotida faol ishtirok etishga tayyorlash, ularda Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq faravonligi, komil inson, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik g'oyalarini shakllantirish hozirgi kun pedagogikasining dolzarb vazifasidir.

Maktablarda tashkil etilgan musiqa to'garaklarining oldiga qo'yilgan asosiymaqсад - o'quvchi yoshlarni ma'naviy-intellektual bilimlarini oshirish, badiiy - estetik didlarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, zamonaviy bilimlar majmuasini o'rgatish, mustaqillik mafkurasini shakllantirish, o'quvchi – yoshlarni ma'naviyatga, san'atga, maishiy sohalarga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalash va o'qishdan tashqari bo'sh vaqtlarini foydali faoliyat turlariga yo'naltirishdan iborat. Ular o'z faoliyatlari davomida o'quvchi - yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarini olib boradilar, xalq an'analari, urf-odatlarini, namunalarini, havaskorlik san'ati turlarini o'rgatadi, zamonaviy bilim ko'nikmalarini targ'ib qiladi, badiiy-estetik dunyoqarashlarini boyitib boradi.

Bugungi kunda musiqa to'garaklarida dutor cholg'usi asosida o'quvchilarning ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishga qo'yiladigan pedagogik talablar quyidagilardan iborat:

to'garaklarda mashg'ulotlar jarayonini tashkil qilish usuli, pedagogik mahorat sharhlash metodlarini yorituvchi nazariy manbalarni o'rganish;

mashg'ulotlarni qiziqarli va mazmunli shaklda tashkil qilish, pedagogik mashq sharhlash usullarining o'quvchi ma'naviy dunyosiga ta'siri bo'yicha ilmiy- nazariy metodologiyaga tayangan holda ishonchli metodikalar tanlash va mavjudlarini modifikatsiya qilish;

tanlangan obyektlarda o'quvchilarning g'oyaviy onglik monitoringini yaratish, ularning maqsadli o'zgartirish bo'yicha pedagogik mashq, sharhlash usullari vositasida stsensariylar asosida mashg'ulotlar tashkil qilish;

oldingi natijalarni pedagogik tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish.

Bunday omillar o'quvchi ijtimoiy-ma'naviy olamini kengaytirishi unda ushbu omillarga nisbatan baholar tizimini shakllantirish, ma'naviyat mazmuniga aloqador pedagogik omillar kuchini oshirish hamda mustahkamlanish ehtimolini kuchaytiradi. Ushbu jarayonga aloqador bo'lgan ijtimoiy pedagogik mexanizimlar – taqlid, ta'sirlanish, o'rnak olish, o'rnak ko'rsatish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, ijtimoiy burch, o'quvchi-o'qituvchi, rahbar va fuqaro, baholash, bevosita mashg'ulotlar va ta'lim- tarbiya jarayoni tizimida o'quvchi-yoshlarda milliy g'oya tushunchalarini shakllantiruvchi pedagogik talablar vazifasini bajaradi.

Ko‘rinib turibdiki, musiqa to‘garaklari pedagogik jihatdan ko‘p tarmoqli bo‘lib, milliy madaniyatni shakllantirish, umuminsoniy va xalq qadryatlarini aks etiruvchi madaniyat bilan tanishtirish, qo‘shimcha bilimlar, malakalar egallashga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish va ularni boyitish, mehnatga bo‘lgan munosabatni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqa to‘garaklarida dutor cholg‘usi asosida o‘quvchilarning ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qo‘yiladigan eng muhim pedagogik talablardan biri repertuar tanlash hisoblanadi.

Cholg‘uchi ijro qilgan asarlar majmuasiga repertuar deyiladi. O‘quvchilar uchun repertuar tanlashda nimalarga e‘tibor berish kerak? Repertuarni qanday tanlash kerak? Duch kelgan asarni o‘quvchiga ijro etish uchun beraverish yaramaydi. Tanlanayotgan asar o‘quvchi - sozandaning ijro maxoratini yana bir pog‘onaga ko‘tarishga xizmat qilishi kerak. O‘quvchining cholg‘uda ijro mahoratining muvaffaqiyatli rivojlanishi har doim ham uning qobiliyati bilan belgilanavermaydi. Bunda repertuar tanlashning ham ma‘lum darajada ahamiyati bor. Sazandaning oldiga qo‘yilayotgan vazifalarning bir maromda murakkablashishi uning qiziqishini yanada kuchaytiradi. Boshqacha aytganda, navbatdagi tanlanayotgan asar oldingisiga qaraganda ijro jihatidan murakkabroq bo‘lishi zarur. Aytish zarurki, ijro uchun tanlangan musiqa asari o‘quvchining imkoniyatlariga mos kelishi kerak, toki u asarning badiiy va texnik vazifalarini hal eta olsun. Dutorda ijroni o‘rgatish va o‘rganish jarayonining har bir bosqichida o‘quvchi oldiga qo‘yiladigan talablar asosli va o‘rinli bo‘lishi kerak. Agar bu talablar haddan tashqar murakkablashib ketsa, ya‘ni asarlar o‘quvchiningimkoniyatiga qaraganda qiyinroq bo‘lsa, albatta bu o‘zining salbiy tasirini ko‘rsatadi. Aksincha, tanlanayotgan asarlar juda soddalashib ketsa ham bo‘lmaydi. Bu holda o‘quvchining ijroga bo‘lgan qiziqishi pasayib ketishi mumkin. Ijro ta‘limi tajribasidan shu narsa ma‘lumki, o‘quvchilarning hammasida ham ijro usuli va uslublarining ko‘nikmasi bir xilda rivojlangan bo‘lmaydi. Masalan, ba‘zilarda chap qo‘lning ijro ko‘nikmalari yaxshi rivojlangan bo‘lsa, boshqalarida o‘ng qo‘l texnikasi rivojlangan bo‘ladi. Yoki ba‘zi o‘quvchilar jadal tezlikdagi asarni ijro etishda qiyinchilik sezsa, boshqalari vazmin, kuychan asarlarning ijrosida qiynaladilar. Repertuar tanlashda ko‘rsatilgan xususiyatlar albatta hisobga olinib, tanlangan asarlar yordamida kamchiliklarni bartaraf etish kerak. Hozirgi paytda dutor ijrochilari uchun repertuar tanlashda boshqa o‘zbek halq cholg‘ulari va skripka, doira uchun mavjud bo‘lgan to‘plamlardan foydalanilyapti. Boshqa cholgular uchun qo‘yilgan ijro belgilariga katta e‘tibor berilishi kerak. Chunki qo‘yilgan belgi faqat shu cholg‘u uchungina qaratilgan bo‘lib, dutorda ijrosi o‘zgarishi mumkin. Masalan, g‘ijjak yoki skripka uchun yozilgan asarlarda uchraydigan “legato” belgisi dutorda asosan rez usuli bilan ijro etiladi. Musiqa asari jadal tezlikdagi ijroni talab etsa, “legato” belgisi qo‘yilgan bo‘lsa ham (tovushlarning ulanishiga e‘tibor bergan holda) pastga va yuqoriga zarblar bilan ijro etish kerak[6].

Bundan tashqari, dutorda boshqa cholg'ular uchun yozilgan asarlarni ijro etishda mavjud bo'lgan applikator hamma vaqt to'g'ri kelavermaydi. SHuning uchun qulay applikatorani tanlashda o'qituvchining to'g'ri ko'rsatmalari katta ahamiyatga egadir. Dutor ijrochisi (barcha cholg'ular singari) o'z repertuariga turli davrga mansub bo'lgan musiqa asarlarini kiritishi maqsadga muvofiq. Repertuar tanlashning bu prinsipini qo'llash rang - barang musiqa materiallari bilan yaqindan tanishishda va o'quvchining dunyoqarashini boyitishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Dutor ijrochisining taxminiy repertuar rejasini keltiramiz;

1. O'zbek xalq kuylari.
2. O'zbek kompozitorlarining asarlari.
3. Qardosh halqlar kompozitorlarining asarlari.
4. Yevropa klassik kompozitorlarining asarlari.

Shuningdek, dator ijrochisining o'quv repertuariga ikki uchta turli xarakterdagi etyudlar, gammalar va mashqlar kiritiladi. Musiqa asarining badiiy va texnik ko'rsatkichlari dator holg'usining ijro imkoniyatlariga mos tushishi repertuar tanlashda hal qiluvchi omillar sirasiga kiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda musiqa to'garaklarida dator cholg'usi orqali o'quvchilarning ijrochilik malakalarini rivojlantirishda to'garak rahbaridan pedagogik mahorat, kasbiy kompetentlikni talab etadi. Dutor ijrochiligi malakalarini rivojlantirishda o'qituvchi ijrochilik kompetensiyalarini mukammal egallaganligi bilan birga pedagogik talablarga ham javob berishi lozim. Musiqa o'qituvchi uchun faqat sozanda bo'lishning o'zi yetarli bo'lmay, undan pedagogik fikrlash, o'quvchining ichki dunyosiga ko'ra bilish, uning individual xususiyatlarini hisobga olish kabi sifatlariga ega bo'lish ham talab etiladi. Cholg'u ijrochiligidan ta'lim beradigan o'qituvchi umumiy pedagogika va psixologiya sohalaridan ham xabardor bo'lishi kerak. O'quvchi o'z o'qituvchisini haqqoniy va talabchan, kundalik hayot muommolarini to'g'ri hal qilishga o'rgatuvchi shaxs sifatida tasavvur etadi. O'quvchilar o'qituvchidagi har bir noaniq harakatlarni o'z vaqtida ilg'ab oladilar. Shu bilan birga ayrim o'quvchilar paydo bo'lgan muammoni asosan bir taraflama, voqeaning emotsional tarafiga asoslangan holda hal etmoqchi bo'ladi. O'z o'quvchisining tabiatini yaxshi o'rganib, tushungan o'qituvchi bunday paytda o'quvchiga muayyan holatdan to'g'ri xulosa chiqarib olishda yordam berishi kerak. O'qituvchi o'z fikrini doimo haqiqiy fikrga asoslangan holda ishonitirish yo'li bilan tushuntirishi lozim. O'zaro ishonch va yaxshi munosabatning paydo bo'lishida o'qituvchining xulqi, muomala madaniyati katta ahamiyatga ega. O'quvchilar o'zlari yoqtirgan o'qituvchilarga taqlid qilishlari yaxshi ma'lum. Agar o'qituvchining so'zi bilan amaldagi ishlari orasida to'la

mutanosiblik, bo'lsa, o'quvchilarning shu o'qituvchiga bo'lgan hurmati yanada ortadi. O'qituvchiga nisbatan oddiy va samimiy munosabatda bo'lish o'qituvchilarning asosiy vazifasidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" – 2017 y.
3. Mirziyoev Sh.M. O'zbek maqom san'atini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2017 yil.17 noyabr.
4. Azizzadjayeva N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat"(o'quv qo'llanma) T. 2006.
5. Soipova, D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. Musiqa. (2019).
6. B. Rahimjonov "Dutorchilar ansambli " T. 2002-y 39-bet
7. Dutor darsligi Gulchehra Muxamedova Toshkent 2011-yil 5-10 bet.

BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA VOKAL IJROCHILIGI MALAKALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI.

Murodov Mirshoxid Burxanovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institut "Musiqa ta'limi" kafedrası dotsenti

mirshokhidmurodov@gmail.com

Annotatsiya: Ushu maqolada talabalarda vokal ijrochiligi ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari, pedagogik omillari keng yoritilgan. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida vokal ijrochiligini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadigan pedagogik usullari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Vokal, ovoz, diksiya, iste'dod, tovush, tembr, ovoz kuchi, ovoz apparati, talaffuz, nafas, talaba, pedagogik omillar.

Annotation: Pedagogical features and pedagogical factors of formation of vocal performance skills in students are widely covered in this article. Pedagogical methods that are of particular importance in the formation of vocal performance in future music education teachers are discussed.

Key words: Vocal, voice, diction, talent, sound, timbre, voice power, voice apparatus, pronunciation, breath, student, pedagogical factors

Kirish. Oliy ta'lim muassasalari musiqa ta'limi yo'nalishlarida vokal asoslari darslarining olib borilishiga alahida ahamiyat berish maqsadga muvofiq. Sababi ushbu darslar talabalarni, ya'ni bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini vokal ijrochiligi faoliyatiga tayyorlashga xizmat qiladi. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisi kasbiy faoliyati davomida musiqa darslarida musiqiy faoliyat turlariga alohida vaqt ajratishi muhim sanaladi, shu ma'noda vokal ijrochiligi malakalarini mukammal egallagan talaba musiqa darslarini samarali tashkil eta oladi.

Musiqa inson qalbiga chuqur yo'l topadi, uni ko'rkam qiladi. U kishi ruhining aqliy va axloqiy tomonlariga kuchli ta'sir ko'rsatib, tuyg'uli (emotsional), estetik hissiyotini faollashtiradi. Shuning uchun ta'limda o'quvchilarning musiqa madaniyatini tarbiyalash va shakllantirish musiqa ta'limi va tarbiyasining bosh maqsadi qilib belgilangan.

Vokal san'ati musiqiy ijroning bir turi sifatida xonandaga o'z fikrlari va his tuyg'ularini ovoz, she'riy adabiy til, ifodali ohang orqali ifoda etish, hissiyotlarni jonli ravishda yetkazish imkonini beradi, ularning maqsadi tinglovchilarga ta'sir qiladigan musiqiy va badiiy yoshni yaratish, ularda estetik tuyg'ular va estetik hissiyot uyg'otish vazifasini bajaradi. Vokal asarini ijro etish qiyin jarayon bo'lib, xonandadan yuqori darajadagi iste'dod yoki muntazam tizimli mashg'ulotlarni talab qiladi. Ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish - bu ovoz aparati barcha elementlarining uyg'un o'zaro bir-biri bilan hamohang tasiri ham ahamiyat kasb etadi. Noto'g'ri tanlangan o'qitish strategiyasi bo'lsa, talaba ovozini yo'qotishi mumkin va noto'g'ri o'qitish taktikasining natijasi talabaning tomoq kasalligiga olib kelish imumkin. Shuning uchun vokalni samarali o'rganish uchun talabalarning vokal malakasining bir qator o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Vokal asarlarini kuylashda nafas olishni rivojlantirish kuylash asosi sifatida ijrochilik ustida ishlash jarayonida kechadi va asta-sekin, sistemali tarbiyalanadi. U bir maromda, erkin, ovoz hosil qilishda qatnashuvchan barcha sistemalarning tabiiy muvofiqlashuviga ko'maklashadigan bo'lishi kerak. Xonanda nafas olishni rivojlantirish kuylash asosi sifatida ijrochilik ustida ishlash jarayonida kechadi va asta-sekin, sistemali tarbiyalanadi. U bir maromda, erkin, ovoz hosil qilishda qatnashuvchan barcha sistemalarning tabiiy muvofiqlashuviga ko'maklashadigan bo'lishi kerak. Faqatgina kuylash bilan bog'liq tashkil etilgan, tinch nafas olish "tayangan" tovush uchun sharoit yaratiladi [1]. Bunday tovush to'liq va chiroyli eshitiladi.

Barcha taniqli o'qituvchilar nafas olish masalasini asosiy o'ringa qo'yishlari bejiz emas. Shunday qilib, M. Garsiya shunday deb yozgan edi: "agar siz nafasingizni boshqarish san'atini o'zlashtirmasangiz, mohir qo'shiqchi bo'la olmaysiz". N.D.Andguladzening fikriga ko'ra esa:

"Kuylash san'ati nafas olish san'atidir" degan fikrni bildirgan[2]. Bundan ko'rinadiki ijroning asosiy tayanch elementlaridan biri bu nafas olish hisoblanadi.

O'qituvchi-vokalist F.Lampertining "Ovozni tarbiyalashning dastlabki bosqichida ijrochi ovoz bilan emas, balki aql bilan ko'proq o'rganishi kerak, chunki uni charchatib, siz yana yaxshi holatga keltira olmaysiz" deb ta'kidlagan so'zlarini doimo yodda tutishingiz kerak. Yaxshi bosh muvaffaqiyatli ishlashning kalitidir, u yaxshi ovoz kabi muhimdir. Qo'shiq aytishning asosi, asosi nafas olishdir. Yaxshi qo'shiq aytish "nafas chiqarish mahorati" deb ishoniladi, ammo "mohirlik bilan nafas olish" uchun "nafas olishni" o'rganish kerak.[3]

Natijalar. Talabalarining vokal malakasini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun o'qituvchi birinchi navbatda ularga nafas olish mexanizmini o'zlashtirishga yordam berishi kerak. Qo'shiq aytayotgan talaba nafas olish apparati ishida yangi mahoratni rivojlantiradi. Darhaqiqat, nutq tovushini qo'shiq (vokal) tovushiga aylantirganda, dominant omil qo'shiqchida "qo'llab-quvvatlovchi" nafas olishning paydo bo'lishi hisoblanadi. Ijroda nafas qo'shiqchi tomonidan boshqariladi. Nafas olish organlari: burun, og'iz, tomoq, halqum, traxeya, bronxlar, o'pka, ko'krak qafasi, diafragma (ko'krak va qorin bo'shlig'i mushaklari septum), pastki qovurg'alar, interkostal va qorin mushaklari. Nafas olish xonandalarning kundalik va hayotiy ehtiyojidir.

Yana bir muhim xususiyat-bu talaba ovozining balandligi, uzunligi, unli tovushlarning ravshanligi, tovushning kuchi va tembri bilan ajralib turadigan qo'shiq ovozining mavjudligi kuylash jarayonining mohiyati hisoblanadi. F.Lampertining aytishicha, inson ovozi boshqa musiqa asboblari qaranganda "hissiy hayajonning eng chuqur nuansini ifoda eta oladi"[4]. Ijroda ijrochi badiiy obrazni yaratish jarayonida tinglovchiga musiqaning matnli mazmunini yetkazishi kerak, bu yerda diksiya muhim rol o'ynaydi.

Vokal asarini mukammal ijro qilishda badiiy ekspressivlikning asosiy prinsipi musiqiy intonatsiya va she'riy so'zning birligidir. Shu munosabat bilan Kui shunday deb yozgan edi: "Vokal musiqasida she'riyat va tovush teng huquqli kuchlardir, ular bir - biriga yordam berishadi, so'z aniq tuyg'uga aniqlik beradi, musiqa uning ekspressivligini oshiradi, ikkalasi ham birlashadi va qasos bilan tinglovchiga ta'sir qiladi"[5].

Vokal o'qitish usuli talabalarga ta'sir qilishning murakkab vositasi bo'lib, u xilma-xillik va ko'p qirralilik bilan ajralib turadi. Vokal o'qitishning asosiy prinsipi "oddiydan murakkabgacha" - Vokal san'atini uzoq muddatli o'rganish qo'shiq aytishni o'rgatishning turli usullariga asoslangan. Ular orasida eng samaralisi bu vazifalarni bosqichma-bosqich murakkablashtirishning yumshoq usuli, bu talabalarga vokal mahoratining asoslarini o'zlashtirish, bosqichma-bosqich murakkab mashqlarga o'tish va ijro texnikasini takomillashtirishga imkon beradi.

Musiqqa ta'limida o'qituvchilik muhitida talabalarni tez-tez maqtash, ularni rag'batlantirish, o'zlarini topishga yordam berish va o'quv jarayonini jazo choralarga kamaytirmaslik kerak degan fikr haqli ravishda keng tarqalgan. Vokal darslari uyg'un munosabatlarga, o'qituvchi va talabalarning o'zaro hurmatiga asoslangan bo'lishi kerak. Ushbu uyg'un muhitda talabalar to'g'ri qo'shiq aytish tamoyillarini tushunish va o'zlarining ijodiy ijro uslublarini topish uchun ko'proq imkoniyatga ega. Ta'lim jarayonidagi qattiqqo'llik talabalar orasida g'ayratni keltirib chiqarmaydi va ularning ijodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ijobiy muhitda har bir talabaning o'ziga bo'lgan ishonchi va shaxsiy ahamiyati namoyon bo'ladi, ular odamni qiyinchiliklarni yengishga va hayotdan zavq olishga qodir qiladi, kognitiv jarayonlarga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Talaba o'z harakatlarini va boshqalarning harakatlarini yanada aniqroq baholash qobiliyatiga ega bo'ladi. Ko'p bosqichlarda vokal o'rganish bir xil turdagi mashqlarni takrorlashda namoyon bo'ladi, shuning uchun ko'plab talabalar buni zerikarli, qiziq emas deb bilishadi. Turli xil o'quv rejimlarini, talabalarning qo'shiq aytishga bo'lgan qiziqishini oshirish usullarini topish, talabalarga o'z ovozlari g'amxo'rlik qilishni unutmasliklari, kerakli mashqlarni bajarishlari va charchoqdan saqlanishlari kerakligini eslatish kerak. O'qituvchining vazifasi nafaqat ta'lim-tarbiyani ma'lum miqdordagi nazariy bilimlarni yetkazish, balki unga vokal san'atining asoslarini tushunishda psixologik yordam berishdir.

Xulosa. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi tezligi talabalarimizga juda jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, o'qituvchi uchun talabaga o'z vaqtida asabiy vaziyatni yengishga yordam berish, talabaning tayyorgarligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan psixologik stress vaziyatini o'tkazib yubormaslik juda muhimdir. Hozirgi kunda ta'lim sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar, uni mazmuni milliy asoslarda takomillashtirish, uning barcha sohalarida bo'lgani singari musiqqa ta'limida ham birinchi navbatda milliy o'zlikni anglash, shu ma'noda milliy qadriyatlarimizni tiklash, rivojlantirish, amaliy faoliyatda tatbiq etish ishlarini takomillashtirishni nazarda tutadi. Hozirgi jamiyat taraqqiyotining o'zi ham ta'lim tizimini yangicha asoslarda yangilash, yanada rivojlantirish, hamda zamonaviy, ilg'or xorijiy tajriba, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda yo'lga qo'yilishini taqozo etmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Qahharov N.V. Vokal asoslari. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya. 2008. 314 b.
2. Андгуладзе Н.Д. О творческой природе певческого дыхания / Н. Д. Андгуладзе // Первый международный междисциплинарный конгресс «ГОЛОС»: сб. трудов. – Москва, 2007. – С. 5-6
3. Пекерская Е.М. Вокальный букварь / Е. М. Пекерская. – Москва: Музыка, 1996. – 11 с

4. Ламперти Ф. Начальное теоретико-практическое руководство к изучению пения. Искусство пения по классическим преданиям. Технические правила и советы ученикам и артистам. Ежедневные упражнения в пении: учебное пособие / Ф. Ламперти; пер. Н. А. Александровой. – Санкт-Петербург: Издательство «Лань»; Издательство «ПЛАНЕТА МУЗЫКИ», 2014. – 21 с.

5. Смелкова Т.Д. Основы обучения вокальному искусству: учебное пособие / Т.Д.Смелкова, Ю.В.Савельева. – Санкт-Петербург: Издательство «Лань»; Издательство «Планета музыки», 2014. – 16 с.

TALABALARNI CHOLG’U IJROCHILIGI ASOSIDA ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.

Samatova Dilnoza Salaidinovna

O‘zbekiston Finlandiya pedagogika instituti

“Musiq ta’limi” kafedrası katta o‘qituvchisi.

dilnozasamatova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarning cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish va bu orqali ularning estetik dunyoqarashini oshirish, estetik tafakkurini rivojlantirish ishlari, oliy pedagogik musiqa ta’limi yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilari o‘z kasbiy faoliyatida o‘zining estetik tafakkuridan kelib chiqib jamiyatimizga kerakli bo‘lgan barkamol, yosh-avlodni komil inson qilib tarbiyalashga o‘rgatish. talabalarni cholg‘u ijrochiligi asosida estetik tafakkurini rivojlantirishda modulli mashg‘ulotlari davomida kompetensiyalarini zamon talablariga har tomonlama to‘liq javob berishi, zamonaviy innovatsiyalardan boxabar bo‘lishi kabi masalalar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: cholg‘u ijrochiligi, estetik tafakkur, pedagogning kasbiy, tashkiliy, didaktik, ijodiy mahoratlari, kasbiy intellektual bilim, cholg‘ularni badiiy texnik imkoniyatlaridan zamonaviy ijroda foydalanish.

Annotation: In this article, today, the future teachers of music education who are studying in the areas of higher pedagogic music education, the work of developing the knowledge and skills of future teachers in musical performance and thereby increasing their aesthetic worldview, developing their aesthetic thinking, are discussed. In his professional activity, based on his aesthetic thinking, to educate the young generation to become perfect people, which is necessary for our society. issues such as students' development of aesthetic thinking on the basis of musical performance, their competences fully meet the requirements of the times, and being aware of modern innovations during their modular training are highlighted.

Key words: instrument performance, aesthetic thinking, professional, organizational, didactic, creative skills of the pedagogue, professional intellectual knowledge, use of musical instruments in modern performance.

Kirish. Bugungi kunda musiqa ta'limida cholg'u ijrochiligining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati alohida hisoblanib, o'quvchilarning cholg'u ijrochiligi malakalarini rivojlantirish ularning estetik tafakkurini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu borada maktab ta'limiga qadam qo'yayotgan bo'lajak pedagog kadrlar ya'ni musiqa o'qituvchilarida kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan ijrochilik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda.

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarning cholg'u ijrochiligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish va bu orqali ularning estetik dunyoqarashini oshirish, estetik tafakkurini rivojlantirish ishlari dolzarblik kasb etmoqda. Bunga sabab oliy pedagogik musiqa ta'limi yo'nalishlarida ta'lim olayotgan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilari o'z kasbiy faoliyatida o'zining estetik tafakkuridan kelib chiqib jamiyatimizga kerakli bo'lgan barkamol, yosh-avlodni komil inson qilib tarbiyalashga xizmat qiladilar. Bu esa ularning oldida "yoshlar ongini tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir"². Shuning uchun ham maktab musiqa darslarini o'qitishda o'zining estetik tafakkuri asosida dars sifat va samaradorligiga javob beradigan, dasr mashg'ulotlariga ijodiy yondasha oladigan malakali bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash muhim. Maktab musiqa ta'limi darsalarini ijodiy tashkil etish esa o'qituvchining cholg'u ijrochiligi malakalarini mukammal egallaganligi bilan belgilanadi. Cholg'u ijrochiligi malakalarini mukammal egallashda oliy pedagogik musiqa ta'limida tayyorlanayotgan bo'lajak musiqa o'qituvchilarini o'qitish tizimini yanada rivojlantirish hamda ularning cholg'u ijrochiligi malakalarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish va bunday mexanizmlar orqali ularning estetik tafakkurini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, kuy va qo'shiq odamning ma'naviy hamrohi bo'lib, u kishi qalbini ruhlanishi, dilini poklanishi va komil inson bo'lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ma'naviy go'zallik insonning eng qimmatli fazilatlaridan biridir [4]. Samarqandlik mashhur bastakor va sozanda A.Amonovning "Istiqlolimni kuylayman" nomli uslubiy qo'llanmasida bunga alohida to'xtalib o'tilgan. "Komil inson tarbiyasida estetik tarbiya nihoyatda muhim o'rin tutadi. Zero, yaxshiliklarni qalbi sof va go'zal insonlarda kuzatamiz. Shuning uchun ham, yoshlarimizni juda kichikligidanoq estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lgan, onaning suti bilan qalblarimizga joylashadigan musiqiy tarbiya bilan shug'ullantirish

² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O'zbekiston. 2021. –464 b.

zamonamiz talabiga mos vazifalardandir”[4]. Bunday vazifalarni bajarish esa bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining maqsadiga aylanmog'i lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljalangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi PF-60-son Farmoni, 2022 yil 2 fevraldagi “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PQ-112 Qarori va “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni hamda Sh.M.Mirziyoyev tomonidan mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarining qabul qilinishi bo'lajak kadrlarni yetuk qilib tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari oldiga qator muhim vazifalarni qo'yadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarni yetuk kadr qilib tayyorlash masalasiga davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida e'tibor berilayotganidan dalolatdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmonining qabul qilinishi mamlakat ta'lim tizimida tarixiy voqea bo'ldi. Farmonning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasining 4-bandi “Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish”ga bag'ishlandi. Unda oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish bo'yicha talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, jumladan talaba-yoshlarni madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, ularning kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish, talaba-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish kontseptual vazifa sifatida belgilab berildi. [12]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PQ-112 Qaroriga ko'ra 2022/2023 o'quv yilidan boshlab “ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi”³ belgilab qo'yildi. Unga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qiyotgan o'quvchilar mazkur qarorning 1-ilovasida keltirilgan milliy cholg'ulardan kamida bittasini ijrochilik ko'nikmasini egallashlari keltirilib o'tilgan. Bunday ko'nikmalarni egallashlari

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son

uchun esa musiqa darslariga qo'shimcha ravishda cholg'u ijrochiligi amaliy to'garak va fakultativ darslari o'takazilishi aytib o'tilgan. Ushbu qaror ijrosini amalga oshirishda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining zimmasida katta mas'uliyat turibdi. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilari ham mazkur qarorga asosan 1-ildovada keltirilgan milliy cholg'ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab esa kamida uchta milliy cholg'uda kuylarni mahorat bilan ijro eta oladigan darajada ko'nikma va malakalarni egallashlari majburiy etib belgilab qo'yilgan [2].

Buyuk Ibn Sino insonning tovush, ohang va nutqni o'z xohishiga bo'ysundira olishi uning kamolotga erishganligidan, uning madaniylashganligidan dalolat berishini ta'kidlaydi. Alloma o'zining «Ash-shifo», «An-Najot», «Donishnoma» asarlarida musiqani insonni ma'naviylashtirish quroli ekanligini uqtiradi. Bunday fikrlar Ibn Sinoning «Tib qonunlari»da ham uchraydi. Alloma bu asarida musiqasiz inson kamolotga erisha olmasligi, uning axloqiy madaniylashuvida musiqa hal qiluvchi rol o'ynashini yozadi: «...bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llash kerak», deb yozadi buyuk olim. «Biri, bolani asta-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun aytish odat bo'lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyasiga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil qilinadi». [3,-332 b]

Estetik tafakkur tarixiga nazar tashlasak «Estetika» XVIII asr oxirlaridan boshlab fanda go'zallik falsafasi, san'at falsafasi sifatida qo'llanilib kelingan. Pifagor estetikani falsafaning bir qismi deb ta'riflagan. Aristotel estetika tabiat va san'atning umumfalsafiy muammolarini o'rganadi degan bo'lsa, Platonning aytishicha estetikaning diqqat markazida san'atning davlat tomonidan boshqarish vazifasi turishi lozim. Italyan olimi Foma Akvinskiy estetikani dinshunoslikning bo'limlaridan biri deya ta'kidlagan. Italyan olimlaridan yana biri Leonardo da Vinchining fikriga ko'ra estetika tabiat va san'at nisbatini, san'atda voqeylikni hissiy bilish muammolarini o'rganuvchi sohadir. Nemis faylasufi Gegel estetikani san'atdagi go'zallikni o'rganadi deb ta'kidlagan.

Natijalar. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining estetik tafakkurini rivojlantirishda san'atning cholg'u ijrochiligi yo'nalishi alohida ahamiyat kasb etadi. Cholg'u ijrochiligi oliy ta'limning pedagogika yo'nalishlarida musiqa ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashning eng yetakchi omili hisoblanadi. Oliy pedagogik musiqa ta'limi yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talaba o'quv rejaga muvofiq “cholg'u ijrochiligi”, “qo'shimcha cholg'u”, “orkestr sinfi”, “cholg'u mutaxassisligi”, “ansambl sinfi” kabi fanlarni o'zlashtirish orqali cholg'u ijrochiligining muhim sirlarini, ijrochilik texnikalarini o'rganib, mahoratli ijrochiga aylanadilar.

Bugungi kunda pedagogik muammo shundaki, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining estetik tafakkuri zamon talabi darajasida yetarlicha rivojlanmaganligidadir. Sababi, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining aynan, cholg'u ijrochiligida yetarlicha malakaga ega emasligida, kasbiy faoliyatida musiqa darslarida cholg'u sozlarini qo'llay olmasligida, ya'ni, maktab darsligida keltirilgan kuy - qo'shiqlarni biron – bir cholg'u sozi jo'rligida o'quvchilarga o'rgata olmasligida va buning natijasida o'quvchilarning estetik dunyo qarashini, san'atga, go'zallikka bo'lgan intilishini rivojlantirishga yetarlicha hissa qo'sha olmayotganligidadir.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining estetik tafakkurini rivojlantirishda bir qator tashkiliy pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqishni bugungi zamonaviy musiqa ta'limi taqozo etib turibdi, bunda yetakchi vosita cholg'u ijrochiligi faoliyati hisoblanadi.

Cholg'u ijrochiligining bo'lajak musiqa ta'lim o'qituvchilariga mukammal o'rgatilishi ularda estetik tafakkurni rivojlanishiga sabab bo'ladi. Cholg'u ijrochiligi orqali pedagogning kasbiy, tashkiliy, didaktik, ijodiy mahoratlari ochib beriladi.

Estetik tafakkur o'quvchi-yoshlarning ongini go'zallik bilan boyituvchi nafosat olamini yaratishga xizmat qiladi. Ya'ni, estetik tafakkur insonning aqliy faoliyatini yuksak darajaga olib chiqishda go'zallik olamiga undovchi, voqelikni his etish orqali erishishiga turtki bo'luvchi vositadir. Bunda san'atning oliy darajadagi mahsuli hisoblanadigan ijrochilik mahoratlari alohida ahamiyatga ega. Ijrochilikda mukammallikka erishgan mohir sozanda, pedagog - kadrlargina kasbiy faoliyatida eng mukammal dars jarayonini tashkil eta oladi va pedagogik jihatdan bir maqsad yo'lida o'quvchilarni birlashtira oladi. Ana shunday mukammal estetik tafakkurli pedagog kadrlarni tarbiyalash oliy pedagogik musiqa ta'limi yo'nalishi professor-o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklaydi.

Biz bilamizki mahoratli sozanda cholg'u asarini mukammal ijro etgani bilan uning pedagogikasini o'quvchiga yetkazib berolmaydi, ya'ni boshqa bir o'quvchiga ijrochilik malakalarini o'rgata olmaydi.

Yana bir shunday ijrochilar borki, ijrochilikni qoyilmaqom qilmasada, pedagogik jihatdan o'quvchiga yetkazib, o'rgatib bera oladi. Aynan ushbu ikkala yo'nalishda ham kompetentlikka erishgan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini yetuk kadr sifatida kasbiy faoliyatiga tayyorlash bugungi kun oliy ta'lim muassasasi musiqa yo'nalishining oliy maqsadi hisoblanadi.

Ta'limni insonparvarlashtirish oliy pedagogik ta'lim tizimining maqsadlarini amalga oshiruvchi tamoyillaridan biri sifatida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining estetik – tafakkurini rivojlantirish mexanizmlarini aktallashtirishni taqozo etadi. Oliy pedagogik ta'lim yo'nalishlarida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining estetik tafakkurini rivojlantirish mexanizmlarini o'quv materiallarining imkoniyatlaridan, tegishli fanlarning integratsiyalashgan

aloqalaridan, o'qitilayotgan fanlarning zamon talabi asosida olib borilishi va ularning uzluksizligidan, kasbiy pedagogik yo'nalishdagi fanlarni tanlab olishdan maqsadli foydalangan holda ishlab chiqish lozim. Bo'lajak musiqa ta'lim o'qituvchilarining estetik tafakkurini rivojlantirishda pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish, vaziyatni to'g'ri baholash, pedagogik muammolarni to'g'ri hal qilish, turli ziddiyatlarga duch kelmaslik kasbiy faoliyatini tahlil qilish va boyitish imkonini beruvchi samarali mexanizmlarini yaratish maqsadga muvofiq. Bunday mexanizmlar, bolajak musiqa ta'lilmi o'qituvchilarining kasbiy faoliyat jarayonidagi estetik tafakkurini belgilab beradi.

Bugungi zamonaviy jamiyat musiqa o'qituvchisini har jihatdan yetuk qilib tayyorlashga yuqori talabni qo'ymoqda. O'zbekistonda ta'lim tizimining yuksalishi, ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy sohalaridagi o'zgarishlar zamonaviy musiqa o'qituvchisining estetik tafakkurini baholashimizda tubdan yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Bu esa jamiyatda yuqori darajadagi mutaxassis o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojni umumta'lim maktablarida musiqa fanini o'qitishning ilg'or imkoniyatlarini ochishni, musiqa fani o'qituvchilarini estetik tafakkurini samarali rivojlantirish uchun oliy pedagogik ta'limda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va ularni amalda qo'llash darajasini kengaytirishni taqozo etadi. Bu borada musiqa o'qituvchisining cholg'u ijrochiligi malakalari alohida omil bo'lib xizmat qiladi.

Estetik tafakkurni rivojlantirishdagi eng asosiy imkoniyatlar bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining oliy pedagogik musiqa ta'limi yo'nalishida cholg'u ijrochiligi darslarida amalga oshiriladi. Bu musiqa ta'limi o'qituvchisini estetik tafakkurini rivojlantirishda cholg'u ijrochiligi, xususan, rubob chalishni o'rgatish va ijrochini musiqa o'qituvchiligi kasbiga tayyorlash, asosiy metodik imkoniyatni beradi.

Rubob ijrochiligi malakalarini puxta egallagan talabada musiqa elementlarini, musiqiy rivojlanish qobiliyati darajasini ko'rsatib beradi. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining estetik tafakkurini rivojlantirish uchun cholg'u ijrochiligi darslari pedagogik jarayonni faollashtiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Talabalarning estetik tafakkurini rivojlantirishda oliy pedagogik ta'lim musiqa ta'limi yo'nalishi professor-o'qituvchilaridan yetarlicha pedagogik mahoratni talab qiladi. Ular tayyorlayotgan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilari "...barkamol avlod ta'lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo'lib, shu bilan birga, pedagogik mahoratni ham namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur". [3,-7 bet] Musiqa ta'limi yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar kelgusidagi kasbiy faoliyati davomida umumta'lim maktablarida musiqa darslarini tashkil qilishda va olib borishda nafaqat pedagogik mahoratga ega bo'lgan, balki estetik tafakkur jihatidan musiqiy bilmni, xususan, cholg'u ijrochiligi malakalarini ham yetarlicha egallagan

bo'lishi lozim. Bu esa musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyatidagi mashaqqatlarini, pedagogik muammolarini osongina hal eta olishlarini ifodalaydi. "O'z davrida Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Sa'di Sheroziy, Abu Ra'yhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abdulla Avloniy va boshqalar o'z asarlarida o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'ldan sifatleri to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni o'z asarlarida bayon qilishgan. Binobarin pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ham ega bo'lolmaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi bolani tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholashi, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi pedagogik, faoliyatda hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi lozim". [3.-8-bet]

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining estetik tafakkurini rivojlantirish uning ongini, estetik dunyoqarashini boyitish, kasbiy intellektual bilimlarini kengaytirish, talabalarga dars berayotgan professor-o'qituvchilarning asosiy maqsadiga aylanishi lozim.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya berishni rivojlantirishning yangi bosqichida bu masalaga kompleks yondashuvga katta e'tibor qaratilmoqda shu ma'noda integrallashgan fanlar tizimi orqali estetik tafakkurni rovojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Bunda bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida ularning estetik tafakkurini rivojlantirishda tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Estetik tafakkurni rivojlantirishda integrallashgan musiqa mashg'ulotlarini o'zida aks ettirgan cholg'u ijrochiligi, qo'shimcha cholg'u, cholg'u mutaxassisligi, ansambl sinfi va orkestr sinfi darslarining pedagogik jarayoni eng asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, puxta ishlab chiqilgan tashkiliy-pedagogik mexanizm turli ijrochilik qobiliyatiga ega bo'lgan talabalarni qulay muhitda, optimal o'qitishga ega bo'lish imkoniga ega bo'lishi lozim.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining estetik tafakkurini rovojlantirishda cholg'u ijrochiligi malakasini rivojlantirish yetakchi omil hisoblanadi. Chunki, cholg'u ijrochiligini namoyish etish jarayonida ham pedagogik jihatlar, ham musiqa san'atining muhim xususiyatlari mujassam etgan bo'ladi. Musiqiy nazariy bilimlarni egallash pedagogikasi orqali talabada ma'lum bir madaniy, ma'naviy, axloqiy va pedagogik xususiyatlar rivojlansa, cholg'u ijrochiligi sana'tini egallashi pedagogik mexanizmlari orqali talabaning ham ma'naviy – axloqiy sifatleri, ham estetik tafakkuri rivojlanadi. Cholg'u ijrochiligi mahoratini qo'llab, musiqa darslarini

pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil eta olganligi uning estetik tafakkuri rivojlanish darajasining ko'rsatkichini belgilaydi.

Rus pedagogi va musiqachisi M.G.Aranovskiyning fikricha boshlang'ich musiqa ta'limi o'qituvchisining estetik tafakkurini rivojlantirishda turli xil musiqiy faoliyatni amalga oshirish orqali bajarilgan funksiyalar asosida olib borilishi mumkin. Bular 3 turdan iborat bo'lib: musiqa yaratish, idrok etish va ijro etishdir. Ushbu 3 ta faoliyat turining birligi sifatida musiqiy tafakkur va uning umumiy qismi bo'lgan estetik tafakkur rivojlanadi.

San'atning mahsuli sifatida ifodalangan estetik tafakkur o'quvchi dunyoqarashini, ongini boyitish, maftun etish, uning e'tiborini yangi va yorqin taassurotlarga qaratish, estetik tuyg'usini uyg'otish, ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun muhim tarbiyaviy vazifani bajaradi.

Pedagogik ta'limda estetik tafakkur deganda shaxsning qadriyatlarni estetik his etuvchi ongini rivojlantirish va unga mos keladigan san'at faoliyati va estetik voqeylikni idrok etish tushuniladi. Shaxsga estetik ta'sir etuvchi va uning estetik tafakkurini rivojlantiruvchi vosita san'at bo'lib, bunda san'atning musiqa ijrochiligi turi estetik munosabatlarni jamlaydi va moddiylashtiradi. Shuning uchun ham musiqa ijrochiligiga estetik tafakkurni rivojlantiruvchi vosita sifatida qaraladi.

Musiqa ta'limi va tarbiyasi inson kamolotiga ta'sir etuvchi eng boy va samarali vasita hisoblanib, u insonning musiqiy va estetik tafakkurini uyg'un holda rivojlantiradi. Estetik tafakkur inson ongini boyituvchi barcha tafakkur turlari bilan bog'liq bo'lib, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni baholash, fikr bildirish, idrok etish bilan bog'liq jarayonlarda o'z ifodasini topadi.

Cholg'u ijrochiligi asosida bo'lajak musiqa ta'lim o'qituvchilarining estetik tafakkurini rivojlantirish muammosining nazariy tamoyili asoslari shundaki, ularning tashkiliy pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish uchun bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilariga maqsadli, tizimli yondashish lozim, ya'ni, oliy ta'lim muhitida san'at go'zalligini idrok eta oladigan va uni yarata oladigan, kasbiy tayyorgarligining asosini tashkil etuvchi pedagogik faoliyatni o'rganish va olib borishni amalga oshirish uchun yetarlicha shart – sharoit yaratib berishni taqozo etadi. Buni 1 – bosqichdan amalga oshirish maqsadga muvofiq. Oliy pedagogik musiqa ta'limiga qabul qilingan talabalarda estetik tafakkur o'ziga xos tarzda shakllangan bo'ladi, uni rivojlantirish va kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun tashkiliy – pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish OTMning eng oliy maqsadlaridan bo'lishi lozim. Bu esa quyidagi vazifalarni amalga oshirishini belgilaydi.

1. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining musiqiy idrokini rivojlantirish;
2. Ularning estetik his tuyg'ulari va g'oyalarini rivojlantirish;
3. Ularning musiqiy va ijodiy qobiliyatlarini muntazam rivojlantirib borish.

Estetik tafakkurning rivojlanishi jarayonida talabalar musiqiy ijod mahsulotlariga ongsiz munosabatdan ongli munosabatga, ya'ni, go'zallikni ongli his etishga o'tishadi.

“Estetika – san’atning umumiy nazariyasi, san’at falsafasi, san’at taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari to’g’risidagi fan” [3].

Insonning estetik xususiyatlari tug'ma bo'lmaydi, ular ijtimoiy muhitda va faol pedagoglarning rahbarligida juda yoshlikdan shakllanib boradi. Estetik jihatdan rivojlantirish jarayonida bolalar tomonidan estetik madaniyatning asta – sekin o'zlashtirishida estetik tafakkur va estetik didning shakllanishi musiqa o'qituvchisining roli katta. Bu esa biz tayyorlayotgan kadrlarning ham pedagogik jihatdan ham, estetik tafakkur jihatdan ham jiddiy yondashishini, o'z ustida muntazam ishlashini, kelajakda pedagogik faoliyatga yetuk kadr bo'lib borishini va jamiyat rivojiga barkamol insonni tarbiyalab berishdek muhim vazifani his qilib ta'lim olishini taqozo etadi.

Shu o'rinda “estetika”, “tafakkur”, “estetik tafakkur”, “estetik did”, “musiqiy did” kabi so'zlarga ta'rif berib o'tsak.

Estetika — qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, Asthetik — “his”, “tuyg'u” — olamni hissiy qabul qilinishini tadqiq etuvchi fandır. Estetika san’at, madaniyat va tabiatni subyektiv qabul qilinishini o'rganadi. “Estetika” atamasini nemis faylasufi A. Baumgarten (1714 – 1762) ilmiy muomalaga kiritgan.

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir.

Estetik tafakkur shundan dalolat beradiki, fuqarolik jamiyatining nafosat olamini yuksaltirish, uning ijtimoiy faolligini oshiruvchi, hayotni zavqiy idrok etishga undovchi, axloqiy – estetik qadriyatlarga nisbatan ijobiy va ijodiy munosabatlarni shakllantiruvchi kuchli ma'naviy omil, qadriyatlar hisoblanadi.

Estetik tafakkur inson salohiyatining intellektual xususiyatlaridan biri sifatida shaxsni muhit, tabiat va jamiyat bilan bog'lovchi ijtimoiy hodisadir.

Did (estetikada) — hayot va san’atning barcha sohalarida insonning estetik hodisalarni farqlash, tushunish va baholash qobiliyatidir.

Estetik did — voqea-hodisalarning estetik sifatlarini idrok etish va baholash jarayonida olinadigan qoniqish yoki qoniqmaslik tuyg'usi, estetik mezondir. Estetik did insonning fikr-mulohazalari, xulq-atvori, xatti-harakatlari moddiy va ma'naviy ijod mahsulotlarida o'z ifodasini topadi [3].

Estetik tarbiya – inson ongli faoliyatidagi eng qadimiy mashg’ulotlardan biri hisoblanadi. Estetik tarbiya har doim tarbiyaviy tadbirlarning eng asosiy negizi bo’lganligini e’tirof etishimiz lozim. Estetik tarbiya ilmiy dunyoqarashni shakllanishida, barkamol avlodni bilim doirasini kengaytirishda alohida e’tiborga molik.

Estetik tarbiya insoning voqelikdagi va go’zallikni idrok etish, tushunish va qadriga yetish qobiliyatini o’stiradi. Estetik tarbiya shuningdek, inson faoliyatining har qanday sohasida estetik boyliklar yaratish, go’zallik qonuni bo’yicha ijod qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi jamiyat a’zolarining har tomonlama mukammal rivojlanishlari uchun go’zallikni to’laqonli his etish uchun ko’maklashishdan iboratdir. Estetik tarbiya eng avvalo tabiat va jamiyatda go’zallikni ko’ra bilish, uni to’g’ri tushunish va qadrlash qobiliyatini tarbiyalashdan iborat. U hayot va mehnatning barcha tomonlariga go’zallik ato etish qobiliyatini tarbiyalash, dunyoda mavjud bo’lgan go’zallikni idrok qila bilishga va hayotda haqiqiy go’zallik uchun kurashishni o’rgatadi [6.-139-bet].

Xulosa. Oliy pedagogik musiqa ta’limining maqsadi va vazifasi bo’ljak musiqa ta’limi o’qituvchilarining zarur estetik tafakkurini rivojlantirish, ularni katta san’at olami bilan tanishtirish va o’rgatishning pedagogik xususiyatlarini ochib berish, san’atni idrok etish va baholash, estetik tafakkurni rivojlantirishda talabalarning go’zallikni his etish va amaliy jarayon bilan bog’liq bo’lgan musiqiy didni shakllantirish va biz tayyorlayotgan kadrlarning pedagogik jihatdan, estetik tafakkur jihatidan jiddiy yondashishini, o’z ustida muntazam ishlashini, kelajakda pedagogik faoliyatga yetuk kadr bo’lib borishini va jamiyat rivojiga barkamol insonni tarbiyalab berishdek muhim vazifani his qilib ta’lim olishi talabalarning oliy vazifasidir.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O’zbekiston. 2021. – 464 b.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son Qarori
3. Xoliqov A Pedagogik mahorat. O’quv qo’llanma 2010y 7 bet
4. A.Amonov. “Istiqlolimni kuylayman”, uslubiy qo’llanma, 2001 yil, 2-3 betlar.
5. Karimova D, Xonnazarova R. O’quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalashda «musiqa madaniyati» fani oldida turgan dolzarb masalalar. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2018. № 7. –b. 32
6. Sh.Avliyoqulov, N.Avliyoqulova. “Barkamol avlod tarbiyasida estetik tarbiyaning ahamiyati” Buxoro-2019yil 139-bet
7. www.wikipedia.com

O'RGATISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Omanqulova Shohida Nematillo qizi

O'zFinPI "Musika ta'limi" kafedrası dotsenti, p.f.f.d.

Hamrayeva Umida Shonazarovna

O'zFinPI "Musika ta'limi" kafedrası assistenti

shohidaomanqulova@gmail.com

Annotatsiya. Xalq ta'limi tizimini demokratik tamoyillarga asoslangan, dunyo andozalariga mos keladigan qilib keng isloh qilishda, o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk inson qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida milliy madaniy va musiqiy merosimiz namunalari hisoblangan "folklor" san'ati va ularda ilgari surilgan g'oyalarning tarbiyaviy jihatlarini hamda shaxs kamolotidagi ahamiyatini dars faoliyati jarayonida keng targ'ib qilish uchun ilmiy pedagogik xususiyatlarini ochib berish muhimdir.

Kalit so'zlar: umumta'lim maktablari, musiqa darslari, multimedia vositalari, xalq qo'shiqlari pedagogik xususiyatlar.

Аннотация. В условиях широкой реформы системы народного образования, основанной на демократических принципах и соответствующей мировым стандартам, важно воспитать из учащихся морально зрелых людей. В связи с этим важно раскрыть воспитательные аспекты «фольклорного» искусства, считающихся образцами нашего национального культурного и музыкального наследия, и значение идей, выдвигаемых в них в ходе урока, чтобы широко пропагандировать их в ходе урока.

Ключевые слова: общеобразовательная школа, уроки музыки, мультимедийные средства, народные песни, педагогические особенности.

Annotation. In the wide reform of the public education system based on democratic principles and conforming to world standards, it is important to educate students to be morally mature people. In this regard, it is important to reveal the scientific and pedagogical features of the art of "folklore", which are examples of our national cultural and musical heritage, and the educational aspects of the ideas put forward in them, as well as the importance of personal development in the music culture lessons of secondary schools.

Key words: general education schools, music lessons, multimedia tools, folklore songs, pedagogical features.

Kirish. Bugungi kunda yangi O'zbekistonning ta'lim tizimida dunyo andozalariga mos ravishda keng islohatlar amalga oshirilmoqda. Shu ma'noda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, demokratik tamoyillarga asoslanuvchi mazkur islohatlar insonparvar, demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirish sifatida e'tirof etilmoqda. Fuqarolik jamiyatning rivojlanishi, eng avvalo, ushbu jamiyatda yashayotgan barcha fuqarolarning ma'naviy-axloqiy jihatdan mukammal, yuksak darajadagi aqliy salohiyatga ega ekanligiga bog'liqdir. Ijoiy

mazmun kasb etuvchi ijtimoiy–axloqiy me’yorlar, qarashlarning yuzaga kelishida milliy madaniy-musiqiy meroslar o’ziga xos o’rin tutadi. Milliy madaniy va musiqiy merosimiz namunalari hisoblangan “folklor” san’ati va ularda ilgari surilgan g’oyalarning ijtimoiy jamiyatda taraqqiyoti hamda shaxs kamolotidagi rolga yuqori baho berar ekan, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil apel oyida Termizda bo’lib o’tgan Xalqaro baxshichilik san’ati festivalida so’zlagan nutqida: «folklor san’ati bu – insoniyatning bolalik qo’shig’idir»⁴ deb aytib o’tgan so’zlarida haqiqatdan ham katta ma’no bor. Shu ma’noda musiqa ta’limining milliy meros, xalq an’analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg’unligi, milliy madaniyat namunalari saqlab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotining o’ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmat qilishga yo’naltirilgan yangi tarbiya tizimining amalga oshirilishi ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlash imkonini berdi.

Yetuk va barkamol yosh-avlodni tarbiyalash borasidagi muhim vazifalar ta’lim muassasalarining, ayniqsa umumta’lim maktablari zimmasiga yuklanmoqda. Ana shunday vazifalardan biri – umumta’lim maktablari musiqa madaniyati darslarida xalq qo’shiqlarini o’rgatish, o’quvchi-yoshlarga milliy musiqiy merosimiz, xususan, milliy musiqiy an’alarimiz, ularning o’ziga xos xususiyatlari, ularda ilgari surilgan tarbiyaviy g’oyalar to’g’risida nazariy va amaliy ma’lumotlar berish, xalq qo’shiqlarini ijro etish layoqatini va ishtiyoqini hosil qilish, ijrochilik ko’nikma va malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

Umumta’lim maktablari musiqa madaniyati darslarida xalq qo’shiqlari vositasida o’quvchi-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash boshqa tarbiya vositalariga qaraganda samaraliroqdir. O’zbek xalq musiqa san’atining boy qadriyatlari hisoblangan xalq qo’shiqlari mazmunida shaxs kamolotini ta’minlashga xizmat qiluvchi ma’naviy–axloqiy qarashlar mujassamlashgan bo’lib, muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Chunonchi, xalq qo’shiqlar mazmunida farzandning ota-onalariga hurmatlarini saqlash, qarindosh–urug’ hamda qo’ni-qo’shnilar bilan samimiy munosabatda bo’lish, ularga g’amxo’rlik, mehribonlik, mehr–oqibat ko’rsatish, quvonchu tashvishlariga sherik bo’lish, dillariga ozor yetkazmaslik, kungillarini shod qilish, ona Vatanga muhabbat, yurtni ulug’lash, sadoqat, mehnatsevarlik, insonpararlik kabi g’oyalar ilgari suriladi.

Xalq qo’shiqlari xalqning ijtimoiy–tarixiy rivojlanishi, etnopsixologik xususiyatlari, hayotiy tarixiy tajribasi, urf-odat, milliy an’analari, ijtimoiy qarash maqsad hamda uni amalga

⁴ Mirziyoyev Sh.M. 2019-yil 7-apel. Termizda bo’lib o’tgan Xalqaro baxshichilik san’ati festivalida so’zlagan nutqi. www.gazeta.uz

oshirish yo'lida tashkil etiladigan faoliyat yo'nalishlari, shaxsga ta'lim va tarbiya berish an'analari asosida shakllangan bo'lib, asrlar davomida tarixiy vorislik tamoyiliga muvofiq avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

Xalq qo'shiqlarida aks etgan o'zaro uyg'unlashgan so'z va ohangning ta'sir kuchi, tarbiyaviy imkoniyati beqiyosdir. Ular yordamida ifoda etilgan o'git, pand-nasihat shaxs tomonidan tez qabul qilinadi. Ushbu holat o'quvchi shaxsining psixologik xususiyatlariga bog'liq holda kechadi. Musiqiy ohangni anglash, musiqiy asarlar mazmunini tushunish o'quvchi shaxsining estetik his-tuyg'ularini tarbiyalash, ijtimoiy borliqqa nisbatan mas'uliyatli yondashuv ko'nikmalarini hosil qiladi. Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlarini o'rgatish vositasida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonning samarali amalga oshirilishi bir qator omillarning mavjudligini taqozo etadi. Xususan:

- musiqa o'qituvchilarining xalq qo'shiqlarining tub mohiyatini chuqur anglay olishlari;
- shuningdek, ijro etiluvchi qo'shiqlardan namuna ko'rsatish asosida ijro etib berish;
- ularning ijro etish usullari xususida o'quvchilarga uslubiy yo'l-yo'riq ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlarini o'rgatish musiqiy an'analarning mazmunini chuqur o'rganish, ularning imkoniyatlaridan ta'lim-tarbiya, shu jumladan, o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash jarayonida samarali foydalanish va xalq qo'shiqlarini o'rgatishning ilmiy pedagogik xususiyatlarini ochib berish tadqiq etilishi zarur bo'lgan muammolardan biridir.

Umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida xalq qo'shiqlarini o'rgatish vositasida o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda ma'lum vazifalar qo'yadiki, bunda turli xildagi qiyinchiliklarning vujudga kelishi o'z-o'zidan ravshandir. Mamlakatimizda amal qilgan musiqiy-estetik ta'lim tarixini tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq qo'shiqlarini to'plash, notaga olish, nashr etish ishlari yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, musiqiy tarbiya yo'nalishi milliy asosga qurilmaganligi natijasida bu bebaho boyliklar tarbiya tizimidan chetlashib qoldi. Yevropa musiqa san'atining ta'siri natijasida vujudga kelgan vokal, xor, opera, balet, estrada, simfonik orkestrlar ijrochiligi bosh yo'nalishda taraqqiy etdi. Tabiiyki, musiqa va estetik tarbiyaga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ham asosan shu yo'nalishda bo'ldi. Bu san'at turlarini kamsitmagan va bu borada yaratilgan tadqiqotlar ahamiyatini pasaytirmagan holda ta'kidlash lozimki, yuqorida sanab o'tilgan san'at turlari bo'yicha bajarilgan tadqiqotlar san'atshunoslik yo'nalishida qilingan bo'lib, o'zbek xalq musiqasi, uning janr xususiyatlari, kuy tuzilishi, ijrochilik usullari,

rivojlanish yo'llari, qo'shiqchilik bobida uning ayrim turlarini izchil tadqiq qilinishi bizning ishimizda foydali ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan barcha tarixiy, madaniy, adabiy, san'at yodgorliklari va xalq og'zaki ijodini chuqur o'rganish, tahlil qilish, ulardagi umumbashariy va milliy g'oyalarning zamonga xizmat qildirgan holda o'zbekona, sharqona tafakkurni, g'ururni shakllantirish va kamolga yetkazish doimiy e'tiborda bo'lmoqda. Bu o'z navbatida, xalqimizning tarixiy an'analari, ma'naviy va madaniy merosidan oqilona foydalanish ko'lami va sifatiga ham bog'liqligini ko'rsatmoqda. Chunki xalqimizning tarixiy an'analari, ma'naviy va madaniy merosi millatning, jamiyatning milliy mafkurasini shakllantiruvchi tarbiyaviy quroldir. Bu meroslar tizimida badiiy-musiqiy qadriyatlar ham o'z o'rniga va nufuziga ega.

Ayniqsa madaniyat va san'at sohasida, musiqa sohasida deyarli barcha o'quv dasturlari, o'quv mashg'ulotlarining repertuarlari, musiqa jamoalari, maktablarning musiqa dasrliklaridagi asarlar bugungi kunda o'zbek milliy madaniyati asosida yozilgan namunalar bilan shakllantirilmoqda. Muayyan xalqning milliy ruhi, madaniyati, tarixi, turmush tarzi, urf-odatlar, hayotiy falsafasi va nihoyat, eng muhimi, shu xalqning qalbini o'zida mujassam etuvchi milliy musiqa va qo'shiqlariga e'tibor kuchaytirilmoqda. Shu ma'noda, qadimgi ajdodlarimiz milliy madaniyat, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi vositasida komil inson haqida bir butun ma'naviy-axloqiy, estetik talablar majmuasini, zamonaviy til bilan aytganda, sharqona axloq, odob, estetik kodeksini ishlab chiqqanlar.

Shunday ekan, O'zbekiston Oliy, o'rta-maxsus va xalq ta'limi tizimida ma'naviy, axloqiy, estetik tarbiya masalalariga bugungi tamoyillar nuqtai nazaridan qaralishida komil inson tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi xalq donishmandlarining bebaho manbai hisoblangan xalq og'zaki ijodining folklor janri eng muhim boylik hisoblanadi. Folklor badiiy so'z va musiqa san'ati hamda madaniyatining eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo'lgan sohasidir. Folklorshunoslikda "xalq ijodi" atamasining mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari va bu tushunchaning ma'nosi haqida turli xil fikrlar bildirilgan bo'lsa-da, xalq ijodiyotining, jumladan, xalq qo'shiqchilik san'ati va madaniyatining o'ziga xos tabiati va yetakchi xossalari to'la ochib berilmagan. Ongning rivojlana borishi, mehnat jarayonida insonning tajribasini ortib borishi, tabiat va jamiyat haqidagi fikr-tushunchalarni obrazli so'zlar orqali tasvirlashga intilishi og'zaki ijod shaklini paydo bo'lishiga hamda xalq qo'shiqchilik san'ati va madaniyatini yuzaga kelishiga turtki bo'lgan.

Xalq qo'shiqchilik san'ati mehnatkash xalq ijodi. Xalq badiiy-musiqiy qo'shiqchilik faoliyatining tarkibiy qismi, xalq san'atining boshqa turlari – dramatik teatr, tasviriy va amaliy san'at, raqsdan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan badiiy-musiqiy-ijroviy

san'atdir[4]. Xalq qo'shiqlari, shu jumladan, xalq qo'shiqlari xalqning ijodiy mahsuli sifatida shakllanib, avloddan avlodga, davrdan davrga o'tib iste'dodli vakillari ijrosida sayqal topib, o'zbek xalq poetik-musiqiy ijodi ko'rinishini tashkil etgan.

Xalq qo'shiqlari dastlab qanday yaratilgan bo'lsa, o'sha holicha saqlanib qolmagan, albatta. Xalq tomonidan va xalqning iste'dodli qo'shiq ijrochi vakillari tomonidan qayta ishlanib, turli o'zgarishlar kiritilgan. Yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyib, tarix sharoitiga, jamiyatga moslashib kelgan hamda so'z, kuy va ijro birligi doimo saqlangan.

Xalq qo'shiqchiligi san'ati uzoq o'tmishda yashab o'tgan xalqimizning estetik tafakkuriga borib taqaladi[7]. O'tmishda sayyohlar va tarixchilarning afsona va rivoyatlar, turli urf-odat va marosimlar haqidagi yozma va og'zaki yodgorliklari xalq qo'shiqchilik san'ati uchun muhimdir. Manbalarda yozilishicha xalq qo'shiqlarini yozib olishdagi birinchi tajribalar XI asrdan boshlab amalga oshirilgan.

Xalq qo'shiqlari mehnatkash xalqning, bolalar hayoti va turmush tarzini aks ettiradi. Xalqning olam haqidagi umumiy tushunchalarini, ijtimoiy-tarixiy, siyosiy, falsafiy va badiiy-estetik hamda musiqiy qarashlarini o'zida mujassamlantirgan. Bularning barchasi xalq qo'shiqlari mazmuni va g'oyasining chuqur xalqchiligini ko'rsatadi. Qo'shiqlardagi xalqchilikning asosini uning progressiv mazmun-mohiyati tashkil qiladi.

Xalq qo'shiqlari o'z xususiyatiga ko'ra o'zbek xalqining badiiy-musiqiy ijodi sifatida asrlar davomida yaratilgan jamoaning ijod ma'sulidir. Chunki xalq qo'shiqlari boshqa folklor asarlari kabi bir kishi tomonidan emas, balki butun bir jamoaning ijodiy tajribasi asosida vujudga kelgan va jamoa tomonidan ijro etib kelingan. Ikkinchi tomondan qaralganda esa xalq qo'shiqlarining ba'zi birlari iste'dodli kishilar tomonidan yaratilib, o'z qabilasi, urug'i odatlari, e'tiqodlari, orzu-istaklari, tabiat bilan bo'lgan munosabatlari aks ettirilgan. Qabila va urug' a'zolariga ma'qul tushgan shu xildagi qo'shiqlar og'izdan-og'izga o'tib, jamoa ijodiga aylangan. Qo'shiqlar shu tariqa jamoa orasida takomillashib, sayqal topib xalqning folklor mulkiga aylangan. Yakka ijodkor, qo'shiq ijrochisi qanchalik iste'dodli bo'lmasin, jamoa ijodi va ijrosining an'alariga bo'ysungan, xalq hayoti, xalq didi va talabiga moslashishga harakat qilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbek folklorshunosligi, jumladan, xalq qo'shiq san'atining bir qator materiallari xususidagi qarashlar, qimmatli ma'lumotlar o'rta asr tarixchilari Hamza Isfaxoniy, Tabariy, Ma'sudiy, Beruniy va boshqalarning asarlarida ko'zga tashlanadi. "Avesto", "Bexustun", "Bundaxishi", "Denkard" kabi yozma yodgorliklarda og'zaki adabiyotning ba'zi bir namunalari o'rin olgan. Turkiy xalqlarning xalq og'zaki ijodini avloddan avlodga yetkazishda alohida o'rin tutadigan olimlarimizdan biri, O'rta O'siyo xalqlarining atoqli

farzandi Maxmud Qoshg'ariy o'zining mashhur lingvistik asari hisoblangan "Devonu lug'otit turk" asarida qadimgi qo'shiq, lirik she'r va maqollardan turli namunalar beradi. Manbalarda yozilishicha Maxmud Qoshg'ariy yuqori Chindan boshlab to Movarounnahr, Xorazm, Farg'onaga qadar cho'zilgan hududni birma-bir kezib chiqib xalqni yashash tarzi, kasb-kori, urf-odatlarini, madaniyati va san'atini o'rgangan. To'plagan manbalarida mehnat qo'shiqlari xususida to'xtalib: mehnat qo'shiqlarida mehnat bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar, kishilarning mehnatga bo'lgan munosabati, mehnat mashaqqatlarini yengillashtirishga, xordiq chiqarishga, yoshlarni mehnatga ko'niktirishga va o'rgatishga yordam berayotganligini ifodalaydi.

Umuman olganda, o'zbek xalq qo'shiqchilik san'ati singari xalq qo'shiqchiligi ham uzoq tarixdan e'tiboran xalq ijodiyotiga kirib kelganligiga guvoh bo'lamiz. O'zbek xalq og'zaki ijodining musiqa san'ati va madaniyati bilan bog'liq bo'lgan afsona va rivoyatlar mashhur tarixiy siymolar Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Mashrab va boshqalar nomi bilan yaratiladi. Amir Temur o'z safarlarini baxshilarga doston qilib kuylashni topshirgan, To'xtamish saroyida Kamolzoda va Jahon Mirzo kabi jirovlar bo'lgan xalq dostonlariga yaqin shaklda yozilgan "Abo Muslim" kitobi XII asrda yaratilgan. Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biri bo'lsa-da, kichik shaklidagi xalq qo'shiqlarining yuzaga kelishiga ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shu xildagi holatlar xalq qo'shiq san'atining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib kelgan deb bilamiz.

Folklor (inglizchadan *folk*— "xalq", *lore* — "bilim", "donolik") xalq ijodini ifodalovchi termin. Fanga 1846-yilda ingliz arxeologi Villiam Thoms olib kirgan. 1880-1990-yillarda "folklor" termini ko'plab mamlakatlarda, jumladan, Rossiyada ham qo'llana boshlagan. O'zbekistonda dastlab, "og'zaki adabiyot", atamaları qo'llangan. "Folklor" termini 30-yillarning o'rtalaridan ishlatila boshlagan. 1939-yilda Hodi Zarifning "O'zbek folklori" xrestomatiyasi nashr etilgach, bu termin o'zbek folklorshunosligida mustahkam o'rin oldi [6].

Xulosa. Agar ijodkor xalq badiiy so'zning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonlardan ishongan deb aytadigan bo'lsak, unda xalq o'zining eng noyob folklor janridagi qo'shiqlarini so'z mo'jizasi va musiqaning sehirli ohangi bilan bunyod etgan. Shu xildagi bunyodkorlikning "Mavrigi", "Buxorcha" va bulardan tashqari bolalar, yoshlar xalq qo'shiqlarida ham o'z ifodasini topgan. Ya'ni, kattalar ijodkorligi bilan bir qatorda bolalar, yoshlar faoliyatida ham ijodiy ishlar shakllanib, rivojlanib kelgan. bolalar folklori aynan bolalar olami bilan kattalar dunyosining uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlarning butun bir tizimi tarzida tarkib topgan. bolalar xalq qo'shiqlarini yaratishda kattalar ham bolalar ham birgalikda, baravar hissa qo'shgan. Bolalar xalq qo'shiqlari bolalarda eng yaxshi fazilatlarini – vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, kishilarga ishonch, do'stlarga sadoqat tuyg'ularini kattalar

bilan birga tabiatning salbiy hodisalariga qarshi kurashish va ularni yengish malakasini tarbiyalaydi. Kattalar kichik yoshdagi bolalarni erkalash she'rlarini yaratishganki, alla, aytim, olqish, ovutmachiq, singari erkalash xususiyatlariga ega bo'lgan bu janrlar onalik folklori tarzida ifodalangan.

Xalq qo'shiqlari namunalarini o'rganish shundan dalolat beradi-ki, kishilar o'z mehnatlarini, turmushdagi barcha voqealarni qo'shiq bilan bezaganlar. Yuqorida qayd qilib o'tilganidek, folklor ijodiyoti boyliklari ichida kattalardan maktab yoshidagi bolalarga meros qoladigan qo'shiqlarning salmoqli turi mehnat qo'shiqlaridir. Mehnat qo'shiqlari xalq she'riyatining eng avvalgi turlaridan biri bo'lib, ularning yaratilishi va ijro etilishi kattalarning hamda bolalarning mehnat jarayoni bilan bog'liqdir. Bolalar dehqonlarni, hunarmandlarni ishlab turib qo'shiq aytganlarini ko'rgan, eshitgan, zavqlanib o'zlari ham she'rlar to'qigan va kuyga solib ijro etib yurgan. Qo'shiqning kattalar mehnatlarini yengillatganligi, ayrim so'zlari, undov nidolari ko'pchilikni baravar harakat qilishga da'vat etgan holatlari bolalar xalq qo'shiqlarida ham ko'zga tashlanadi. Shu sababdan ko'p qo'shiqlardagi so'zlar, vazn, qofiya ixcham, aniq bo'lgan. Ayrim so'zlar vaqti-vaqti bilan takrorlanib, hayqiriq, chaqiriq va mamnunlikni bildiruvchi nidolar alohida ohangda aytilib turilgan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. 2019-yil 7-apel. Termizda bo'lib o'tgan Xalqaro baxshichilik san'ati festivalida so'zlagan nutqi. www.gazeta.uz
2. Barkamol avlod orzusi. -T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. -245 b.
3. S.Begmatov "6-sinf musiqa madaniyati darsligi" -T.: "G'ofur G'ulom" nomidagi nashriyot, qayta ishlangan 6-nashri, 2017-yil.
4. Barkamol avlod orzusi. -T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. -245 b.
5. Madrimov B.X. Xalq musiqa folklori vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari. Pedagogika fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun Aftoreferat. Toshkent, 2008y, 22b.
6. Ochilov M, Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. – T.: "Aloqachi", 2008, - 304 b.
7. Umarov E. Estetika (Nafosatshunoslik). Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston, 1995. - 246 b.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

A X B O R O T N O M A S I

2025, № 3

Muharrir: M.Kalonov

Musahhih: D.Jabborova

Texnik muharrir: I.Mahmudov

Manzil: Navoiy sh., Ibn Sino ko‘chasi, 45-uy.

Navoiy davlat universiteti, Bosh bino.

Tel.: (8436) 522-19-30, Faks: 225-19-30; web-sayt: nspi.uz

e-mail: @nspi.uz yoki isfan2006@mail.ru

Nashrga ruxsat berildi.

Times New Roman garniturasida.

Nashr hisob tabog‘i – 8.

© Navoiy davlat universiteti, 2025*